ISNN 3030-3907

2025/5
VOLUME 1

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2025/5 VOLUME 1

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o'g'li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Izzatov Diyor Hikmatillo o'g'li
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A'ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G'ayrat Rashidovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Renessans ta'lim universiteti, professor.
Jo'rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o'g'li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do'stov Hamro
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o'g'li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Jalilov Jamshid G'anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G'afforovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
To'xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Navro'zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To'raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a'zolarning to'liq ro'yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay'ati a'zolarining tarkibini o'zgartirish hamda qo'shimcha kiritish yoki tahririyat a'zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o’tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	Qizilmiya ildizi xomashyosining umumiy tavsifi va undan foydalanish istiqbollari *Tursunov Baxodir Junaydullaevich*	9
2	Bulutli texnologiyalarni ta’lim tizimidagi o‘rni *Bexruz Zokirovich Mirxanov* *Jalolov Tursunbek Sadriddinovich*	17
3	Raqamli ta'lim muhitlarida kiberxavfsizlik masalalari *Tursunbek Sadriddinovich Jalolov* *Raximov Ravshonbek Razzakberdiyevich*	23
4	Трехмерная модель термогидродинамики замкнутого водоема *Рустамов Эркин Тохирович*	32
5	Dasturlashning ta'lim jarayoniga ta'siri *Rasulov Hasan Rustamovich*	42
6	Masshtablanadigan online kurslar(mooc) uchun axborot texnologiyalarini yaratish *Rajabov Azizbek Ravshan o’g’li*	50
7	Matematik kreativlikni o‘qitishda gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlardan foydalanish *Otajonova Sitorabonu Shuxratovna*	57
8	Sun’iy intellekt yordamida talabalar o‘quv samaradorligini oshirish yo‘llari *Obloyev Komronbek Hamza o‘g‘li*	66
9	Muruntov karyerida portlatish ishlarining samaradorligini oshirish. *Usmonov Firdavs Ro‘zimurod o‘g‘li*	73
10	Oliy ta’limda matematika o’qitishda xalqaro tajribadan foydalanish Baxronova Sayyora Botir qizi	79
11	Numerik integratsiya va differensiallash: splaynlar asosida yondashuvlar *Quvvatov Behruz Ulug‘bek o‘g‘li*	87
12	Oliy ta‘limda axborot texnologiyalari darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish *Murodov Oybek To’raqulovich*	95
13	Ta’lim jarayonida virtual reallik asosida interaktiv darslarni tashkil etishning samaradorligi *Jalolov Tursunbek Sadriddinovich* *Munirov Jonibek Jamshed o’g’li*	105
14	Raqamli texnologiyalar fani o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining ahamiyati *Ashurov Jasur Djo‘rayevich*	113
15	Sun’iy intellekt va virtual reallik texnologiyalari orqali interaktiv darsni tashkil etish *Hamroyev Bobirjon Baxritdinovich*	121
16	Structural dynamics of dna and proteins: molecular mechanisms and biological significance *M.X.Boboqulova*	128
17	Создание и практическая реализация модели, алгоритма цифрового беспроводного системы управления на базе операционной системы android с цифровыми технологиями arduino uno, bluetooth и wifi *Аслонов Кодир Зиёдуллаевич*	134
18	Oliy ta'lim muassasalarida psixiatriya kursining psixosomatik tibbiyot: psixosomatik buzilishlar turlari, klinikasi, diagnostikasi va psixoterapiyasi mavzusini o'qitishda case-based learning (cbl) texnologiyalardan foydalananish *Shukurlayeva Mashxura Farxodovna*	143
19	Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun psixoanaliz, psixodinamik terapiya, gestaltpsixologiya va bixeviorizm mavzusidagi mustaqil ishni o'zlashtirishda tavsiyalar *Shodiyeva Feruza Beshimovna*	150
20	Разработка алгоритма выбора оптимального граничного значения для очистки и сжатия шума из сигнала *Ахмедов Эргаш Юлдошевич* *Аметов Шерзод Бахтиёрович*	157

ISSN 3030-3907

21	Мобильное приложение, регистрирующее параметры качества воды *Ахмедов Эргаш Юлдошевич* *Тухтабоева Шахноза Муроджоновна*	165
22	Мониторинг производственного контроля промышленной безопасности на опасных производственных объектах *Рахимжонов Бекмуроджон Бахтиёржон ўғли* *Хасанхонов Зиёвуддинхон Хусниддинхон угли* *Амиркулов Нуриддин Сайфуллаевич*	173
23	Study of the radical polymerization process of 6-bromo-bomma *Mustafoev Khusen Mamedkulovich* *Sharipov Ilkhom Khusenovich* *Naimova Roziya Nodir qizi*	181
24	Tibbiy tasvirlardagi anomaliyalarni aniqlash uchun mashinali o'qitish algoritmlarini qo'llagan holda veb ilova ishlab chiqish *Akhmedov Ergash Yuldoshevich* *Erkinov Mahmudjon Zufar o'g'li*	191
25	Oliy ta'lim muassasalarida shaxs, temperament va xarakter: shaxs xususiyatlarini tekshirishda psixologik testlar va ularni qo'llash qoidalari, psixologik yordam turlari hamda psixologik himoya mexanizmlarini dars jarayoniga amaliy tatbiq etish *Karimova Sadoqat Sharif qizi*	200
26	Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida oshqozonni zondlash texnikasi. Oshqozonni yuvish, zond bilan ovqatlantirish mavzusini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish *Xalimov Aziz Olim o'g'li*	207
27	Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida yuqori nafas yo'llarida yot jism tiqilganda geymlix usulini qo'llash texnikasi mavzusini o'qitish metodikasi *Xalimov Aziz Olim o'g'li*	213
28	Web saytlar asosida masofali o'qitishni tashkil etish *Voxidov Dilshod Alikulovich* *Normatova Maftuna* *Boboqulova Marjona* *Voxidov Alikul Melitoshevich*	220
29	Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar *M.U.Torayev* *M.M.Xurboyeva*	225
30	Umuminsoniy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati *Navruzova Muyassar G'aybullayevna* *Mansurova Zarina Nurmatovna*	230
31	Dasturiy konfiguratsiyalanadigan tarmoq tarixi, tasnifi va tamoili tahlili *Muxammedinov Kobeysin Kuanishovich*	235
32	O'zbekiston milliy standartlarini xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularga yechimlar *Boboyev G'aybulla G'afurovich* *Hasanov Muhriddin Hakimjon o'g'li*	244
33	Creating personalized steam web platforms for children using artificial intelligence and gamification *Davletboyev Sardorbek Zokirjon o'g'li* *Salayeva Mavluda*	253
34	Aromatik birikmalar: benzol va uning hosilalari *Abduhamidov Qudrat Obidjonovich* *Ibragimova Firuza Farxodovna* *Ahmadaliyeva Nargiza Jabborovna* *Ishanqulova Mehri Muratovna*	270
35	Polimerlar: organik materiallar va ularning sanoatdagi o'rni *Ishonqulova Gulhon Tagaymurotovna*	277

ISSN 3030-3907

	Nasirova Durdona Yusupjonova *Raxmatullayeva Maxfuza Igamberdiyevna* *Yuldasheva Zarofat Igamberdiyevna*	
36	Kompyuter tarmoqlarida mavjud hujum izlari va ularning turlarining tasnifi *G'ulomov Sherzod Radjaboyevich* *Ramazonova Madina Shavkatovna* *Maxkamova Dildora Begaliyevna*	285
37	Mobil aloqa tayanch stansiyalari elektr energiya ta'minot manbalarini boshqarish algoritmlari tahlili *Davronbekov Dilmurod* *Matyokubov O'tkir* *Muradov Muhammad*	295
38	Guruch yormasini qayta ishlash kompleks texnologiyasining xususiyatlari *Baltayeva Gulnora Rajabboyevna*	304
39	Kommunikativ kompetentlik- bo'lajak pedagog Ijtimoiy va kasbiy faoliyati asosidir *Axmedov Akmal Yusufovich*	309
40	Suyuqlik-suyuqlik tizimida ishlovchi issiqlik almashinish apparatining entropik tahlili *Karabayev Asatilla Sunnatillayevich* *Zoxidov Mirakbar Zokir o'g'li* *Yo'lliyev Shukurali Ravshan o'g'li* *Abdukarimov Narimon Abdurauf o'g'li*	314
41	Eliminating factors that cause defects in The storage of raw silk *U.B. Makhmudov* *Sh.A. Sulaymanov* *U.M. Turdialiyev*	320
42	Improving the spinning properties of expensive textile raw materials by processing silk with sfm assistance *Sh.A. Sulaymanov* *U.B. Makhmudov*	326
43	The rise of organic semiconductor conductors: a revolution in electronics *Khojiev Sherali Teshayevich*	331
44	*Cellulose-based composite materials* *N.A.Xolxo'jayeva* *S.S.Sidiqov* *L.N.Boltayeva* *A.R.Maxkamov* *K.A.Maxmudov* *D.Ikramova* *E.A.Egamberdiyev*	340
45	Selection of mineral fibers for composite materials *N.A Xolxujaeva* *S.S.Sidiqov* *O.O.Xoliqulov* *K.A.Maxmudov* *A.A.G'ulomov* *E.A.Egamberdiyev*	351
46	Оп ределения координатного распределения локальных неоднородностей в объеме полупроводника *Гаибов А.Г* *Вахабов К.И* *Миркомилова М.С* *Джураев У.Э*	366
47	Mahalliy momiq tozalash uskunalarining samaradorligi bo'yicha izlanishlar *Norboyev O'tkir Akbaraliyevich*	371

ISSN 3030-3907

	Anarkulov Elyorjon Baxtiyorovich	
48	Mahalliy dag‘al jun tolasini titish-tozalash uskunasining qoziqchali baraban qoziqchalarini takomillashtirish orqali tozalash samaradorligini oshirish *Urozov Mustafokul Kulturayevich* *Jurayev Davron Amir o‘g‘li* *Abdirashidov Xumoyiddin Abdumuxammad o‘g‘li*	380
49	Nmap algoritmi: mobil navigatsiya uchun xaritalash, mahalliylashtirish va yo'lni rejalashtirishni integratsiyalash *Norqo‘ziyev Quvonchbek* *Ulashev Asror* *Aynakulov Toxir*	385
50	Zarmitan oltin rudali zonasida joylashgan «skipovoy» stvolining ruda omboridan 4-gmz ruda omboriga rudani tashish uchun transport tanlashda relyefning ta’sirining tahlili *Xudoyberdiyev Lochin Nekovich* *Maxmudov Azamat Maxmudovich* *Suleymanova Mukaddas Baxtiyarovna*	396

ISSN 3030-3907

QIZILMIYA ILDIZI XOMASHYOSINING UMUMIY TAVSIFI VA UNDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Tursunov Baxodir Junaydullaevich
Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya: Hozirgi kunda arzon va sifatli yonilg‘i briketlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganligi sababli, ishlatilgan qizilmiya ildizi va kimyo sanoati qoldiqlari asosida, issiq va sovuq kunlarga bardoshli, import o‘rnini bosuvchi, eksportbop va atrof muhitga ta’sir qilmaydigan briketlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga bog‘lash muhim ahamiyatga ega. Sirt faolligini o‘rganish sirt qavat tarkibi, uning xossalari, tuzilishi, sirtda ta’sir etuvchi kuchlar, sirt energiyasi, sirtda moddaning yig’ilishi (adsorbsiya), ho‘llanish, flotatsiya, kapillyar bosim, sirtlarda kimyoviy potensial va bug bosimining o’zgarishi, fazalar qoidasining dispers sistemalar uchun qullanilishi kabi jarayonlar o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Qizilmiya, korxona, qattiq sirt, disperslik darajasi, neftshlam, Qizilmiya ildizi,Utilizatsiya, sirt taranglik, sirt yuzasi, komponent imyoviy potensiali, komponentning mol sonlari, elektr potensial, zaryad miqdori

Аннотация: В настоящее время, в связи с ростом потребности в недорогих и качественных топливных брикетах, актуальным становится производство брикетов на основе использованных корней солодки и отходов химической промышленности. Такие брикеты обладают устойчивостью к жаре и холоду, могут заменить импортные продукты, имеют экспортный потенциал и не оказывают негативного воздействия на окружающую среду. Изучение поверхностной активности включает исследование состава поверхностного слоя, его свойств, структуры, действующих на поверхности сил, поверхностной энергии, адсорбции веществ на поверхности, смачивания, флотации, капиллярного давления, изменения химического потенциала на поверхности и давления пара, а также применение правила фаз к дисперсным системам.

Ключевые слова: Солодка, предприятие, твердая поверхность, степень дисперсности, нефтешлам, корень солодки, утилизация, поверхностное натяжение, поверхность, химический потенциал компонентов, количество вещества компонентов, электрический потенциал, величина заряда.

Abstract: Nowadays, due to the growing demand for affordable and high-quality fuel briquettes, it is crucial to develop and produce briquettes based on used licorice root and chemical industry waste. These briquettes are resistant to both hot and cold weather, serve as import substitutes, have export potential, and do not harm the environment. The study of surface activity involves examining the composition of the surface layer, its properties and structure, forces acting on the surface, surface

ISSN 3030-3907

energy, adsorption of substances on the surface, wetting, flotation, capillary pressure, changes in surface chemical potential and vapor pressure, and the application of the phase rule to disperse systems.

Keywords: Licorice, enterprise, solid surface, degree of dispersion, oil sludge, licorice root, utilization, surface tension, surface area, component chemical potential, component mole numbers, electric potential, charge amount.

Kirish

Energiyani tejash, energetik sinovlar o‘tkazish (korxonani loyihalash va ishga tushirish arafasida) natijalari asosida va mahsulot ishlab chiqarishda hamda xizmat ko‘rsatishdagi haqiqiy solishtirma energiya sig‘imi, sarf-xarajatlarini solishtirma energiya sig‘imning me’yoriy qiymatlari bilan taqqoslash asosida amalga oshiriladi.

Yoqilg‘i-energetika resurslari - bu material ob’ekt bo‘lib, unda inson tomonidan amaliy foydalanishga yaroqli energiya majmuidir.

Energetika resursi deb - tabiiy yoki sun’iy faollashgan har qanday energiya manbaiga aytiladi. Energiya resurslari – hozirgi vaqtda ishlatilayotgan yoki kelajakda ishlatilishi mumkin bo‘lgan energiya tashuvchilardir.

Tabiiy resurslarni, shu jumladan, energetika resurslarini, o‘rganishda ularning ilmiy tasnifi, ya’ni xomashyo, obyektlar va tabiiy muhit hodisalar yig‘indisini funksional muhimlik belgilari bo‘yicha ajratish kerak.

Tabiiy resurslarning tasniflaridan biri - bu tugallanish belgisi bo‘lib, unga binoan energetika resurslari zahirasi tugallanadigan va tugallanmaydiganlarga bo‘linadi (1.1-rasm). O‘z navbatida tugallanadigan energetika resurslari qayta tiklanuvchi va tiklanmaydigan bo‘lishi mumkin. Qayta tiklanuvchi energetika resurslariga tabiat (yer, o‘simliklar, hayvonlar va h.k.) tomonidan tiklanadigan resurslar kiradi, tiklanmaydigan energetika resurslariga - ilgari tabiatda yig‘ilgan lekin, yangi geologik sharoitlarda hosil bo‘lmaydigan resurslar (neft, ko‘mir va boshqa yer osti zaxiralari) kiradi. Tugallanmaydigan energetika manbalariga kosmik, iqlimiy, suv resurslari kiradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yoqilg‘i briketlarni tayyorlashda asosan *ko‘mir* va *o‘simliklardan* foydalanib kelmoqda. Shu sababli respublikamizda ko‘mirni ishlab chiqarish holati bo‘yicha to‘xtalib ketilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yoqilg‘i-energetikasining muhim tarkibiy qismlaridan biri – o‘simliklarni qayta tayyorlashda olinadigan o‘tinlar bo‘lib, u aholining ehtiyojida katta o‘rin tutmoqda. O‘simliklardan (tana, ildiz, barg va h.k.) yoqilg‘i sifatida foydalanish yildan-yilga ortib bormoqda. Ammo, daraxt va har xil o‘simliklar kamayib borganligi sababli yog‘ochli briketlardan foydalanish keskin kamayib borishi

ISSN 3030-3907

kuzatilmoqda. Mamlakatimizda o‘sadigan yovvoiy (qizilmiya) o‘simlikni ko‘paytirish meditsina uchun dori-darmon vositalarini tayyorlash va ishlatilgan qizilmiya ildizidan oqilona foydalanish dolzarb massalalrdan biriga aylanib qolgan. Ishlatilgan qizilmiya ildizlarini quritish va ulardan briketlarni tayyorlash bo‘yicha ko’p ishlar olib borilmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida jami 19 korxonada yiliga 120 ming tonnagacha qizilmiya ildizini qayta ishlab kelmoqda, va shundan 100 ming tonna atrofida chiqindi hosil bo‘lib kelmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Namangan viloyatida ishlatilgan qizilmiya ildizi asosida va boshqa qoldiqlarning hammasini utilizatsiya qilib, ulardan yonilg‘i briket va granulalar ishlab chiqarishga qaratilgan. Qizilmiya ildizi va qishloq xo‘jalik ekinlari qoldiqlarini yig‘ish, ularni quritish, boshqa birikkan aralashmalardan tozalash, maydalash va saralash, bug‘lantirish, siqish, shakl berish, sovutish, tayyor mahsulotni qadoqlash va saqlash jarayonlarini o‘z ichiga olgan. Sifat ko‘rsatgichlarini ta‘minlash maqsadida har bir bosqich uchun optimal texnologik rejim me’orlari belgilangan. Yonilg‘i briket va granulalarini ishlab chiqarish butun dunyoda tan olingan Evropa kompaniyalarining innovatsion uskunalari va texnologiyasi asosida rejalashtirilgan (RUF, NESTRO, PINI-KAY).

«Qoraqalpoqboyan» AJ aksiyalarining 30%ini 3 mlrd so‘mga taklif qilmoqda, bundan Rossiya Federatsiyasining O‘zbekistondagi Savdo vakolatxonasi ma’lumotlari darak beryapti, u kelishuvga vositachilik qilishga tayyor. Kompaniya Nukusda qizilmiya ildizini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Korxona 1963 yilda tashkil etilgan bo‘lib, balansida 16 ming gektar qishloq xo‘jaligi yerlari bor, 2 ming tonna siqilgan va 200 tonna 12 foiz namlikdagi saralangan qizilmiya ildizini ishlab chiqarish quvvatiga ega. Mahsulotlar eksport qilinadi, shu jumladan Rossiyaga ham eksport qilishi yo‘lga qo‘yilgan. 1998 yildan beri aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi, aksiyadorlarning 75 foizi - O‘zbekiston Respublikasi jismoniy shaxslari, 25 foizi - Xitoylik investorlar tashkil etadi.

Qizilmiya asosida quyuq va quruq qizilmiya ekstraktlar, qizilmiya siroplar, elekasol, glitsiram, likviriton, lavalon, flakarbin va boshqa keng doiradagi farmatsevtik preparatlari olinadi.

Tashqi ko‘rinishidan, qizilmiya o‘simligining balandligi bir-bir yarim metrgacha yetadi. Ammo, u juda issiq hududlarda va yetarli namlik bo‘lgan joylarda o‘sadi. Odatda qizilmiya 50-80 sm dan ortmaydi. Qizilmiya o‘simligi dukkaklilar oilasiga mansub ko‘p yillik ildizpoyadir. Qizilmiya barglari juft bo‘lmagan, 3-8 juft bargchali, ko‘pincha cho‘zinchoq-tuxumsimon shaklga ega, ba’zan ellipssimon va hatto lansetsimon bo‘ladi. Qizilmiyada barg bo‘laklari

ISSN 3030-3907

silliq, gulning ustki gulbargi “yelkanli”, gullari asosan ko‘k-binafsha rangda, ba’zan tepasida oppoq bayroqchasimon, loviya to‘g‘ri yoki biroz egilgan. Qizilmiya asosan ildiz va ildizpoyalari tarkibidagi saponin glitsirrizin (ildizlarda 23% gacha), erkin glitsirrizin kislotasi va flavonoidlarga boy hisoblanadi. Bundan tashqari, ildizlarda efir moyi, askorbin kislotasi, achchiq, pigmentlar va gumlar topilgan. Qizilmiya ildizi steroid birikmalarining bir nechta o‘simlik manbalaridan biridir.

Sifat ko‘rsatgichlarini ta’minlash maqsadida har bir bosqich uchun optimal texnologik rejim me’yorlari belgilangan. Yonilg‘i briket va granulalarini ishlab chiqarish butun dunyoda tan olingan Yevropa kompaniyalarining innovatsion uskunalari va texnologiyasi asosida rejalashtirilgan (RUF, NESTRO, PINI-KAY) [48; 415-416 b.].



2.1-rasm. Qizilmiya ildizlarining tashqi ko‘rinishi

Hozirgi kunda arzon va sifatli yonilg‘i briketlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganligi sababli, ishlatilgan qizilmiya ildizi va kimyo sanoati qoldiqlari asosida, issiq va sovuq kunlarda bardoshli, import o‘rnini bosuvchi, eksportbop va atrof muhitga ta’sir qilmaydigan briketlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga bog‘lash muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda arzon va sifatli yonilg‘i briketlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganligi sababli, ishlatilgan qizilmiya ildizi va kimyo sanoati qoldiqlari asosida, issiq va sovuq kunlarga bardoshli, import o‘rnini bosuvchi, eksportbop va atrof muhitga ta’sir qilmaydigan briketlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga bog‘lash muhim ahamiyatga ega.

Sirt faolligini o‘rganish sirt qavat tarkibi, uning xossalari, tuzilishi, sirtda ta’sir etuvchi kuchlar, sirt energiyasi, sirtda moddaning yig’ilishi (adsorbsiya), ho‘llanish, flotatsiya, kapillyar bosim, sirtlarda kimyoviy potensial va bug bosimining o’zgarishi, fazalar qoidasining dispers sistemalar uchun qullanilishi kabi jarayonlar o‘z ichiga oladi.

Sirt hodisalarni sinflarga bo’lishda sirt qavat qanday ekanligiga e’tibor beriladi.

Sirt hodisalarni sinflarga ajratishda termodinamikaning birinchi va ikkinchi qonunlarining birlashgan tenglamasidan foydalanish ancha qulaylik tug‘diradi.

$$\Delta G = -SdT + VdP + \sigma dS + \Sigma \mu_i dn_l + \phi dq$$

ISSN 3030-3907

bu yerda, ΔG - izobar potensial (Gibbs energiyasining o'zgarishi); S – entropiya;

I – hajm; Б- sirt taranglik; S - sirt yuzasi; n_l - komponent μ_i ning kimyoviy potensiali; n_l - komponentning mol sonlari; ϕ - elektr potensial; q - zaryad miqdori.

Tenglama Gibbs energiyasining o'zgarishi issiqlik, mexanik, sirt kimyoviy va elektr energiyalar o'zgarishining algebraik yig'indisi ekanligini ko'rsatadi. Bu tenglamadan yana shuni ko'rish mumkinki, 1) sirt energiya Gibbs energiyasiga, 2) issiqlikka, 3) mexanik energiyaga, 4) kimyoviy energiyaga va 5) elektr energiyaga aylana oladi. Demak, sirtda besh tur hodisa sodir bo'lish imkoniyati mavjud. Bularning hammasida sirt energiya boshqa tur energiyaga aylanishi mumkin. Energiyaning bu aylanishlari - disperslik darajasi o'zgargan sari moddaning kimyoviy reaksiyalarga kirishish qobiliyatining adgeziya (ya'ni turli xil formalarga oid moddalarning molekulalari orasidagi o'zaro tortishish kuchlarining namoyon bo'lishi) va kogeziyaning (ya'ni bir tur fazaga oid modda molekulalari orasidagi o'zaro tortishish kuchlari) o'zgarishi bilan, kapillyarlik hodisalari bilan, adsorbsiya (moddalarning sirtda yig'ilishi) va elektr potensiallarining o'zgarishi bilan birgalikda sodir bo'ladi.

Suyuqlik qattiq jismga adsorblanganida bir qattiq sirtning ikkinchi qattiq sirt bilan yopishish (adgezion) ta'siri oshishi mumkin. Ishlatilgan qizil miyya fraksiyalarining o'zaro yopishishiga yordam beruvchi organik adgeziv- neftshlam va gassipol qatroni va anorganik adgeziv- so'ndirilmagan ohakdan tashkil topgan.

Ishlatilgan qizil miya ildizlarining briketlash ishida sirt-aktiv moddalarning rolini adsorbsiyaning borishiga ayni sistemada bo'lgan gaz va suyuqliklarning tabiati (ularning liofil yoki liofob moddalar ekanligi), shuningdek, qattiq moddaning maydalanish va boshqa omillar ham ta'sir etadi. Briketlarning sifatini oshirish maqsadida sirt-aktiv moddalar qo'llash ancha unumli natijalar beradi.

Qizilmiya ildizlari (Glycyrrhiza glabra) o'sayotgan sharoitga va o'simlikning yoshiga qarab o'lchamlari har xil bo'lishi mumkin. Umuman olganda, qizilmiya ildizlari uzunligi 30 sm dan 1 metrgacha va qalinligi 1 dan 3 sm gacha bo'lishi mumkin, ammo ba'zi hollarda ular kattaroq bo'lishi mumkin. Ildizlar xarakterli silindrsimon shaklga ega va tarvaqaylab ketishi mumkin. Ildizlarni yig'ishda, faol komponentlarning maksimal miqdorini olish uchun ular etuk bo'lishi kerakligini yodda tutish kerak.

Yoqilg'i briketni olishdan oldin ishlatilgan qizilmiyani tayyorlash lozim.

Ishlatilgan qizilmiya ildizini tayyorlash quyidagicha: Qizilmiya o'simligining ildizpoyalari belkurak bilan qazib olinadi, tez oqar suvda yuviladi yoki tuproq qumli bo'lsa yaxshilab chayqatiladi, so'ngra 15-20 mm uzunlikdagi

ISSN 3030-3907

bo‘laklarga bo‘linadi va yorilib sina boshlaguncha quritiladi. Qizilmiya ildizpoyaning qalinligi 5 mm dan katta bo‘lmasligi lozim. Qizilmiya ildizini quritmasdan tozalash mumkin, lekin odatda quruq ildizlar tozalaniladi. Qizilmiya ildizlar 60°C dan yuqori bo‘lmagan haroratda quritiladi. Tayyor ildizlar quruq, usti yopiq joyda saqlanadi. Xom ashyoni saqlash muddati - 10 yilgacha talab etilgan. Olingan qizilmiya ildizlarini yuqori sifatli quritish ABM-065 barabanli quritgich pechida amalga oshirildi. Qizilmiya ildizini quritishning samarasi keyingi bobda batafsil yoritib berilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlarga asosan, laboratoriya sharoitida gossipol qatroni, neftshlami va so‘ndirilmagan ohak (yoki ko‘mir kukuni) asosida bog‘lovchi mahsulotning namunalari olingan. Tajribani o‘tkazish uchun uzunligi 10-15 mm va tegishli o‘lchamdagi qalinlikda bo‘lgan qizilmiya ildizlarining fraktsiyalari ishlatilgan: 12-15 mm; 10-12 mm, 7-10 mm; 3-7 mm; 1-3 mm; 0,5-1 mm. Tanlab olingan qizilmiya fraksiyasi har bir bog‘lovchi mahsulotsi bilan quyidagi (9:1; 10:1; 11:1; 12:1; 13:1; 14:1 va 15:1) nisbatda yoqilg‘i briket namunalari olindi [4;114-115 b.].

Olingan yoqilg‘i briket namularini sifatini tahlil qilish va tadqiqotlash jarayonlari keyingi paragraflarda batafsil yoritib berilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yoqilg‘i briketlarni tayyorlashda asosan ko‘mir va o‘simliklardan foydalanib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi yoqilg‘i- energetika majmuining ajralmas va muhim tarkibiy qismi ko’mir sanoati sanaladi. Shu sababli Respublikamizda ko‘mirni ishlab chiqarish holati bo‘yicha ko‘mir ikki joyda: Surxondaryo viloyatining Sharg‘un konidan (toshko‘mir) va Toshkent viloyatining Angren ko‘mir havzasidan qazib olinishi tahlil qilindi.

Respublikamizdagi yoqilg‘i-energetikasining yana bir muhim tarkibiy qismlaridan biri – o‘simliklarni qayta tayyorlashda olinadigan o‘tinlar bo‘lib, u aholining ehtiyojida katta o‘rin tutishi bilan o‘simliklardan (tana, ildiz, barg va h.k.) yoqilg‘i sifatida foydalanish yildan-yilga oshib borishi tahlillari o‘tkazildi.

Bugungi kunda Mamlakatimizda o‘sadigan yovvoiy (qizilmiya) o‘simlikni ko‘paytirish meditsina uchun dorilarni tayyorlash va ishlatilgan qizilmiya ildizidan oqilona foydalanish dolzarb massalalrdan biriga aylanib qolgan. Ishlatilgan qizilmiya ildizlarini quritish va ulardan briketlarni tayyorlash bo‘yicha ko‘p ishlar olib borilmoqda.

Yoqilg‘i briketlarni tayyorlashda bog‘lovchining ahamiyati juda katta bo‘lganligi sababli va briketlarni ishlash sohasiga qarab xo‘jalik yoki sanoat miqyosida joriy etish uchun bog‘lovchini tanlash katta masalalardan biriga aylanib qolgan. Sanoat miqyosida ishlatiladigan bog‘lovchilarni olish texnologiyalari ishlash prinsipi haqida ma’lumotlar keltirildi

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Турсунов, Б. Ж., & Шомуродов, А. Ю. (2021). Перспективный метод утилизации отходов нефтеперерабатывающей промышленности. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, *1*(6), 239-243.
2. Турсунов, Б. Ж., Турсунов, Б. Ж., Адизов, Б. З., Адизов, Б. З., Исмоилов, М. Ю., & Исмоилов, М. Ю. (2023). МЕХАНИЧЕСКАЯ ПРОЧНОСТЬ ТОПЛИВНОГО БРИКЕТА ПОЛУЧЕННОГО НА ОСНОВЕ НЕФТЯНОГО ШЛАМА, ГОССИПОЛОВОЙ СМОЛЫ И КОРНЯ СОЛОДКИ. *Scientific journal of the Fergana State University*,*(6)*, 102-102.
3. Junaydullaevich, T. B. (2023). ANALYSIS OF OIL SLUDGE PROCESSING METHODS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(9), 139-146.
4. Турсунов, Б. Ж. (2021). Анализ методов утилизации отходов нефтеперерабатывающей промышленности. *Scientific progress*, *2* (4), 669-674.
5. Tursunov, B. Z. (2023). ANALYSIS OF MODERN METHODS FOR OIL SLUDGE PROCESSING. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(9), 280-287.
6. Junaydullayevich, T. B., & Zamirovich, A. B. (2023). QUALITATIVE CHARACTERISTICS OF A FUEL BRIQUETTE OBTAINED BASED ON LICORICE ROOT AND A BINDING MIXTURE. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, (11-12), 63-68.
7. Tursunov, B., Gadoev, B., & Ortikova, M. (2021). OIL SLUDGE AND THEIR IMPACT ON THE ENVIRONMENT. *Universum: технические науки*, (6-5), 69-71.
8. Tursunov, B. J., & Shomurodov, A. Y. (2021). Perspektivnyi method utilizatsii otkhodov neftepererabatyvayushchey promyshlennosti. *ONLINE SCIENTIFIC JOURNAL OF EDUCATION AND DEVELOPMENT ANALYSIS*, *1*(6), 239-243.
9. Tursunov, B., Usmonov, B., Nuriddinov, B., Alimov, H., & Qurbonov, U. (2025, February). Study on the oscillations of the Euler-Bernoulli beam on an elastic base. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3268, No. 1). AIP Publishing.
10. Tursunov, B., Adizov, B., & Tursunova, M. (2024). Technology for obtaining high-quality fuel briquette based on petroleum and vegetable oil residues. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 548, p. 01012). EDP Sciences.

ISSN 3030-3907

11. Tursunov, B. Z., & Gadoev, B. S. (2021). PROMISING METHOD OF OIL WASTE DISPOSAL. *Academic research in educational sciences*, *2*(4), 874-880.
12. Junaydullaevich, T. B. (2023). BITUMENS AND BITUMEN COMPOSITIONS BASED ON OIL-CONTAINING WASTES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(9), 147-152.
13. Tursunov, B. Z. (2023). WASTE-FREE TECHNOLOGY FOR ENRICHMENT OF PURIFIC COPPER-ZINC ORE. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(9), 288-293.
14. Tursunov, B. Z. (2023). Methods of Control of Explosion Energy Distribution in Rocks. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599)*, *1*(10), 108-117.
15. Tursunov, B. Z. (2023). Analysis of Concepts About the Effect of an Explosion in Solid Wednesday. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(10), 296-304.

ISSN 3030-3907

BULUTLI TEXNOLOGIYALARNI TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI

Jalolov Tursunbek Sadriddinovich
Ilmiy rahbar Osiyo xalqaro universiteti Dotsenti p.f.f.d.(PhD)
Bexruz Zokirovich Mirxanov
Osiyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada bulutli texnologiyalarning ta’lim tizimidagi o‘rni, afzalliklari, imkoniyatlari hamda ular yordamida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish yo‘llari yoritilgan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiyoti sharoitida bulutli xizmatlar o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib bormoqda. Shuningdek, maqolada ushbu texnologiyalarni joriy etishda uchraydigan muammolar va ularni hal etish yo‘llari haqida ham so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: bulutli texnologiyalar, ta’lim tizimi, raqamli transformatsiya, onlayn ta’lim, axborot xavfsizligi, masofaviy o‘qitish, zamonaviy ta’lim texnologiyalari.

Аннотация: В статье рассматриваются роль, преимущества и возможности облачных технологий в системе образования, а также способы эффективной организации образовательного процесса с их использованием. В условиях развития современных информационно-коммуникационных технологий облачные сервисы становятся неотъемлемой частью образовательного процесса. В статье также рассматриваются проблемы, возникающие при внедрении данных технологий, и пути их решения.

Ключевые слова: облачные технологии, система образования, цифровая трансформация, онлайн-образование, информационная безопасность, дистанционное обучение, современные образовательные технологии.

Abstract: This article discusses the role, advantages, capabilities of cloud technologies in the education system, and ways to effectively organize the educational process with their help. In the context of the development of modern information and communication technologies, cloud services are becoming an integral part of the educational process. The article also discusses the problems encountered in the implementation of these technologies and ways to solve them.

Keywords: cloud technologies, education system, digital transformation, online education, information security, distance learning, modern educational technologies.

Asosiy qisim

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan to‘laqonli foydalanishdir. Shu ma’noda, bulutli texnologiyalar (cloud technologies) hozirgi kunda ta’lim sohasida eng samarali va istiqbolli vositalardan biri sifatida tan olinmoqda. Ular orqali nafaqat ma’lumotlarni saqlash

ISSN 3030-3907

va uzatish, balki ta’lim resurslarini boshqarish, tahlil qilish va interaktiv darslar tashkil etish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Adabiyotlar sharhi.Raqamli texnologiyalar ta'limda juda katta o’zgarishlarni olib keldi. Onlayn ta'lim va masofaviy o’qitish (e-learning) pandemiya davrida jadal rivojlandi va ta'limni o’qituvchi va talabalar uchun qulayroq qildi. Zoom, Microsoft Teams va Google Classroom kabi platformalar orqali masofaviy ta'limning samaradorligi oshdi. Bu platformalar, darslar, seminarlar va amaliy mashg’ulotlarni real vaqt rejimida tashkil etish imkoniyatini berdi. Interaktiv darslar ham raqamli texnologiyalar yordamida yanada samarali bo’ldi.

O’qituvchilar o’z darslarini video, animatsiyalar, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar yordamida taqdim etishmoqda, bu esa talabalar uchun darslarni tushunishni osonlashtiradi. Shuningdek, elektron kutubxonalar va resurslar yordamida talabalar kerakli ma'lumotlarga tezkor kirish imkoniyatiga ega bo’ldilar. Shuningdek, ma'lumotlarga kirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar o’quvchilarga global miqyosda ma'lumotlarga tez va qulay kirish imkonini yaratadi, bu esa o’quv jarayonini yanada boyitadi. Raqamli resurslar, onlayn kurslar va ilmiy maqolalar ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Sun'iy intellekt (SI) ta'limni yanada individualizatsiya qilish imkoniyatini yaratadi. Personalizatsiya konsepti SI yordamida yangi bosqichga ko’tarildi: o’quvchilarning o’qish jarayoni ularning bilim darajasiga moslashtiriladi. Masalan, adaptive learning tizimlari o’quvchilarning o’rganish uslubiga mos holda dars materiallarini taqdim etadi. Bu, o’z navbatida, har bir talabaning o’ziga xos ehtiyojlariga javob beradi va samaradorlikni oshiradi.

Bulutli texnologiyalar, oddiy qilib aytganda, foydalanuvchilarga internet orqali turli xizmatlardan masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi axborot tizimidir. An’anaviy texnologiyalardan farqli o‘laroq, bulutli xizmatlarda foydalanuvchining kompyuterida kuchli texnik ta’minot bo‘lishi shart emas, chunki barcha asosiy hisoblashlar, ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash bulutdagi serverlarda amalga oshiriladi. Ta’lim sohasida bu esa o‘qituvchi va o‘quvchilarning joylashgan hududidan qat’i nazar yagona resurslar bazasidan foydalanish imkonini beradi. Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlar ta’lim tizimiga bulutli texnologiyalarni joriy etish orqali dars jarayonini yanada erkin, mobil va shaxsga yo‘naltirilgan shaklga olib chiqmoqda. Masalan, Google Workspace for Education, Microsoft Office 365 Education, Amazon Web Services kabi platformalar o‘qituvchilar, talaba-yoshlar va ta’lim muassasalari uchun bepul yoki chegirmali shakllarda xizmatlar taqdim etadi. Ushbu platformalar orqali hujjatlar bilan ishlash, guruhli loyihalar yaratish, video darslar o‘tkazish, test sinovlarini o‘tkazish va natijalarni avtomatik tahlil qilish mumkin.

ISSN 3030-3907



Shu o‘rinda xalqaro tajribani tahlil qilish bulutli texnologiyalarning ta’limdagi o‘rnini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Misol uchun, AQShdagi “Khan Academy” onlayn ta’lim platformasi butunlay bulutli tizim asosida ishlaydi. Bu tizim orqali dunyo bo‘ylab millionlab o‘quvchilar bepul interaktiv darslar, testlar, video-ma’ruzalar va mashqlar orqali mustaqil ta’lim olish imkoniga ega. Bu tajriba bulutli texnologiyalar orqali ta’limni demokratlashtirish — ya’ni har kimga, istalgan vaqtda va istalgan joyda ta’lim olish imkoniyatini yaratish g‘oyasini amalda isbotlab berdi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ham “Digital Education Action Plan” doirasida bulutli xizmatlar asosida onlayn maktablar, universitetlar va o‘quv platformalari keng joriy etilmoqda. Masalan, Estoniya o‘zining raqamli ta’lim infratuzilmasi bilan butun dunyoga namuna bo‘lib kelmoqda. U yerda barcha maktablar yagona bulutli platformaga ulangan bo‘lib, o‘quvchilarning baholari, uy vazifalari, fanlar bo‘yicha resurslari elektron jurnal orqali kuzatib boriladi. Shuningdek, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi texnologik jihatdan ilg‘or mamlakatlarda bulutli ta’lim platformalari orqali sun’iy intellekt bilan integratsiyalashgan tizimlar joriy etilgan. Bu tizimlar o‘quvchilarning qiziqishlari, bilim darajasi va o‘zlashtirish tezligiga qarab individual ta’lim yo‘nalishini tavsiya etadi.

O‘zbekistonda esa raqamli ta’lim sohasidagi asosiy yutuqlardan biri — **“Bilim.uz”, “Edu.uz”**, va **“Maktab.uz”** kabi platformalarning yo‘lga qo‘yilishi bo‘ldi. Ular orqali o‘quvchilar uchun masofaviy ta’lim olish, elektron darsliklardan foydalanish, video darslarni ko‘rish, test sinovlarini topshirish imkoniyatlari yaratildi. Ayniqsa, pandemiya davrida bulutli texnologiyalarning roli keskin oshdi, chunki butun ta’lim tizimi qisqa muddat ichida masofaviy ta’limga o‘tishga majbur

ISSN 3030-3907

bo‘ldi. Bu davrda Zoom, Google Meet, Microsoft Teams kabi platformalar asosiy vositaga aylandi.

Lekin pandemiya O‘zbekistondagi ta’lim sohasidagi raqamli tafovutlarni ham ochib berdi. Shahar va qishloq maktablari o‘rtasidagi texnologik imkoniyatlar farqi, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi, o‘quvchilarning planshet yoki kompyuter bilan ta’minlanganlik darajasi — bulutli texnologiyalarni to‘liq joriy etishga to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida ko‘zga tashlandi.

Yana bir muhim jihat — axborot xavfsizligi. Bulutli texnologiyalar bilan ishlashda maxfiylik, shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash, kiberxavfsizlik qoidalariga amal qilish muhim hisoblanadi. Aks holda, o‘quvchilarning ma’lumotlari, test natijalari, shaxsiy fayllar va boshqa muhim axborotlar uchinchi tomon qo‘liga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun ta’lim muassasalari maxsus bulutli serverlardan foydalanishi, xavfsizlik protokollarini joriy qilishi zarur.



Kelajakda bulutli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan yangi o‘quv uslublari shakllanishi kutilmoqda. Jumladan:

— VR/AR texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirilgan onlayn laboratoriyalar,
— Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim tizimlari,
— Katta hajmdagi ta’lim ma’lumotlarini (big data) tahlil qilish orqali samaradorlikni oshirish,
— Talabaning individual ta’lim yo‘l xaritasini yaratish.

Ushbu texnologiyalarni joriy etish orqali nafaqat dars sifati oshadi, balki o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi, faolligi va ijodiy fikrlashi ham rivojlanadi. Bu

ISSN 3030-3907

esa o‘z navbatida, zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos, raqamli savodxon va mustaqil fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ta’lim tizimining raqamlashtirilishi doirasida bulutli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Xususan, ZiyoNET portali, EduMarket, UzEDU platformalari orqali onlayn ta’lim xizmatlari kengaytirilmoqda. Ushbu tizimlar orqali o‘quvchi va talabalarga elektron darsliklar, testlar, video-ma’ruzalar taqdim etilmoqda. Shu bilan birga, o‘qituvchilar uchun ham malaka oshirish kurslari masofaviy shaklda yo‘lga qo‘yilgan.

Bulutli texnologiyalarning ta’lim tizimiga qo‘shgan ijobiy jihatlari quyidagilardan iborat:

— Ma’lumotlar har doim mavjud: foydalanuvchilar internetga ulanib, istalgan vaqtda o‘z materiallariga kirishlari mumkin

— Tejamkorlik: qimmatbaho serverlar yoki dasturiy ta’minotni sotib olishga ehtiyoj kamayadi;

— Moslashuvchanlik: o‘quv resurslarini yangilash, ularga o‘zgartirish kiritish oson va tez amalga oshiriladi;

— Jamoaviy ish: guruh bo‘lib ishlash imkoniyatlari osonlashadi;

— Avtomatlashtirish: baholash tizimlari, ishtirok monitoringi, topshiriqni tahlil qilish jarayonlari avtomatlashtiriladi.

Shunga qaramay, bulutli texnologiyalarni joriy etishda ba’zi muammolar ham barqaror internet ulanishining mavjud emasligi, texnologik savodxonlikning pastligi, axborot xavfsizligi masalalari va boshqa texnik muammolarni keltirib o‘tish mumkin. Bularni hal etish uchun esa ta’lim tizimida raqamli infratuzilmani mustahkamlash, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning AKT kompetensiyalarini rivojlantirish zarurdir.

Bundan tashqari, bulutli texnologiyalarning tez sur’atlar bilan rivojlanishi pedagogik yondashuvlarni ham o‘zgartirmoqda. Endilikda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchi faoliyatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va o‘zlashtirish jarayonini boshqaruvchi shaxsga aylanmoqda. Shu bilan birga, o‘quvchi ham passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi, tadqiqotchi va yaratuvchi rolida qatnashadi. Bunday transformatsiya esa ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Maqolada ko‘rib chiqilganidek, bulutli texnologiyalar nafaqat texnik vosita, balki yangi o‘quv muhitini yaratish imkoniyatini ham beradi. Bu esa o‘z navbatida, individual yondashuv, differensial o‘qitish va o‘zlashtirish darajasini oshirishga

ISSN 3030-3907

xizmat qiladi. Shu sababli, bulutli texnologiyalarni ta’lim tizimiga chuqur integratsiya qilish — zamon talabi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bulutli texnologiyalar ta’lim tizimida keng qo‘llanilishi natijasida o‘quv jarayoni yanada ochiq, interaktiv va innovatsion tus olmoqda. Ular yordamida ta’limda teng imkoniyatlar yaratish, sifatli bilim berish, masofaviy ta’limni ommalashtirish va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish imkoni mavjud. Kelgusida bu texnologiyalarni joriy etishda tizimli yondashuv, pedagogik va texnik tayyorgarlik, milliy platformalarni yaratish hamda axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari alohida e’tibor talab etadi. Yakuniy xulosa sifatida shuni ta’kidlash kerakki, bulutli texnologiyalarni ta’lim tizimida joriy qilish — bu faqat texnologik yangilik emas, balki tub pedagogik yondashuvlarni o‘zgartiruvchi, sifatli bilim berishga yo‘l ochuvchi, ochiq va inklyuziv ta’limga zamin yaratadigan keng ko‘lamli islohotdir. Bu yo‘lda hukumat, ta’lim muassasalari, o‘qituvchilar, IT mutaxassislari va o‘quvchilar hamjihatlikda harakat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Назаров, Ш. (2022). Bulutli texnologiyalar va ularning ta’lim tizimidagi ahamiyati. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Axmedova, M. (2021). Raqamli transformatsiya sharoitida zamonaviy ta’lim texnologiyalari. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi ilmiy jurnali.
3. Qodirov, A., & Eshmatov, I. (2020). Bulutli texnologiyalar asosida masofaviy ta’limni tashkil etishning uslubiy asoslari. – O‘zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jurnali, №2, 33–40-betlar.
4. Sadriddinovich, J. T., & Zokirovich, M. B. (2025). BULUTLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM TIZIMIDA SAMARALI QO ‘LLASH YO ‘LLARI. PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 3(1), 200-202.
5. Islom, A., & Kamola, X. (2024). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKTNING TA’LIM TIZIMIDAGI O’RNI. JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH, MODERN VIEWS AND INNOVATIONS, 1(2), 79-84.

ISSN 3030-3907

RAQAMLI TA'LIM MUHITLARIDA KIBERXAVFSIZLIK MASALALARI

Tursunbek Sadriddinovich Jalolov
Ilmiy rahbar Osiyo xalqaro universiteti Dotsenti p.f.f.d.(PhD)
Raximov Ravshonbek Razzakberdiyevich
Osiyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhitida yuzaga kelayotgan kiberxavfsizlik muammolari tahlil qilinadi. Internet texnologiyalarining ta’lim sohasida keng joriy etilishi, onlayn darslar, elektron jurnal va baholash tizimlari, hamda masofaviy ta’lim shakllarining ommalashuvi kiberxavfsizlik masalalarini dolzarb etmoqda. Maqolada kiberhujum turlari, ularning ta’lim tizimiga salbiy ta’siri, shuningdek, talaba va o‘qituvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish zarurati haqida fikr yuritiladi. Muallif axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar, xavfsizlik siyosatlari va profilaktika choralarini ko‘rib chiqadi

Kalit so’zlar: kiberxavfsizlik, ta'lim, Raqamli ta'lim, axborot tizimlari, masofaviy ta’lim, himoya.

Аннотация. В статье анализируются проблемы кибербезопасности, возникающие в среде цифрового обучения. Широкое внедрение интернет-технологий в образование, популярность онлайн-занятий, электронных журналов и систем оценки, дистанционных форм обучения делают вопросы кибербезопасности все более актуальными. В статье рассматриваются виды кибератак, их негативное влияние на систему образования, а также необходимость защиты персональных данных учащихся и преподавателей. Автор рассматривает современные подходы к обеспечению информационной безопасности, политику безопасности и превентивные меры.

Ключевые слова: кибербезопасность, образование, цифровое образование, информационные системы, дистанционное обучение, защита.

Abstract. This article analyzes the emerging cybersecurity problems in the digital educational environment. The widespread introduction of Internet technologies in the field of education, the popularity of online classes, electronic journals and assessment systems, as well as distance learning forms, make cybersecurity issues relevant. The article discusses the types of cyberattacks, their negative impact on the education system, as well as the need to protect the personal data of students and teachers. The author considers modern approaches to ensuring information security, security policies and preventive measures.

Keywords: cybersecurity, education, Digital education, information systems, distance learning, protection.

ISSN 3030-3907

Kirish

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi O‘zbekistonda ta’lim sohasini, xususan, onlayn platformalar, elektron darsliklar va masofaviy ta’lim tizimlari kabi raqamli ta’lim muhitlarini o‘zlashtirish orqali sezilarli darajada o‘zgartirdi. 2020-yilda boshlangan COVID-19 pandemiyasi ushbu o‘tishning katalizatori bo‘lib, ta’lim muassasalarini an’anaviy sinf sharoitlaridan raqamli formatlarga o‘tishga majbur qildi. Ushbu siljish Prezidentning 2021-yil 6-oktabrdagi qarori bilan yanada qo‘llab-quvvatlanib, unda ta’lim tizimini raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratilib, ta’lim olishda kirish, sifat va samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Nazorat guruhi – an’anaviy usulda ta’lim olgan o‘quvchilar.Tajriba guruhi – SI (chatbot, intellektual testlar) va VR (3D modellar, virtual tajribalar) texnologiyalari yordamida darslar o‘tilgan o‘quvchilar. Eksperiment 6 hafta davom etib, har ikki guruhga identik mavzular o‘rgatildi, ammo dars o‘tish metodikasida farq bo‘ldi. Tajriba guruhida quyidagi texnologiyalar qo‘llandi:

Sun’iy intellekt asosida ishlovchi o‘quv chatbot – mavzuni tushuntirish, testlar va javoblar orqali differensial yondashuvni ta’minladi.

Virtual reallik ilovalari – biologiya va geografiya fanlarida 3D muhitlarda organlar yoki geologik qatlamlar strukturasini interaktiv ko‘rish imkonini berdi.

Tajriba yakunida o‘quvchilarning bilim darajasi, darsga bo‘lgan qiziqishi va mustaqil ishlash ko‘nikmalari quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholandi:

ISSN 3030-3907

Bugungi raqamli davrda dasturlashni o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi. Ammo uni samarali o‘rganish uchun to‘g‘ri yondashuv va reja zarur. Dasturlashni o‘rganayotgan shaxs avvalo o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishi kerak: u ish topmoqchimi, o‘z loyihalarini yaratmoqchimi yoki shunchaki bilim doirasini kengaytirmoqchimi — bu savollarga javob topish motivatsiyani belgilaydi.

Samarali o‘rganishning eng muhim jihatlaridan biri bu amaliyotdir. Dasturlash – bu faqat nazariya emas, balki ko‘p mashq talab qiladigan san’atdir. Har kuni kamida bir necha soat kod yozish, kichik loyihalar yaratish, turli murakkablikdagi masalalarni yechish orqali bilimlar mustahkamlanadi. Hatto boshlang‘ich darajada bo‘lsa ham, real hayotdagi muammolarni kod yordamida yechishga urinish o‘rganishni sezilarli darajada tezlashtiradi.

Yana bir muhim omil – bu to‘g‘ri manbalarni tanlash. Internetda minglab kurslar, darsliklar va video darslar mavjud, ammo ulardan sifatli va foydalisini tanlash samaradorlikka ta’sir qiladi. Dastlab oddiy tilda tushuntirilgan, asosiy tushunchalarni chuqur yoritadigan kurslar bilan boshlash tavsiya etiladi.

Shuningdek, muloqot va tajriba almashish ham o‘rganishni yengillashtiradi. Forumlarda qatnashish, GitHub’dagi loyihalarni ko‘rib chiqish, boshqa dasturchilar bilan hamkorlik qilish orqali nafaqat bilim, balki amaliy tajriba ham ortadi.

O‘rganish davomida xatolardan qo‘rqmaslik kerak. Dasturchilar aynan xatolar orqali rivojlanadi. Har bir xatolik – bu yangi bilim deganidir. Shuning uchun har bir muammo yoki xato kodni to‘g‘rilashga undaydi va bu orqali o‘zlashtirish chuqurlashadi.

Jadval 2.

Dasturlashni o‘rganish samaradorligi.

Yil	Tadqiqotda qatnashgan o‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajasi
2022	50	78%
2023	75	85%
2024	100	91%

ISSN 3030-3907

Dasturlash o'qitishning mintaqaviy xususiyatlari

Har bir mintaqa o'zining maxsus ehtiyojlari va imkoniyatlariga qarab dasturlash o'qitishga turlicha yondashishi mumkin. O'zbekiston kontekstida dasturlash o'qitishning quyidagi xususiyatlari mavjud:

Mahalliy ehtiyojlarga moslashtirilgan dasturlar

O'zbekistonda dasturlash o'qitish jarayonida mahalliy biznes va sanoat ehtiyojlarini hisobga olish, dasturlarni shunga moslashtirilgan holda tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va turizm sohalarida qo'llaniladigan maxsus dasturiy ta'minot yaratish ko'nikmalarini o'rgatish.

Ko'p tilli ta'lim muhiti

O'zbekistonda dasturlash o'zbek, rus va ingliz tillarida o'rgatilishi mumkin. Bu o'quvchilarga xalqaro darajada raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi. Ingliz tilini bilish dasturlash sohasida eng yangi ma'lumotlarga ega bo'lish uchun muhim ahamiyatga ega.

Internet qamrovi va texnik ta'minotning turlicha darajasi

Respublikaning turli hududlarida internet tezligi va kompyuter ta'minoti turlicha. Bu sharoitda offline ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan asboblar va resurslarni ishlab chiqish muhim. Masalan, Texnologiyalar va Axborot texnologiyalari Vazirligi tomonidan 2023 yilda qishloq maktablari uchun 100 mingdan ortiq kompyuterlar yetkazib berilgan.

Dasturlashni o'qitishda zamonaviy pedagogik usullar

Zamonaviy ta'lim tizimida dasturlashni o'qitishda bir qator innovatsion pedagogik usullar qo'llanilmoqda:

Problem-based learning (Muammoga asoslangan ta'lim)

O'quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan vazifalar berish orqali ularning analitik va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. Bu usul o'quvchilarni nafaqat kodlashni, balki muammoni tahlil qilish va uni hal qilish strategiyasini ishlab chiqishni ham o'rgatadi.

Flipped classroom (Teskari sinf)

O'quvchilar nazariy materialni uyda (video darslar, onlayn kurslar orqali) o'rganadilar, sinfda esa amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bu usul o'qituvchiga har bir o'quvchi bilan individual ishlash va ularning muammolarini hal qilishga ko'proq vaqt ajratish imkonini beradi.

Peer teaching (Tengdoshlar orqali o'qitish)

O'quvchilar bir-birlariga o'rgatish orqali o'z bilimlarini mustahkamlaydilar. Bu usul orqali o'quvchilar nafaqat texnik bilimlarni, balki kommunikativ ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshqalarga tushuntirib berish orqali o'quvchi materialni 90% gacha o'zlashtiradi.

ISSN 3030-3907

Project-based learning (Loyihaga asoslangan ta'lim)

O'quvchilar semestrdavomida bir yoki bir necha loyihalar ustida ishlaydilar. Bu usul orqali ular nafaqat dasturlash ko'nikmalarini, balki loyihalarni boshqarish, vaqtni taqsimlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

Xulosa.

Dasturlashni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ularning kelajakdagi kasbiy salohiyatini oshirish va ta’lim jarayonini interaktiv qilishda muhim ahamiyatga ega. Dasturlashni erta bosqichdan boshlab o‘qitish orqali o‘quvchilarning innovatsion fikrlash qobiliyati rivojlanadi va ularning ta’lim jarayonida faol ishtiroki ta’minlanadi. Shuningdek, dasturlash ta’lim jarayoniga kiritilganda o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishi ortadi, ularning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan ishtiyoqi kuchayadi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish malakasi rivojlanadi. Bu esa kelajakda innovatsion iqtisodiyotning yetuk mutaxassislarini tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Wing, J. M. (2006). Computational Thinking. Communications of the ACM.
2. Resnick, M. (2017). Lifelong Kindergarten: Cultivating Creativity through Projects, Passion, Peers, and Play. MIT Press.
3. Grover, S., & Pea, R. (2013). Computational Thinking in K-12: A Review of the State of the Field. Educational Researcher.
4. UNESCO. (2021). AI and Digital Learning: Strategies for the Future. UNESCO Publishing.
5. Google for Education. (2020). The Role of Coding in Modern Education. Google Reports.

ISSN 3030-3907

UDK: 004.4:37.018.43

MASSHTABLANADIGAN ONLINE KURSLAR(MOOC) UCHUN AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI YARATISH.

Rajabov Azizbek Ravshan o'g'li

Osiyo Xalqaro universiteti Umumtexnik fanlar kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

E-mail:rajabovazizbek627@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada massiv ochiq onlayn kurslar (MOOC) platformalarini yaratish va ularni samarali masshtablanishini ta'minlash bo'yicha axborot texnologiyalari tahlil qilinadi. MOOC platformalarining asosiy xususiyatlari, ularni ishlab chiqishning texnologik asoslari va dasturiy ta'minotga qo'yiladigan talablar yoritiladi. Shuningdek, MOOC tizimlarini ishlab chiqishda qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar va dasturiy ta'minot arxitekturasi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: MOOC, masshtablanish, dasturiy ta'minot, ta'lim texnologiyalari, bulutli hisoblash, onlayn kurslar, sun'iy intellekt, veb-ilovalar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются информационные технологии, используемые для создания платформ массовых открытых онлайн-курсов (MOOC) и обеспечения их эффективного масштабирования. Анализируются основные характеристики MOOC-платформ, технологические основы их разработки и требования к программному обеспечению. Также подробно рассматриваются современные технологии и архитектура программного обеспечения, используемые при разработке MOOC-систем.

Ключевые слова: MOOC, масштабирование, программное обеспечение, образовательные технологии, облачные вычисления, онлайн-курсы, искусственный интеллект, веб-приложения.

Abstract. This article analyzes information technologies used for creating massive open online course (MOOC) platforms and ensuring their effective scalability. It highlights the key features of MOOC platforms, the technological foundations of their development, and the requirements for software. Additionally, detailed information is provided on modern technologies and software architecture applied in the development of MOOC systems.

Keywords: MOOC, scalability, software, educational technologies, cloud computing, online courses, artificial intelligence, web applications.

Kirish.

MOOC, masshtablanish, dasturiy ta'minot, ta'lim texnologiyalari, bulutli hisoblash, onlayn kurslar, sun'iy intellekt, veb-ilovalar.Massiv ochiq onlayn kurslar (MOOC) zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Dunyo miqyosida ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Coursera,

ISSN 3030-3907

edX, Udacity kabi platformalar foydalanuvchilarga yuqori sifatli ta’lim xizmatlarini taqdim etmoqda. Ammo bu kabi platformalar katta hajmdagi foydalanuvchilarni qamrab olishi uchun ularga mos keluvchi axborot texnologiyalari va dasturiy yechimlar talab qilinadi. Ushbu maqolada MOOC platformalarini yaratish, ularning masshtablanishiga ta’sir etuvchi omillar va zaruriy texnologiyalar haqida so‘z yuritiladi.

O'zbekistonda massiv ochiq onlayn kurslar (MOOC) va masofaviy ta'limni rivojlantirish bo'yicha bir qator muhim tashabbuslar amalga oshirilgan:

Masofaviy ta'limni joriy etish bo'yicha qarorlar: 2020-yil 15-fevral**:** Prezident farmoniga muvofiq, 2020/2021 o'quv yilidan boshlab Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti, Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti va Toshkent Davlat Yuridik Universitetida masofaviy ta'lim joriy etilishi belgilandi. Ushbu qaror masofaviy ta'limni rivojlantirish uchun zaruriy dasturiy va texnik infratuzilmani yaratishni nazarda tutadi.

2022-yil 16-iyun**:** Prezidentning "Davlat oliy ta'lim muassasalariga talabalarning qabulini tashkil etish to'g'risida"gi farmoniga asosan, 2022/2023 o'quv yilidan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha masofaviy ta'lim shakllari joriy etilishi belgilandi.

Ishning borishi MOOC platformalarining rivojlanishi ta’lim tizimini raqamlashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:
Jeremy Riel University of Illinois Chicago ushbu olim Masshtablanadigan online kurslar bo’yicha izlanishlar olib brogan , unda MOOC kurslarini tashkil etish uni mobil operatsion tizimini yaratish nazarda tutulgan bo’lib Malumotlar bazasi MySQL bo’lib xizmat qilgan.
Foydalanuvchilar uchun yaratilgan ushbu loyihada esa Mobil Android hamd IOS tizimlari web dasturlari, hamda Suniy intelekt asosida real vaqt rejimida javob beradigan AI tizimini joriy etib, talabalarni MOOC platformasidan video darsliklarni ko’rib vazifalarni bajarib ularni ilovani o’zida yuborib tezkorlik bilan AI hamda tajribali mentorlardan tegishli ko’rsatmalar olib boriladi. MOOC ni boshqa dasturlardan afzalliklari shundan iborat .

1. **Loyihalash** – Foydalanuvchilarning ehtiyojlarini tahlil qilish va arxitekturani belgilash.
2. **Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish** – Platformaning backend va frontend qismlarini yaratish.
3. **Integratsiya** – Video, testlar, sertifikatlash tizimlarini birlashtirish.

ISSN 3030-3907

4. **Masshtablanish** – Bulutli texnologiyalar va mikroxizmatlar arxitekturasidan foydalanish.
5. **Xavfsizlik** – Ma’lumotlarni himoya qilish va autentifikatsiya tizimlarini joriy etish.
6. **Sinov va qo‘llab-quvvatlash** – Tizimni real sharoitda sinovdan o‘tkazish va optimallashtirish.

Kerakli texnologiyalar MOOC platformalarini ishlab chiqishda quyidagi texnologiyalar muhim ahamiyatga ega:

- **Bulutli hisoblash**: AWS, Google Cloud, Microsoft Azure – yuqori yuklamalarni ta’minlash va ma’lumotlarni saqlash uchun.
- **Dasturiy ta’minot**: Python (Django, Flask), Node.js, Java (Spring Boot) backend uchun, React, Angular yoki Vue.js frontend uchun.
- **Ma’lumotlar bazasi**: PostgreSQL, MongoDB, MySQL – foydalanuvchi ma’lumotlarini samarali boshqarish uchun.
- **Xavfsizlik**: OAuth 2.0, JWT, SSL/TLS shifrlash texnologiyalari.
- **Sun’iy intellekt**: Foydalanuvchi tajribasini yaxshilash va individual o‘qitish dasturlarini yaratish uchun TensorFlow, PyTorch.

Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish MOOC platformasi quyidagi komponentlardan iborat bo‘lishi mumkin:

1. **Foydalanuvchi interfeysi** – Kurslarni qidirish, o‘quv jarayoni va sertifikat olish imkoniyatini ta’minlovchi veb-ilova.
2. **Kontent boshqaruvi** – O‘qituvchilar tomonidan yuklangan materiallarni saqlash va boshqarish tizimi.
3. **Interaktiv tizim** – Testlar, forumlar, vebinarlarga ulanish imkoniyatlari.
4. **Analytics va hisobotlar** – Talabalar faolligini kuzatish va natijalarni tahlil qilish tizimi.

MOOC mobil ilovasi uchun Figma roli

Figma orqali dastur prototipini ishlab chiqish quyidagi afzalliklarni beradi:

Foydalanuvchi interfeysi (UI) dizayni – Ilovaning vizual ko'rinishini ishlab chiqish.

Interaktiv prototip yaratish – Tugmalar, sahifalar o'rtasidagi o'zaro bog‘liqlikni sinash.


Foydalanuvchi tajribasi (UX) testlari – Ilovani qulay ishlatilishini oldindan tekshirish.

ISSN 3030-3907

Dasturchilar bilan hamkorlik – Tayyor dizayn kodga o'tkazish uchun dasturchilarga ulashiladi.

MOOC ilovasi uchun Figma prototipi qanday yaratiladi?

1. Wireframe yaratish – Asosiy sahifalarni qog'ozda yoki Figma'da oddiy bloklar sifatida chizish.
2. Asosiy ekranlarni dizayn qilish – Profil, kurslar ro‘yxati, video sahifalar, test topshiriqlari va sertifikat berish bo‘limlari.
3. Interaktivlik qo‘shish – Tugmalarni bosganda qaysi sahifaga yo‘naltirishni belgilash.
4. Test qilish va fikr olish – Dizaynni sinab ko‘rish va kerakli o‘zgarishlarni kiritish.
5. Dasturchilarga ulashish – Kodga o‘tkazish uchun dizaynni Figma orqali dasturchilarga topshirish.



MOOC Platformasi Algoritmi

1. Foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tishi va tizimga kirishi

-Foydalanuvchi **ro‘yxatdan o‘tadi** (ism, email, parol).

-Email orqali **tasdiqlash kodi yuboriladi.**

-Tasdiqlangan foydalanuvchi **shaxsiy kabinetga kiradi.**

2. Kurslarni tanlash va ro‘yxatdan o‘tish

-Foydalanuvchi **kurslar ro‘yxatini** ko‘radi.

-Kurs haqida **batafsil ma’lumot** oladi (mavzular, o‘qituvchi, davomiylik, reyting).

-Kursga **ro‘yxatdan o‘tadi** va **kurs materiallariga kirish huquqiga ega bo‘ladi.**

3. Darslarni o‘tish

-Video darslar, matnli materiallar va topshiriqlar mavjud.

-Har bir bo‘lim oxirida **test yoki amaliy topshiriq** bajariladi.

ISSN 3030-3907

-Foydalanuvchi kurs davomida **muvaffaqiyat foizi** hisoblanadi.

4. Kursni tamomlash va sertifikat olish

-Kursning **barcha darslari va testlari** muvaffaqiyatli yakunlanishi kerak.

-Minimal **o‘tish ballari** (masalan, 70%) talab qilinadi.


-Agar kurs muvaffaqiyatli tugatilsa, **sertifikat avtomatik generatsiya qilinadi.**

5. Foydalanuvchi faoliyatini tahlil qilish

-Foydalanuvchi **ta’lim jarayonida qanchalik faol bo‘lgani** tahlil qilinadi.

-Sun’iy intellekt (AI) asosida **shaxsiy ta’lim tavsiyalari** beriladi.

Masshtablanadigan online kurslar bilan , Masshtablanadigan online kurslarga AI tizimini joriy etilsa ish unumdorligi narx,samaradorlik,qamrov, yordam 24/7, o’quv tezligi kabi faktorlar oshadi. Bunga misol tariqasida quyida keltiriladigan jadval keltirib o’tmoqchimiz.



Xulosa: MOOC platformalarining muvaffaqiyati ularning samaradorligi, masshtablanish darajasi va foydalanuvchilarga qulaylik yaratish qobiliyatiga bog‘liq. Yuqorida ta’kidlangan texnologiyalar va metodologiyalar orqali zamonaviy MOOC tizimlarini yaratish va rivojlantirish mumkin. Bu esa ta’limning ommalashishiga va global miqyosda bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

MOOC platformalarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun ularning foydalanuvchilar ehtiyojlariga mosligini doimiy ravishda baholash va takomillashtirish lozim. Kurslarning interaktivligini oshirish, sun’iy intellektdan foydalangan holda individual ta’lim yo‘nalishlarini yaratish, mobil qurilmalar

ISSN 3030-3907

uchun optimallashtirilgan muhit taqdim etish zamonaviy MOOC tizimlarining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridandir.

Kelajakda MOOC platformalarining rivojlanishi ta’limga bo‘lgan talabning ortib borishi bilan yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ta’lim texnologiyalarining innovatsion yondashuvlari va bulutli hisoblash infratuzilmasidan keng foydalanish yangi avlod MOOC tizimlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur platformalarning uzluksiz ravishda modernizatsiya qilinishi va zamonaviy dasturiy vositalar bilan integratsiya qilinishi ularning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Siemens, G., & Downes, S. (2011). "Connectivism and MOOC: The Future of Learning."
2. Jordan, K. (2014). "Initial Trends in Enrolment and Completion of Massive Open Online Courses."
3. Pappano, L. (2012). "The Year of the MOOC." The New York Times.
4. Coursera, edX, Udacity rasmiy veb-saytlari va texnik hujjatlari.
5. Cloud computing va dasturiy ta’minotga oid ilmiy maqolalar va ta’lim texnologiyalari bo‘yicha tadqiqotlar.
6. Ravshanov, A. (2024). DATA TYPES IN JAVASCRIPT PROGRAMMING LANGUAGE. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 143-150.
7. Раджабов, А. Р. (2024). JAVASCRIPT ЯЗЫКЕ ПРОГРАММИРОВАНИЯ ТИП ДАННЫХ JSON. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 167-174.
8. Ravshanovich, A. R. (2024). JSON IN JAVASCRIPT. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 175-182.
9. Раджабов, А. Р. (2024). ТИПЫ БАЗ ДАННЫХ. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 204-210.
10. Rajabov, A. (2024). REPLACE OBJECT ORIENTED PROGRAMMING (OOP) IN PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(9), 221-229.
11. Ravshanovich, A. R. (2024). LISTS, DICTIONARIES IN PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 183-189.

ISSN 3030-3907

12. Раджабов, А. Р. (2024). СТРУКТУРА БАЗЫ ДАННЫХ: POSTGRESQL. PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI, 2(7), 56-61

ISSN 3030-3907

MATEMATIK KREATIVLIKNI O‘QITISHDA GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Otajonova Sitorabonu Shuxratovna
Osiyo Xalqaro universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematika o‘qitish metodlari, ularni qanday amalga oshirish, o‘quvchilarga puxta bilim berishga, o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo‘llarini o‘rgatish, matematika o‘qitish jarayonida insonni mehnatni sevishga, o‘zining qadr-qimmati bir-biriga hurmati kabi fazilatlarni tarbiyalashni ko‘rsatib berish to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: gamifikatsiya, interaktiv o‘yinlar, matematik kreativlik, ta'lim innovatsiyalari, pedagogika, o‘yinlar, elektron o‘yinlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются методы обучения математике, как их реализовать, как дать учащимся глубокие знания, как сформировать мировоззрение учащихся и как научить человека любить труд, уважение к своему достоинству, уважение друг к другу в процессе обучения математике.

Ключевые слова: геймификация, интерактивные игры, математическое творчество, образовательные инновации, педагогика, игры, электронные игры..

Abstract. This article discusses methods of teaching mathematics, how to implement them, how to give students deep knowledge, how to form a student's worldview and how to teach a person to love work, respect for their dignity, respect for each other in the process of teaching mathematics. Keywords: gamification, interactive games, mathematical creativity, educational innovations, pedagogy.

Keywords. gamification, interactive games, mathematical creativity, educational innovations, pedagogy, games, electronic games.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimi an’anaviy o‘qitish usullarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitishni talab qiladi. Ayniqsa, matematik ta'limda kreativlik va ilg‘or fikrlashni rivojlantirish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish, ularning qiziqishini oshirish va matematik tafakkurni rivojlantirishning samarali usullaridan biri – gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlardan foydalanishdir.

Matematika ta’limi, talabalarga faqatgina ma’lumot berish bilan cheklanmay, ular uchun qiziqarli, motivatsiyali va innovatsion bo‘lishi kerak. Bu yerda gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlar o‘qitish jarayoniga yangi nafas kiritishda muhim rol o‘ynaydi. Gamifikatsiya metodlari matematikani o‘rganishni yanada qiziqarli va osonlashtirishi mumkin. Matematika o‘qituvchilari uchun bu metodlar faqat o‘quvchilarning qiziqishini oshiribgina qolmay, balki ularda ijodiy fikrlash

ISSN 3030-3907

va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu maqolada gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlar yordamida matematikada kreativlikni rivojlantirishning samaradorligi ko‘rib chiqiladi.[4]

Ushbu maqolada, matematik kreativlikni rivojlantirishda gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlar qanday samarali vosita bo‘lishi mumkinligi haqida so‘z yuritamiz.

Gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlar: ta’rif va asoslar

Gamifikatsiya (inglizcha *gamification*) - bu o‘yindan olingan elementlar, qoidalar va mexanizmlarni boshqa sohalarga, masalan, biznes, ta'lim yoki kundalik hayotga tatbiq etish jarayonidir. Aslida, gamifikatsiya o‘yindan tashqaridagi jarayonlarni o‘yinga o‘xshatib, foydalanuvchilarga yanada qiziqarli, interaktiv va motivatsion tajriba taqdim etishga qaratilgan.

Gamifikatsiya - bu o‘yin elementlari va mexanizmlarini o‘quv jarayoniga joriy etishdir. O‘yinlar, motivatsiya, qiziqish va raqobatni oshirish orqali o‘quvchilarning diqqatini jalb etadi. Interaktiv o‘yinlar esa, o‘quvchilarga real vaqt rejimida, faol ishtirok etishni talab qiladigan faoliyatlar bo‘lib, bu o‘yinlar ularni faqat passiv kuzatuvchilarga aylantirmasdan, ijodiy va tizimli fikrlashga undaydi.

Gamifikatsiyaning asosiy elementlaridan, **Ballar**: Talabalar yoki o‘quvchilar o‘zining faoliyatiga qarab ballar to‘playdilar. Masalan, darslarni muvaffaqiyatli yakunlash, testlarda yuqori natijalar ko‘rsatish, maqsadlarga erishish orqali ballar yig‘iladi. **Mukofotlar:** O‘quvchilar yoki talabalar ma’lum bir maqsadlarga erishganida mukofotlar olishadi (masalan, raqamli sertifikatlar, medallar, sovrinlar). Bu ularga ta’lim jarayoniga nisbatan qiziqish va motivatsiya uyg‘otadi. **Dasturlar va tizimlar:** Ko‘plab ta’lim platformalari gamifikatsiya elementlarini o‘z ichiga oladi, masalan, talabalar uchun o‘zgaruvchan qiyinchilik darajalari, musobaqalar va yutuqlar. **Trek rekordlar va reytinglar:** O‘quvchilarning o‘zaro raqobatini o‘rnatish, eng yaxshi natijalar ko‘rsatgan o‘quvchilarni reytinglar orqali tan olish.

Gamifikatsiyaning ta’lim jarayoniga foydalari *quyidagilardan iborat.* **Motivatsiyani oshiradi:** O‘quvchilarga o‘z maqsadlariga erishish uchun rag'bat beradi, bu esa ularda o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. **O‘rganishni qiziqarli qiladi:** O‘quvchilar darslarni o‘yin sifatida ko‘rishlari, bu esa ular uchun o‘rganish jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi. **Boshqariladigan yutuqlarni taqdim etadi:** O‘quvchilar o‘z yutuqlarini va qadamlarini ko‘rib borishlari mumkin, bu esa ularning o‘z-o‘zini baholashiga yordam beradi. **Hamkorlik va jamoaviy ishni rag‘batlantiradi**: Ko‘p hollarda, gamifikatsiya jamoaviy ishlashni ham o‘z ichiga oladi, bu esa o‘quvchilarni bir-biri bilan hamkorlik qilishga undaydi.

ISSN 3030-3907

Interaktiv o‘yinlarning ta’lim jarayoniga foydalari: **Faol o‘rganish**: O‘quvchilar pasif tarzda emas, balki faol ravishda o‘rganish jarayonida qatnashadilar. Bu, o‘z navbatida, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. **Problema hal qilishni o‘rgatadi**: O‘quvchilar muammolarni hal qilishda kreativlik va tezkor fikrlashni rivojlantiradilar. **Kollektiv faoliyatni rivojlantiradi**: Ko‘plab interaktiv o‘yinlar jamoaviy ishni rag‘batlantiradi, bu esa o‘quvchilarga jamoa bilan ishlashni o‘rgatadi. **Real hayotga yaqinlashtiradi**: O‘yinlar orqali o‘quvchilar real hayotdagi vaziyatlarga nisbatan qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar.

Gamifikatsiyaning asosiy maqsadi – odamlarning faoliyatini yanada jalb qilish va rag‘batlantirishdir. O‘yinlar odatda quyidagi elementlarga ega:

1. Ballar va mukofotlar – foydalanuvchi ma'lum bir faoliyatni bajarib, ball yoki mukofotlar oladi.
2. Dastlabki o‘rnatilgan maqsadlar – foydalanuvchi ma'lum bir vazifalarni bajarib, maqsadga erishadi.
3. Darajalar – foydalanuvchi faoliyat davomida yuksaladi, yangi bosqichlarga o‘tadi.
4. Leaderbord (yetakchi ro‘yxatlar) – foydalanuvchilarning faoliyatini bir-biri bilan taqqoslash uchun raqobat yaratish.
5. Tashqi motivatsiya – o‘yinlar orqali foydalanuvchilarga qo‘shimcha rag‘batlar taqdim etish.

Gamifikatsiya nafaqat o‘yinlar uchun, balki marketing, ish faoliyati, ta'lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ko‘plab sohalarda ham muvaffaqiyatli ishlatilmoqda.

Interaktiv o‘yinlar esa, o‘yinchining faol ishtiroki orqali rivojlanib boradigan o‘yinlardir. Bunday o‘yinlar odatda quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Foydalanuvchi interaktivligi – o‘yinchining harakati, qarorlar va tanlovlari o‘yinning rivojlanishiga ta'sir qiladi.
2. Real vaqtli javoblar – o‘yin davomida o‘yinchi tomonidan qilingan harakatlarga tezkor javoblar bo‘ladi.
3. Taqdimot va hikoya – o‘yinlar ko‘pincha ma'lum bir hikoyaga yoki muammoni yechish jarayoniga asoslanadi.
4. Kreativ yechimlar – o‘yinchilarga turli xil strategiyalar va kreativ fikrlar orqali vazifalarni hal qilish imkoniyati beriladi.
5. Sinov va muvaffaqiyat – o‘yinlarda muvaffaqiyatga erishish uchun o‘yinchi turli sinovlarni yengishi kerak.

Interaktiv o‘yinlar va gamifikatsiya, o‘yinlarni kengaytirish, o‘yinchi tajribasini boyitish va motivatsiyani kuchaytirish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin.

ISSN 3030-3907

Matematik ta'limda gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- Mavzularni interaktiv tarzda o‘rganish, bu esa nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘laydi.
- Xatolarni o‘rganish va to‘g‘rilash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish.
- Muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiyani oshirish, bu esa o‘quvchining mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.[3]

Matematik kreativlikni rivojlantirishda gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlarning ahmiyati.

Matematik kreativlik, asosan, matematik fikrlashni rivojlantirish va muammolarni yaratish, yechish hamda yangi usullarni izlashni o‘z ichiga oladi. Gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlar bu jarayonni qiziqarli va samarali qilish uchun mukammal vositalar hisoblanadi.

Matematika o‘quvchilari uchun kreativlikni rivojlantirishda gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlarning ahamiyati quyidagi jihatlar bilan namoyon bo‘ladi:

Motivatsiyani oshirish: Gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlar o‘quvchilarga o‘rganishni qiziqarli qilish orqali ularning motivatsiyasini oshiradi. O‘quvchilar o‘zlari uchun yangi maqsadlar belgilab, ularni erishish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqadilar. Bu jarayon matematik kreativlikni rivojlantirishga yordam beradi, chunki o‘quvchi o‘z yutuqlarini boshqalar bilan taqqoslash yoki yangi mukofotlar olish uchun yangi yondashuvlarni sinab ko‘radi.

Muammolarni yechish va analitik fikrlash: Interaktiv o‘yinlar o‘quvchilarga murakkab muammolarni turli xil usullar bilan yechish imkonini beradi. Bunday o‘yinlarda matematik masalalar ko‘pincha turli yechimlar bilan yakunlanishi mumkin, bu esa o‘quvchilarning analitik va kreativ fikrlashini kuchaytiradi. O‘yinlardagi dinamik muhitlar o‘quvchilarga yangi muammolarni yaratishga va mavjud muammolarni yangi usullar bilan yechishga yordam beradi.

Sinov va xatoliklar orqali o‘rganish: Gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlarda o‘quvchilar ko‘pincha xatoliklar qilishadi va bu xatoliklar orqali o‘rganadilar. Xatoliklar va ularni tuzatish jarayoni kreativ fikrlashning ajralmas qismi hisoblanadi. Matematik masalalarni yechishda xatoliklar yangi yechimlarga olib kelishi mumkin, bu esa o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini chuqurlashtiradi va matematik kreativlikni oshiradi.

Jamoaviy ishlash va ijtimoiy o‘rganish: Gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlar ko‘pincha jamoaviy faoliyatlarni talab qiladi. Jamoada ishlash o‘quvchilarga bir-biridan o‘rganish va turli xil yondashuvlarni ko‘rish imkonini beradi. Matematik kreativlikni rivojlantirishda bunday interaktiv muhitlar juda

ISSN 3030-3907

muhim, chunki ular o‘quvchilarga o‘z g‘oyalarini boshqalar bilan baham ko‘rish va yangi yondashuvlar ishlab chiqishga yordam beradi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish va mustahkamlanadigan yutuqlar: Gamifikatsiya yordamida o‘quvchilar o‘z yutuqlarini qayd etib, o‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘rganadilar. Yutuqlarni doimiy ravishda qayd etish va yangi vazifalarni bajarish motivatsiyani oshiradi va o‘quvchilarga yanada qiyinroq masalalarni yechishga ilhom beradi. Bu jarayon matematik kreativlikni yanada rivojlantiradi, chunki o‘quvchilar yangi strategiyalar va usullarni sinab ko‘rishadi.

Matematik muvaffaqiyatga erishishda motivatsiyaning roli: O‘yinlar va gamifikatsiya matematik o‘rganishda yuqori darajadagi motivatsiyani ta'minlaydi. Mavjud tadqiqotlarga ko‘ra, o‘quvchilar matematik masalalarni o‘zlari bajarishga undash uchun o‘yinlarning qo‘llanilishi ularda muvaffaqiyat hissini kuchaytiradi va natijada matematik kreativlik rivojlanadi. Masalan, matematika o‘yinlari orqali o‘quvchilar, murakkab masalalarni yechishda o‘zlarini sinashga, yangi yondashuvlarni o‘rganishga va o‘zlarini yangicha shakllarda ifodalashga imkon topadilar.

Xatolardan o‘rganish va innovatsion fikrlash: Interaktiv o‘yinlar va gamifikatsiya orqali, o‘quvchilar xatolarini ko‘rib chiqib, ularni tuzatishda innovatsion yondashuvlarni o‘rganishadi. O‘yinlarda ko‘pincha turli darajadagi qiyinchiliklar bo‘lib, o‘quvchi har bir bosqichni muvaffaqiyatli o‘tishi uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqishi kerak bo‘ladi. Bu esa matematik kreativlikni rivojlantiradi, chunki o‘quvchilar o‘ylashning yangi va noan’anaviy usullarini o‘rganadilar.

O‘yinlar orqali kollaborativ ta’lim: O‘quvchilarning birgalikda ishlashini ta'minlash uchun interaktiv o‘yinlar samarali vosita bo‘ladi. Gamifikatsiya jarayonida o‘quvchilar bir-birlari bilan raqobatlashish yoki jamoa sifatida ishlashni o‘rganadilar. Bu jarayon kreativ fikrlashni rivojlantiradi, chunki o‘quvchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini boshqalar bilan baham ko‘radilar, yangi g‘oyalar va yondashuvlarni ishlab chiqadilar.[1]

Gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlardan foydalanish usullari

Matematik quizlar va testlar: Matematik quizlar o‘quvchilarga matematika fanining turli sohalarini o‘zlashtirishda yordam beradi. Bu quizlar o‘yin shaklida bo‘lib, o‘quvchilarni qiziqtiradi va ular o‘zlarini baholash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bunday interaktiv testlar o‘quvchilarga vaqtni samarali boshqarishni o‘rgatadi va matematik tafakkurni rivojlantiradi.

Virtual simulyatsiyalar va interaktiv dasturlar**:** Matematik tushunchalar va amallarni o‘rgatish uchun turli xil simulyatsiyalarni qo‘llash o‘quvchilarga matematik jarayonlarni amalda ko‘rishga yordam beradi. Misol uchun, geometriya

ISSN 3030-3907

yoki algebra masalalarini interaktiv dasturlar orqali o‘rganish, o‘quvchilarga nazariy bilimlarni vizual tarzda o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Matematik hikoyalar va o‘yin shaklidagi masalalar: Matematik masalalarni o‘yin shaklida taqdim etish, o‘quvchilarga ularga qiziqarli va ijodiy yondashishga imkon beradi. Masalan, hikoyalar yoki kontekstual vaziyatlar orqali masalalarni yechish, o‘quvchilarni matematik masalalar bilan bog‘lashda samarali usul hisoblanadi.

Gamifikatsiya (o‘yin elementlarini real hayotdagi faoliyatlarga qo‘llash) va interaktiv o‘yinlar odamlarni jalb qilish va motivatsiya berishning samarali vositalaridan hisoblanadi. Ularning turli sohalarda qo‘llanilishiga doir bir qancha misollarni ko‘rib chiqish mumkin:

1. Ta'lim va o‘qitish:

- **Duolingo**: Til o‘rganish ilovasi bo‘lib, foydalanuvchilarni o‘yin shaklida turli darajalarda vazifalarni bajarishga undaydi. Tillarni o‘rganishda reytinglar, mukofotlar va vaqt chegaralari yordamida motivatsiya oshiriladi.
- **Kahoot!**: Interaktiv viktorinalar platformasi bo‘lib, o‘quvchilarga o‘yin shaklida savollarga javob berishga imkon beradi. Bu o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

2. **Biznes va marketing:**

- **Starbucks Rewards**: Starbucks kompaniyasi o‘zining mukofotlar tizimida gamifikatsiya usulini qo‘llaydi. Mijozlar har bir xarid uchun ball to‘playdi va ularni sovrinlar yoki chegirmalarga aylantirishlari mumkin.
- **Nike+ Run Club**: Bu ilova foydalanuvchilarga yugurish mashqlari bajarish uchun maqsadlar qo‘yishga va o‘z muvaffaqiyatlarini boshqalar bilan taqqoslashga imkon beradi. Foydalanuvchilar o‘z yutuqlari uchun badjlar va mukofotlar oladi.

3. **Sog‘liqni saqlash va fitness:**

- **Fitbit va boshqa fitness ilovalar**: Gamifikatsiya yordamida foydalanuvchilar o‘zining jismoniy faoliyatlarini boshqarish va do‘stlari bilan musobaqalarda ishtirok etishadi. O‘yinlar yordamida ular o‘z yutuqlarini baholab, keyingi maqsadlar qo‘yadilar.

4. **Ijtimoiy tarmoqlar va foydalanuvchi ishtiroki:**

- **Foursquare (yoki Swarm)**: Bu ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarni turli joylarga borish va tekshirish orqali "badjlar" (belgilar) olishga undaydi. Foydalanuvchilar o‘z joylashuvlari bo‘yicha reytinglarga ega bo‘lishadi, bu esa ularni faol ishtirok etishga rag‘batlantiradi.
- **Reddit**: Karma tizimi orqali foydalanuvchilar o‘z postlari va izohlariga baho olishadi. Yuqori karma to‘plagan foydalanuvchilar yanada yuqori ijtimoiy

ISSN 3030-3907

maqomga ega bo‘lishadi, bu esa ularga yanada ko‘proq ishtirok etish istagini uyg‘otadi.[3]

5. **Siyosat va jamiyatda qatnashish:**

- **"Civic Engagement" o‘yinlari**: Ba'zi o‘yinlar fuqarolik faolligini rag‘batlantirish uchun ishlab chiqilgan, masalan, onlayn platformalar orqali saylovlarga ishtirok etish, ijtimoiy masalalar bo‘yicha ma'lumot olish yoki ba'zi ijtimoiy ishlarda ishtirok etish.
- **Gavlok**: Bu ijtimoiy tarmoq orqali foydalanuvchilar jamiyatdagi muammolarni aniqlab, ularni yechish uchun turli xil interaktiv faoliyatlar bajaradilar. Bu o‘yinlar o‘zgarishlarni amalga oshirishga undaydi.

6. **Mehnat va tashkilotlarda motivatsiya:**

- **Salesforce**: Kompaniya o‘z ishchilarini gamifikatsiya yordamida rag‘batlantiradi, ular o‘z muvaffaqiyatlarini boshqa hamkasblari bilan taqqoslashlari mumkin, shuningdek, maqsadlarga erishish uchun sovrinlar va mukofotlar olishadi.
- **Trello**: Bu loyiha boshqaruvi ilovasida foydalanuvchilar o‘z vazifalarini bajarish uchun yutuqlar va mukofotlar oladi, bu esa ularni ishga yanada ko‘proq jalb qiladi.

7. **Sayohat va sarguzashtlar:**

- **Geocaching**: Bu o‘yin sayohatchilarga joylarda yashiringan maxsus "xazinalar"ni topish uchun GPS yordamida izlanishlar o‘tkazishga imkon beradi. Foydalanuvchilar yutuqlar uchun mukofotlar va maqtovlar oladi.
- **Pokemon Go**: Bu keng tarqalgan o‘yin, o‘yinchilarga o‘z atrofidagi dunyoni o‘rganib, Pokemonnni topish va yig‘ish uchun mobil qurilmalaridan foydalanishni talab qiladi. O‘yinchilar harakat qilib, o‘yin ichida muvaffaqiyatlarga erishishadi.[2]

Gamifikatsiya va Interaktiv O‘yinlarning Ta’limda Qo‘llanilishi quyidagicha:

Kengaytirilgan rejalashtirish: O‘qituvchilar gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlar orqali darslarni rejalashtiradilar va o‘quvchilarni turli ko‘nikmalarni rivojlantirishga undaydilar. Masalan, matematika darslarida o‘yinlarni ishlatish orqali o‘quvchilar masalalarni hal qilishga ko‘proq qiziqish bilan yondashadilar.

Testlar va baholash tizimi: Gamifikatsiya elementlari, masalan, reytinglar, medal va ballar orqali o‘quvchilarning bilimini baholash mumkin. Bu usul o‘quvchilarning o‘z bilimlarini baholashga va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Dars jarayonining interaktivligi: Interaktiv o‘yinlar yordamida o‘quvchilarga real vaqt rejimida ma’lumotni o‘zlashtirish imkoniyati beriladi. O‘quvchilar o‘yinlarda ishtirok etib, turli mavzularni o‘rganadilar.

ISSN 3030-3907

Natijalar

Gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi, o‘quvchilarda matematikaga bo‘lgan qiziqishni oshirgan. O‘yinlar yordamida matematik masalalarni hal qilish, o‘quvchilarga nafaqat zaruriy bilimlarni egallash, balki muammolarni yechish, tezkor fikrlash va kreativ yondashuvlarni rivojlantirish imkonini yaratdi. Misol uchun, “matematika sayohati” kabi o‘yinlar orqali, o‘quvchilar turli vazifalarni bajarish orqali matematikaning murakkab mavzularini oson va qiziqarli tarzda o‘rganishdi. Shu bilan birga, o‘yinlar o‘quvchilarni jamoaviy ishlashga, fikr almashishga va o‘zaro yordam berishga undadi. Buning natijasida, o‘quvchilarning matematik muammolarni hal qilishdagi ishtiroki va ijodiy fikrlash darajasi ancha yaxshilandi.[3]

Xulosa

Matematik kreativlikni rivojlantirishda gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlar muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarga murakkab matematik masalalarni o‘yin shaklida taqdim etish, ularning motivatsiyasini oshiradi, innovatsion fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantiradi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarni nafaqat matematik fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki ularni mustaqil va tizimli fikrlashga ham o‘rgatadi. Ta’lim jarayonida gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlardan samarali foydalanish, matematik ta'limni yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Gamifikatsiya va interaktiv o‘yinlar ta’lim jarayonini qiziqarli, samarali va interaktiv qilishda muhim vositalar hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi va motivatsiyani kuchaytiradi. Bu yondashuvlar, ayniqsa, yoshlar va yangi o‘rganayotganlar uchun samarali hisoblanadi, chunki ular o‘rganishni o‘yin sifatida qabul qilib, ilgari surilgan maqsadlarga erishish uchun motivatsiya oladilar.[3]

Gamifikatsiya o‘yinlari nafaqat o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, balki ularga o‘z bilimlarini ko‘rsatish, o‘rgatish va yangi qobiliyatlarni rivojlantirish imkonini beradi. O‘qituvchilar o‘z darslarini bu o‘yinlar orqali yanada qiziqarli va interaktiv tarzda tashkil etishlari mumkin. Gamifikatsiya o‘quvchilarni faol o‘rganishga, izlanishga va yangilikka ochiq bo‘lishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anderson, C.A. va Dill, K.E. (2000). Video o‘yinlar va agressiv fikrlar, his-tuyg‘ular va xulq-atvor. *Personallik va Ijtimoiy Psixologiya Jurnali, 78*(4), 772-790.
2. Prensky, M. (2001). *Raqamli o‘yin asosida o‘qitish*. McGraw-Hill.

ISSN 3030-3907

3. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., va Nacke, L. (2011). O‘yin dizayni elementlaridan o‘yinliligacha: "Gamifikatsiya"ni ta'riflash. *2011-yilgi Yillik Kompyuter Tizimlarida Inson Faktorlarini Tadqiqotlar Konferensiyasi*, 1-10.
4. Otajonova, S. S. (2025). INTERACTIVE METHODS IN TEACHING MATHEMATICS TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS: FOSTERING ENGAGEMENT AND CONCEPTUAL UNDERSTANDING. PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 2(2), 84-87.
5. Shukhratovna, O. S. (2025). ORGANIZING INTERESTING GAMES FOR ELEMENTARY GRADES USING ELEMENTS OF COMBINATORICS. PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 3(2), 117-119.

ISSN 3030-3907

UDK 004.8:371.134

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA TALABALAR O‘QUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Obloyev Komronbek Hamza o‘g‘li
Osiyo Xalqaro Universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanib talabalarning o‘quv samaradorligini oshirish usullari tahlil qilinadi. Maqolada SI asosida ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish, avtomatlashtirish va samarali baholash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt orqali tashkil etilgan o‘quv tizimlari, virtual yordamchilar va real vaqtli tahlil orqali ta’lim sifatini oshirishga oid misollar keltiriladi. AI asosida tuzilgan interaktiv platformalar, chatbotlar, moslashuvchan test tizimlari ham muhokama qilinadi. Jadval va grafiklar yordamida amaliy misollar bilan natijalar yoritiladi. Maqola, shuningdek, talabaning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari va o‘quv motivatsiyasini oshirishda SI vositalarining o‘rnini ham ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, o‘quv samaradorligi, interaktiv ta’lim, shaxsiylashtirilgan ta’lim, avtomatlashtirish, virtual yordamchi, chatbot, analitik platformalar, real vaqtli monitoring, raqamli ta’lim.

Аннотация. В статье рассматриваются методы повышения учебной успеваемости студентов с использованием технологий искусственного интеллекта. Обсуждаются такие аспекты, как персонализированное обучение, автоматизированное оценивание, аналитика прогресса и внедрение интеллектуальных ассистентов. Приводятся практические примеры применения ИИ в образовательных платформах, таких как чат-боты, адаптивные тесты и виртуальные помощники. В статье подчеркивается значимость использования ИИ для повышения мотивации студентов и развития их навыков самообучения. Представлены аналитические данные в виде таблиц и графиков.

Ключевые слова: искусственный интеллект, успеваемость, персонализированное обучение, цифровые технологии, виртуальный помощник, чат-бот, аналитика, мониторинг, автоматизация, онлайн-платформы.

Abstract. This article explores methods of enhancing students’ academic performance through the use of artificial intelligence (AI) technologies. It discusses key applications of AI in education such as personalized learning, automated assessment, progress analytics, and the use of virtual assistants. The paper also highlights how AI-driven platforms including chatbots, adaptive testing systems, and real-time monitoring tools improve the learning process. It emphasizes the role

ISSN 3030-3907

of AI in boosting student motivation and self-directed learning skills. The article includes examples supported by statistical data, charts, and visual graphs.

Keywords: artificial intelligence, academic performance, personalized learning, automated systems, virtual assistant, chatbot, data analytics, adaptive testing, real-time monitoring, digital education.

Kirish.

Zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalari tobora keng qo‘llanilmoqda. Ular o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, shaxsiylashtirish va tahlil qilish orqali talabalar bilimini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Bu texnologiyalar talabalarning individual o‘quv ehtiyojlariga moslashtirilgan holda o‘qitish imkonini yaratadi, natijada ularning o‘quv samaradorligi oshadi.

Ushbu maqolada sun’iy intellekt yordamida o‘quv samaradorligini oshirishning asosiy yo‘llari, afzalliklari va amaliy qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism.

Sun’iy intellekt texnologiyalari hozirgi kunda quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ta’lim tizimida joriy etilmoqda:

1. Shaxsiylashtirilgan ta’lim – individual yondashuvning kaliti

Sun’iy intellekt o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘rganish tezligi, qiziqishlari va o‘zlashtirish uslublarini tahlil qilish orqali ularga individual ta’lim yo‘nalishlarini taklif etadi. Bu, ayniqsa, katta auditoriyalarda samarali ta’lim berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Khan Academy, Coursera va Udemy platformalari sun’iy intellekt algoritmlari asosida foydalanuvchilarga mos kurslar, videodarslar va mashqlarni tavsiya qiladi.

Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan tizimlar talabaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, shu asosda o‘quv materiallarini tavsiya qiladi.

2. Avtomatik baholash va tezkor fikr-mulohaza

AI tizimlari test, ese, yozma ishlanmalarni avtomatik tahlil qilish imkonini yaratadi. Bu esa o‘qituvchining ish yukini kamaytirish bilan birga, talabaga tezkor va aniq baho beradi. Turnitin, Grammarly, Edmodo kabi vositalar nafaqat grammatik xatolarni aniqlaydi, balki plagiat, uslubiy noaniqliklarni ham aniqlash imkoniga ega.

1-jadval.

Afzalliklar	**Tavsifi**
Tezkor tahlil	Javoblar darhol baholanadi va tahlil qilinadi
Obyektivlik	Baholashda insoniy omil aralashmaydi
Ko‘p formatli tahlil	Test, ese, savol-javob shakllari uchun mos

ISSN 3030-3907

3. Til o‘rgatish tizimlari va interaktiv vositalar

Sun’iy intellekt asosida yaratilgan til o‘rgatish platformalari foydalanuvchining talaffuzidan tortib, yozuvdagi xatolarini ham aniqlay oladi. Duolingo, Rosetta Stone, Grammarly va boshqa vositalar aynan AI yordamida individual ta’lim berish imkonini yaratadi.

AI bu yerda faqat o‘quv materialini yetkazib beruvchi emas, balki o‘rganishdagi xatolarni aniqlovchi, tahlil qiluvchi va tuzatuvchi murabbiy rolini ham bajaradi.

4. Virtual yordamchilar va chatbotlar – yangi avlod murabbiylari

AI yordamida yaratilgan virtual yordamchilar (masalan, Google Assistant, ChatGPT, Siri) talabaga kerakli bilimni tezda topishga yordam beradi. Chatbotlar esa doimiy tarzda savol-javoblar orqali o‘quvchini bilim bilan boyitadi.

Bunday tizimlar:

- Savollarga 24/7 javob beradi
- Mustaqil o‘qish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi
- Rivojlanishni kuzatadi va tavsiyalar beradi


5. Real vaqtli monitoring va diagnostika

AI tizimlari o‘quvchilar faoliyatini doimiy kuzatib boradi va ularning yutuq hamda muammoli jihatlarini tahlil qiladi. Masalan, Learning Management System (LMS) lar orqali o‘qituvchi o‘quvchining o‘zlashtirish sur’ati, faolligi, qatnashuvi kabi ko‘rsatkichlarni monitoring qiladi.

Bu yondashuv o‘qituvchiga shaxsiy yondashuv asosida dars olib borish, kerakli o‘zgartirishlar kiritish, yordamga muhtoj o‘quvchilarni aniqlash imkonini beradi.

O‘quvchilarning faoliyatini kuzatish.

AI tizimlari o‘quvchilarning faoliyatini doimiy kuzatib boradi va ularning qiziqishiga ko‘ra yo‘nalish beradi. Bu esa motivatsiyani oshiradi.



1-rasm. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi asosiy yo‘nalishlari.

ISSN 3030-3907

AI texnologiyalarining ta’lim sohasidagi roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, AI yordamida ta’lim jarayonlarini shaxsiylashtirish, o‘quvchilarning o‘rganish samaradorligini oshirish va ta’limni global miqyosda yanada ochiq qilish mumkin. Eksperimentlar va amaliy misollar shuni ko‘rsatadiki, AI texnologiyalarining integratsiyasi o‘quvchilar uchun yanada samarali va interaktiv ta’lim olish imkonini beradi.

2-jadval.

AI texnologiyalarining afzalliklari

Afzallik	**Tavsifi**
Tezkor baholash	AI testlarni avtomatik tahlil qiladi va tezda natija beradi.
Shaxsiy yondashuv	Har bir o‘quvchiga individual kontent tavsiya qilinadi.
Doimiy monitoring	O‘quvchining faoliyati doimiy tahlil qilinadi.
Tashqi manbalarni bog‘lash	AI internetdagi ma’lumotlarni avtomatik topib beradi.

AI texnologiyalarining ta’limdagi roli

AI texnologiyalari ta’limda bir qator imkoniyatlarni yaratadi. Sun’iy intellektni ta’limga joriy etishning eng asosiy foydalaridan biri – ta’limni shaxsiylashtirish. O‘quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda ta’lim dasturlarini ishlab chiqish mumkin. Bunda AI tizimlari o‘quvchining o‘rganish jarayonini real vaqt rejimida tahlil qilib, ularga mos maslahatlar, mashqlar va resurslarni taqdim etadi. Masalan, Coursera va Udemy kabi onlayn platformalarda o‘quvchilarga individual kurslar tavsiya qilinadi.

Bundan tashqari, AI texnologiyalari o‘qituvchilarning vaqtini tejashga yordam beradi. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari orqali testlar va insholarni baholash, o‘quvchilarning natijalarini tahlil qilish va ularning taraqqiyotini kuzatish imkoniyati yaratildi. Masalan, Grammarly yoki Turnitin kabi vositalar grammatik xatolarni aniqlashdan tashqari, plagiatlarni ham aniqlash imkoniyatiga ega.

Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining ta’lim sohasiga joriy qilinishi o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Bu texnologiyalar yordamida ta’lim individual ehtiyojlarga moslashtirilmoqda, baholash tizimi avtomatlashtirilmoqda, til o‘rganish yanada interaktiv shaklga keltirilmoqda va o‘quv faoliyati muntazam monitoring qilib borilmoqda. AI texnologiyalarining asosiy afzalliklaridan biri – bu ta’limni shaxsiylashtirish

ISSN 3030-3907

imkoniyatidir. Har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi, qiziqishlari va bilim darajasi AI tizimlari tomonidan real vaqt rejimida tahlil qilinadi. Natijada, o‘quvchiga aynan uning ehtiyojlariga mos keluvchi resurslar, mashqlar yoki maslahatlar taqdim etiladi. Masalan, Coursera, Udemy, Duolingo kabi zamonaviy onlayn platformalar foydalanuvchilarning bilim darajasiga qarab kurslar tavsiya etishadi, bu esa o‘quv jarayonining individual va moslashuvchan bo‘lishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, AI texnologiyalari o‘qituvchilarning yukini kamaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari orqali test va insholarni tahlil qilish, grammatik xatolarni aniqlash, o‘quvchilarning plagiatga yo‘l qo‘ygan-qo‘ymaganini tekshirish imkoniyati yaratilgan. Masalan, Grammarly yoki Turnitin kabi vositalar o‘qituvchilar ishini ancha yengillashtiradi. Natijada, o‘qituvchilar o‘z vaqtini ma’ruza yoki dars rejasi tayyorlashga emas, balki o‘quvchilarning individual rivojlanishiga e’tibor qaratishga sarflay olishadi.

AI texnologiyalarining til o‘rganishdagi o‘rni ham katta. AI yordamida yaratilgan virtual yordamchilar, nutq tanish tizimlari va chatbotlar orqali o‘quvchilar mustaqil ravishda xorijiy tillarni o‘zlashtirishlari mumkin. Bu jarayonda AI nafaqat mashqlarni taklif qiladi, balki talaffuzdagi xatolarni ham tahlil qilib, to‘g‘ri variantlarni ko‘rsatadi. Ayniqsa, nutqni rivojlantirishda bunday texnologiyalar samarali bo‘lib, o‘quvchilarning ishonch bilan so‘zlashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Amaliy natijalar va tahlil

Innovatsiya — bu ma’lum bir faoliyat sohasi yoki ishlab chiqarishda texnologiya, shakl va metodlarni yangicha yondashuv asosida qo‘llash bo‘lib, u ilgari qo‘llanilgan usullarga nisbatan sezilarli muvaffaqiyatga olib keladigan texnologik jarayon yoki yechimdir.

Kalit so’zlar: an'anaviy ta'lim texnologiyalari, axborot kompetentsiyasi, intellektual qobiliyatlar, tanqidiy fikrlash, rebus, krossvordlar.

Аннотация: Инновации являются актуальными и важными, представляя собой новые подходы, сформированные в рамках определённой системы. Они возникают на основе инициатив и новшеств, а также служат перспективным средством для развития содержания образования. Кроме того, инновации оказывают положительное влияние на развитие всей системы образования.

Инновация — это применение новых подходов, технологий, форм и методов в определённой сфере деятельности или производстве, что приводит к достижению значительно лучших результатов по сравнению с ранее использованными методами.

Ключевые слова: традиционные образовательные технологии, информационная компетентность, интеллектуальные способности, критическое мышление, ребусы, кроссворды.

Abstract. Innovations are relevant and of great importance, representing new approaches formed within a specific system. They emerge based on initiatives and novelties, and serve as a promising means for developing the content of education. Moreover, innovations have a positive impact on the development of the overall education system.

Innovation is the application of new approaches, technologies, forms, and methods in a particular field of activity or production, which leads to significantly better results compared to previously used methods.

ISSN 3030-3907

Keywords: traditional educational technologies, information competence, intellectual abilities, critical thinking, puzzles, crossword puzzles.

Kirish.

Barchamizga ma’lumki, XXI asr – globallashuv davri, texnika asri deyiladi.. Bugungi kunda fan va texnika jadal suratda rivojlanib bormoqda, bu esa yangi texnologiyalardan foydalanib dars o‘tishni taqozo etadi. Kelajagimiz bo‘lgan yoshlarni yuksak madaniyatli, o‘tkir bilimli qilib tarbiyalashda har bir pedagog xodim o‘zini mas’ul shaxs ekanligini bilgan holda, dars samaradorligini oshirib borishi, yangi texnologiyalardan unumli foydalanishi dolzarb masala hisoblanadi.

An'anaviy ta'lim texnologiyalari ma'lumotlarning haddan tashqari yuklanishi sharoitida yuqori texnologiyali muhitning jadal rivojlanishining o'zgaruvchan oqibatlarini deyarli hisobga olmaydi, bu esa inson idrok etish imkoniyatlaridan allaqachon oshib ketadi. Boshqa tomondan, yangi texnologiyalarni yaratish ijtimoiy hayotda xuddi shunday tub o'zgarishlarga olib keladi va yangi talablar bilan bog'liq holda zarur bilimlarni doimiy ravishda yangilash va modernizatsiya qilish zarur. Axborot kompetentsiyasini, intellektual qobiliyatlarni, tanqidiy fikrlashni haqiqiy amaliy muammolarni hal qilish uchun mos darajada shakllantirishni talab qiladi. Ushbu ikki fakt o'rtasida uchinchi fakt bor: maktabdagi muvaffaqiyatsizlik, qaysiki haqiqiy amaliy muammolarni hal qilish uchun mos darajada tanqidiy fikrlash.

Asosiy qism. Innovatsion texnologiyalar bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelmoqda. Shu jumladan, maktab fanlarini, xususan informatika fanini o‘qitishda ham kompyuter texnologiyalaridan foydalanish zaruriyati ortib bormoqda. Chunki darsliklardagi ma’lumotlar tez eskiradi, dunyo yangiliklari, iqlim, qonunchilik kabi sohalarda har kuni o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.

Kompyuter va internet orqali olingan so‘nggi ma’lumotlardan foydalanish o‘quv jarayonini optimallashtirish, diversifikatsiya qilishning eng samarali yo‘llaridan biridir. Fan va texnikaning jadal rivojlanishi, axborot jamiyatining shakllanishi shaxsni to‘laqonli hayotga tayyorlash zaruratini tug‘diradi. Bu esa ta’limni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishni talab qiladi.

Innovatsion texnologiyalarning asosiy maqsadi – o‘quvchining mustaqil fikrlovchi, faol va ijodiy shaxs sifatida shakllanishini ta’minlashdir. Innovatsion yondashuvlar o‘qituvchi faoliyatini ham zamon talablariga mos ravishda yangilashni talab qiladi. Hozirgi kunda "innovatsiya" tushunchasi juda keng qo‘llaniladi. U inglizcha "innovation" so‘zidan olingan bo‘lib, yangilik kiritish, tizimni ichki jihatdan o‘zgartirish degan ma’noni bildiradi.

ISSN 3030-3907

Innovatsion texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga tezda kirib keldi. Shu munosabat bilan maktab kursining ko‘plab fanlarini o‘rganish jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish zarurati tug‘iladi. Zero, dunyodagi ekologik vaziyat, qonunchilik, tabiat, ob-havo har kuni o'zgarib turadi. Darslikda keltirilgan ma'lumotlar darslik nashr etilgan paytda ham eskiradi. Innovatsion texnologiyalar, kompyuter texnologiyalari va internetdan olingan so'nggi ma'lumotlardan foydalangan holda alohida fanlar yoki alohida mavzularni o'rganish ta'lim jarayonini optimallashtirish va diversifikatsiya qilish usullaridan biridir.

Fan va texnikaning jadal rivojlanishi, axborot texnologiyalari sohasidagi inqilob, ta’lim tarkibi va mazmunidagi o‘zgarishlar, uni insonparvarlashtirish va insonparvarlashtirishning zamonaviy sharoitida axborot jamiyatida shaxsni to‘laqonli hayotga tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda va alohida ahamiyatga ega. Binobarin, zamonaviy ta’limni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ustuvor yo‘nalishga aylanishi kerak. Innovatsion texnologiyalarning maqsadi - o'zining o'quv va kognitiv faoliyatini mustaqil ravishda qurish va sozlash qobiliyatiga ega bo'lajak mutaxassisning faol, ijodiy shaxsini shakllantirish. Innovatsiyalar innovatori o'qituvchilari faoliyatini rivojlantirish va o'zlashtirishning zamonaviy jarayoni bosqichma-bosqich ko'zda tutilgan. Bugungi kun talabi ta`limni sifat o’zgarishlariga olib keluvchi yangicha yondashuvlarni izlashga undamoqda va uni o’rganishdagi yondashuvlar (metodlar) ham o’zgarmoqda.

Hozirgi vaqtda «innovatsiya» tushunchasi juda keng qo’llanilmoqda. Innovasiya so’zi inglizcha so’z bo’lib, innovatsion yangilik kiritish degan ma’noni bildiradi, ya’ni tizim ichki tuzilishini o’zgartirish, deb ta’riflanadi. Innovasiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo’lib, ijtimoiy- madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo’naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir.

Bugun ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

– faoliyat yo’nalishiga qarab;

– kiritilgan o’zgarishlarning tavsifiga ko’ra;

– kelib chiqish manbaiga ko’ra.

Ta’lim jarayonida, shu jumladan informatika fanini o’qitish jarayonida

interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib borishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o’quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o’rgatilgan bo’lsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o’zlari qidirib

ISSN 3030-3907

topishlariga, mustaqil o’rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni o’zlari keltirib chiqarishlariga o’rgatadi.

Informatika fanida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash. Ta’lim jarayonida, ayniqsa informatika darslarida interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. An’anaviy ta’limda o‘quvchilar tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, innovatsion ta’limda ular mustaqil izlanish, o‘rganish va xulosa chiqarishga o‘rgatiladi.

Bu jarayonda o‘qituvchi boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Informatika darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarni chuqur bilim olishiga, darslarga qiziqishini ortishiga va samaradorlikka olib keladi. Ayniqsa, bolalar maktabga cha bo‘lgan davrdanoq kompyuter savodxonligiga ega bo‘lishmoqda. Shuning uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’limga joriy etish talab darajasiga chiqmoqda.

O’qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanga ta’lim jarayoniga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo’naltiruvchilik funksiyasini bajaradi va bunda talaba asosiy bo’g’inga aylanadi.

Innovasion texnologiyalar informatika fanini o’qitish jarayoniga hamda o’qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o’zgarishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda asosan, interfaol usullardan to’liq foydalaniladi. Interfaol usullar – bu jamoa bo’lib fikrlashdan iborat, ya’ni u pedagogik ta’sir etish usullari bo’lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o’ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko’rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Darslarni axborot texnologiyalari yordamida innovatsion texnologiyalari asosida tashkil etishni o’quvchilarga ular maktabda ta’lim olishni boshlangan vaqtdan boshlab ommaviy ravishda o’qitishni boshlash kerak, chunki bu davrda o’quvchilarda ko’nikmalar tez shakllanadi. Chunki o’quvchilarning ko’p qismi maktabga cha bo’lgan davrdanoq kompyuter savodxonligiga ega bo’lishmoqda. Ular kompyuter orqali har xil o’yinlarni o’ynashni, kompyuter qismlaridan qanday foydalanishni bog’cha yoshidanoq o’rganib olmoqda. Shularni e’tiborga olib, ta’limga axborot- kommunikasion texnologiyalarni kiritish talab darajasiga chiqmoqda. Informatika darslarida innovatsion texnologiyalardan o’z o’rnida samarali foydalanilishi, mashg’ulotlarning qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan o’quv materiallarining chuqur o’zlashtirilishiga keng imkoniyat yaratib beradi.

Darslarni axborot texnologiyalari yordamida innovatsion texnologiyalari asosida tashkil etishni o’quvchilarga ular maktabda ta’lim olishni boshlangan

ISSN 3030-3907

vaqtdan boshlab ommaviy ravishda o’qitishni boshlash kerak, chunki bu davrda o’quvchilarda ko’nikmalar tez shakllanadi. Chunki o’quvchilarning ko’p qismi maktabga cha bo’lgan davrdanoq kompyuter savodxonligiga ega bo’lishmoqda. Ular kompyuter orqali har xil o’yinlarni o’ynashni, kompyuter qismlaridan qanday foydalanishni bog’cha yoshidanoq o’rganib olmoqda. Shularni e’tiborga olib, ta’limga axborot- kommunikasion texnologiyalarni kiritish talab darajasiga chiqmoqda.

Informatika darslarida innovatsion texnologiyalardan o’z o’rnida samarali foydalanilishi, mashg’ulotlarning qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan o’quv materiallarining chuqur o’zlashtirilishiga keng imkoniyat yaratib beradi.

Dars jarayonlariga ta’limning zamonaviy innovatsion texnologiya-larini kiritish, yoshlarni mustaqil ijodiy ishlashga, erkin fikrlashga o’rgatish bilan birga, fanni o’rganishga bo’lgan qiziqishini oshiradi, darsni ko’rgazmaliligini va tushunarliligi oshiradi.

Shu bilan birga ta’limni zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishi informatika fani o’qituvchisidan kompyuter savodxonligiga ega bo’lishni, axborot resurslaridan foydalangan holda fanga oid ma’lumotlarni o’quvchilarni qanoatlantiradigan darajada yetkazib berish malakasini talab etadi. Shuning uchun o’qituvchi darsga jiddiy tayyorlanmasligi mumkin emas. O’qituvchi har bir darsni noan’anaviy usulda o’tishi lozim.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud.

ISSN 3030-3907

Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;

-ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;

-ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;

-ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;

-ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;

-amalda bajarish orqali o‘rganilishi;

-ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish va amalda qo‘llash o‘quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri yechimini topishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Eng jiddiy didaktik muammolardan biri ta’lim metodlarini tanlash nimalarga bog‘liq, degan masaladir. Didaktikaga oid adabiyotlarda ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash va ularni qo‘llash samaradorligining turli omillar bilan bog‘liqliklari quyidagicha qayd qilinadi:

- birinchidan, o‘quv mashg‘ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog‘liq;
- ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning harakteriga bog‘liq;
- uchinchidan, ta’lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog‘liq;
- to‘rtinchidan, o‘quv jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog‘liq;
- beshinchidan, o‘quv jarayonining moddiy-texnik ta’minoti bilan bog‘liq;

ISSN 3030-3907

- oltinchidan, o‘qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o‘quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o‘qituvchining hozirgi zamon metodlari bo‘yicha bilimlariga bog‘liq.

Bunda har bir shakl o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to‘plami yagona didaktik majmuani hosil qiladi. Bu didaktik majmuaning amalga oshirilishi esa, o‘quv jarayonining psixologik-pedagogik qonuniyatlari bilan belgilanadi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, obrazli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

Shu maqsadni amalga oshirishda o’quvchilarni qiziqishini oshirish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Sababi, dars jarayonida o’quvchi darsga qiziqsagina pedagog ko’zlangan natijaga erishishi mumkin. Buning uchun esa dars jarayonida pedagogik texnologiyalar, zamonaviy innovatsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo’lar edi. O’yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o’quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O’yin olimlar tadqiqotlariga ko’ra mehnat va o’qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, o’yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o’zini namoyon qilish, hayotda o’z o’rnini barqaror qilish, o’zini-o’zi boshqarish, o’z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O’yinlar turli maqsadlarga yo’naltirilgan bo’ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo’llanadi. O’yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko’nikmalarni qo’llash, umumta’lim malaka va ko’nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko’nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo’ladi. O’yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan

ISSN 3030-3907

yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma’naviy, estetik dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo’ladi. Didaktik tamoyillarni hisobga olgan holda, o’quvchilarga nafaqat faktlarning qatìy ilmiy bayonini berish, balki o’qitishning turli qiziqarli metodlarini ham qo’llash lozim. Masalan, ko’pchilikka ma`lum va ommabob bo’lgan krossvord o’yini o’quvchilarda qiziqish o’yg’otishi tabiiydir. Qomusiy lug’atda ta`riflanishicha, uning atamasi inglizcha “kross” – kesishgan, “vord” – so’z degan ma`noni anglatib, ilk bor XX asr boshlarida kashf etilgan. Vaqt o’tishi bilan uning turlari ko’payib, chaynvord, chaynkrossvord, krosschaynvord, aylanma krossvord, diagonal krossvordlar o’ylab topildi. Ularning har biri shaklda so’zlarning joylashishi va bog’lanishi bilan farq qiladi. Krossvord ko’rinishidagi so’rov shakli o’quvchilar uchun har doim qiziqarli va o’ziga tortadigan metoddir.

Interfaol metodlar.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ta’lim samaradorligini oshirishda interfaol metodlar keng qo‘llanmoqda. Bu metodlar o‘quvchini dars jarayonining markaziga qo‘yib, ularni mustaqil fikrlashga, faol ishtirok etishga undaydi. Interfaol metodlar quyidagi afzalliklarga ega:

- Ta’lim samarasi yuqori bo‘ladi;
- O‘quvchining rag‘bati ortadi;
- Ilgari o‘rgangan bilimlar asosida yangi bilimlar o‘zlashtiriladi;
- Ta’lim individual ehtiyojlarga moslashtiriladi;
- O‘quvchining tashabbuskorligi va mas’uliyati rag‘batlantiriladi;
- Amaliy faoliyat asosida o‘rganiladi;
- Fikr almashish imkoniyati yaratiladi.

Interfaol usullarga aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyatlar yaratish, loyiha metodlari, rolli o‘yinlar kiradi. Bu metodlar orqali o‘quvchilar bilimlarni faqat o‘zlashtiribgina qolmay, balki tahlil qiladi, baholaydi, muammo yechimlarini topadiKo’pchilikka ma’lum va ommabop bo’lgan krossvord o’yini o’quvchilarda qiziqish uyg’otishi tabiiydir. Krossvord ko’rinishidagi so’rov shakli o’quvchilar uchun har doim qiziqarli va o’ziga tortadigan metoddir. Ushbu o’yinga o’quvchilar shu darajada kirishib ketadilarki, hatto, o’zlari ham informatikaning turli mavzulari bo’yicha krossvordlar tuzishlari mumkin. Mustaqil ijodiy faoliyatning bunday shakli foydali bo’lishi bilan birga, faqatgina bilimdon o’quvchilarnigina emas, balki past o’zlashtiruvchilarni ham qamrab oladi. Boshqa o’quv fanlaridan past o’zlashtiruvchi o’quvchilar ko’pincha informatikadan yaxshi va tirishqoq o’quvchilarga aylanadilar. Krossvordlar sodda bo’lishi bilan birga, mashhur olimlar, allomalar ismlariga, mavzuga aynan mos keluvchi maxsus atamalarga diqqatini jalb etishning samarali vositasi hamdir.

ISSN 3030-3907

Xulosa. Ta’lim sifatini oshirishda innovatsion va interfaol metodlardan samarali foydalanish zarur. Bu o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini, mustaqil fikrlashini va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘yinli texnologiyalar, zamonaviy dasturlar va internet resurslaridan foydalanish darslarni yanada qiziqarli va samarali qiladi. O‘qituvchi har bir darsga puxta tayyorgarlik ko‘rib, zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanishi lozim.

Shunday ekan, informatika fanida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zamon talabi bo‘lib, o‘quvchilarning bilim saviyasini oshirishda muhim omil hisoblanadi Rebuslar ham o’yinli texnologiyalar sirasiga kiradi. “Rebus” so’zi lotin tilidan olingan bo’lib, “so’zlar orqali emas, balki rasmlar orqali ifodalash” ma’nosini anglatadi. Bu - biror so’z yoki atamaning rasmlar, notalar, harflar bilan birgalikda ifodalanishi orqali hosil qilingan jumboqdir.

Eng birinchi rebuslar to’plami Etenom Taburo tomonidan Fransiyada o’chiriladigan harflar soniga mos keladi;

- Rasmning o’ng yuqorisidagi apostroflar soni rasm nomining o’ng tomonidan o’chiriladigan harflar soniga mos keladi;

- So’z o’rtasidagi harflarni o’chirish uchun bu harflar rasm ustida yozilib ustidan chiziladi;

- Rasm nomidagi belgilarning joylashgan o’rni tartib raqamini o’zgartirish orqali yangi hosil qilish mumkin.

Mustaqil ijodiy faoliyatning bunday shaklidan foydalanilganda darsda faqatgina kuchli o’quvchilargina emas, balki kuchsiz o’quvchilar ham faol ishtirok etadilar. Darslarda qiziqtirishdan foydalanishning boshqa shakllaridan, ya`ni rebus va boshqotirmalardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Ushbu qiziqtiruvchi metodlardan foydalanganda, o’qituvchi darsni maqsadli tashkil qilishni rejalashtiradi, ya`ni krossvord, rebus, boshqotirmalarni fanning mazmuniga mos tayyorlaydi. Darsning maqsadini aniqlaydi va kutilayotgan natijani loyihalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. Uchebnoe posobie.- Toshkent. TDPU 2013. - 192 b.

2.O.U.Avlayev, S.N. Jo‘rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta’lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017.

3. Gulboyev A. O`quv jarayonida ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo’llash yo’llari.; BuxDU, 2021,105 b.

4. Уваров А. Информатика в школе: вчера, сегодня, завтра // Информатика и образование, 1990, №4.

ISSN 3030-3907

5.Turakulovich, M. O. (2024). BASIC PRINCIPLES AND RULES OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *4*(3), 836-843.

6. To’raqulovich, M. O. (2024). INNOVASION AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNI TA’LIMDA QO’LLASH ISTIQBOLLARI. *Международный журнал научных исследователей*, *9*(1), 190-193.

7. Murodov, O. T. R. (2024). SUN'IY INTELLEKT VA MASHINASOZLIK ASOSLARINI MAKTABLARDA O ‘RGATISH IMKONIYATLARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, *1*(2), 73-79.

8. Murodov, O. T. R. (2024). INFORMATIKA FANINING ZAMONAVIY TA'LIMDAGI O ‘RNI VA AHAMIYATI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, *1*(2), 52-58.

9. TO’RAQULOVICH, M. O. (2025). AXBOROT TIZIMLARINI HIMOYALASH VOSITALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO’LLANILISHI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, *3*(1), 76-79.

10. TO’RAQULOVICH, M. O. (2025). OPERATSION TIZIMLAR TAVSIFI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, *3*(1), 88-91.

11. TO’RAQULOVICH, M. O. (2025). INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, *3*(1), 96-99.

ISSN 3030-3907

UDK 004.8:37

TA’LIM JARAYONIDA VIRTUAL REALLIK ASOSIDA INTERAKTIV DARSLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGI

Jalolov Tursunbek Sadriddinovich
Ilmiy rahbar Osiyo xalqaro universiteti Dotsenti p.f.f.d.(PhD),
Munirov Jonibek Jamshed o’g’li
Osiyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya Ushbu maqolada virtual reallik (VR) texnologiyalarining zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni, ularning afzalliklari hamda amaliy qo‘llanilishi tahlil qilinadi. VR orqali o‘quvchilarga xavfsiz, interaktiv va vizual muhitda dars o‘tish imkoniyati yaratiladi. Maqolada kimyo, biologiya, tarix kabi fanlarda VR texnologiyasi yordamida tashkil etilgan darslar samaradorligi statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, VR asosida test va baholash tizimlari, inkluziv ta’limga qo‘shgan hissasi va o‘qituvchilar uchun zarur bo‘lgan metodik tayyorgarlik ham yoritilgan. Maqola yakunida virtual reallik texnologiyalarini ta’limga to‘laqonli integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Virtual reallik, interaktiv darslar, ta’lim texnologiyalari, VR laboratoriya, 3D modellash, o‘quv jarayoni, simulyatsiya, amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik metodika, vizual o‘rganish, ta’limda innovatsiya, baholash tizimi, inkluziv ta’lim.

Аннотация В данной статье рассматриваются роль, преимущества и практическое применение технологий виртуальной реальности (VR) в современном образовательном процессе. Использование VR позволяет сделать обучение более интерактивным, безопасным и наглядным. Приводятся примеры использования VR в таких предметах, как химия, биология и история, а также представлены результаты экспериментов, подтверждающих эффективность VR-обучения. Отдельное внимание уделено применению VR в системах оценки знаний, инклюзивном образовании и подготовке педагогов. В завершение статьи даются рекомендации по полной интеграции VR в образовательную среду.

Ключевые слова: виртуальная реальность, интерактивные уроки, образовательные технологии, 3D-моделирование, симуляция, визуальное обучение, инновации в образовании, VR-лаборатория, инклюзивное образование, педагогическая методика.

Abstract This article explores the role, advantages, and practical applications of Virtual Reality (VR) technologies in the modern educational process. VR enables a more interactive, safe, and visual learning experience. The paper presents examples of VR usage in subjects such as chemistry, biology, and history, along with statistical data from experimental studies demonstrating its effectiveness.

ISSN 3030-3907

Special attention is given to VR-based assessment systems, its contribution to inclusive education, and teacher training. The article concludes with recommendations for the full integration of VR into educational environments.

Keywords: virtual reality, interactive learning, educational technologies, 3D modeling, simulation, visual learning, innovation in education, VR laboratory, inclusive education, pedagogical methodology.

Kirish.

Zamonaviy ta’lim jarayoni texnologik rivojlanishdan orqada qolmasligi lozim. Xususan, Virtual reallik (VR) texnologiyasi o‘quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilishda katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda. VR yordamida o‘quvchilar amaliy tajribalarni xavfsiz va vizual tarzda o‘rganishlari, tarixiy joylarga virtual sayohat qilishlari yoki biologik tuzilmalarni 3D formatda o‘rganishlari mumkin. Ushbu maqolada VR texnologiyasining ta’limdagi dolzarbligi, afzalliklari va amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha tahlillar va tadqiqot natijalari keltiriladi.

Asosiy qism.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng jamiyatni axborotlashtirish, internet va axborot texnologiyalarining ijtimoiy hayot va ishlab chiqarishga keng tatbiq qilinishi inson faoliyatini virtuallashtirish, virtual realliklar bilan keng miqyosda o‘zaro ta’sirda bo‘lish hodisasini keltirib chiqardi. O‘z navbatida, virtual olamda axloq va axloqsizlik muammosi, shu muammoga doir tushunchalar va tasavvurlar faylasuflarning diqqat e’tiborlaridan chetda qolmadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ham 2017– 2021-yillarda Respublikamizni rivojlantirishning ustuvor yo‘na-lishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishning eng muhim vazifalaridan biri “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Virtualistika fani vujudga kelgandan keyin bu tushuncha falsafiy tafakkur doirasiga kirdi, jiddiy izlanishlar predmetiga aylandi. Virtualistika fanining dastlabki tamal toshlarini rossiyalik olimlari N.A. Nosov va O.I. Genisaretskiylar qo‘yishgan. G‘arb ilmiy va texnologik markazlarda inson-kompyuter va INTERNET tizimlarida hosil bo‘ladigan virtual reallik, bu reallik bilan bog‘lanish va aloqadorlikdan kelib chiqadigan ta’sirlarning ijtimoiy va psixologik oqibatlarini o‘rganishiga urg‘u beriladi. Masalan virtuallashuv sohasida dastlabki izlanishlar olib borgan AQShlik olim M. Kryurer 1960 yilda “sun’iy borliq” tushunchasini fanga kiritgan. Aynan inson tafakkuridagi sun’iy borliq tushunchasi hozirgi kunda tadqiqotchilar tomonidan virtuallashgan jamiyat sifatida talqin qilib kelinmoqda. Kompyuter grafikasi mutaxassisi A. Sayzerlend 1965-yilda yaratgan dastlabki

ISSN 3030-3907

kompyuter displeylaridan foydalanishi tufayli insonlar real muhitdan ajralmagan holda, o‘zini boshqa makonda yashayotgandek tasavvur qiladigan, o‘z hissiyotlari bilan muloqot o‘rnatadigan borliqqa nisbatan “virtual dunyo” tushunchasini qo‘llay boshlagan. Xususan, kibernetikaning asoschilaridan biri Nobert Vinerning fikricha, virtuallashuv XX asrning 60–70-yillarida madaniy o‘zgarishlar tufayli paydo bo‘lgan fantastik va kino yozuvchilari tomonidan yaratilgan asarladan boshlab iste’molga kirgan tushuncha sifatida ijtimoiy muhitning muqobilini aks ettiradi.

Virtualistika fanining hozirgi bosqichida tadqiqot obyekti va predmeti, unga doir atamalar majmuasi (masalan, virtualistika bo‘yicha lug‘at tuzish), uning institutsional, tarmoqlararo, va falsafiy maqomlarini aniqlash dolzarb epistemologik muammo bo‘lib turibdi. Virtualistikaning falsafiy muammosiga kelsak, unda virtuallik ontologiyasi hozircha ko‘proq ishlangan soha bo‘lib turibdi [5]. Lekin virtuallik muammosi etika fani doirasida ishlanmagan tadqiqot mavzusi bo‘lib qolmoqda. Virtual olamdagi inson ma’naviy dunyosiga ta’siri, axloqiylik va axloqsizlik masalalari qisman psixologik nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Ammo uning inson etosferasidagi, etikaga ta’siri endi tadqiqi amalga oshirilayotgan tadqiqotdir. Hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlarda internetdan foydalanish ko‘nikmalari fakultativ dars sifatida maktab dasturiga kiritila boshladi. Buni ham grifingga qarshi kurashishning o‘ziga xos usuli sifatida ko‘rsatish mumkin. Negaki, fakultativ darslar orqali bolalar internetdan olinadigan ma’lumotlarning qanchalik haqqoniy va to‘g‘ri ekanini tekshirishga o‘rgatiladi. Bunday darslar, ayniqsa, o‘smirlar uchun zarur. Internetda grifingdan tashqari o‘smir yoshlar uchun yana bir qancha xavflar ham bor. Ya’ni bolalar va internet muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, ekstremistik xarakterdagi sekta va uyushmalar saytlarining foydalanishga ochiqligi, virtual firibgarlikka keng yo‘l qo‘yilganini ham e'tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagi saytlarga yetaklashi, bu veb-sahifalarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog‘ligiga xavf soluvchi ma’lumotlarni ko‘rishiga olib kelishi tabiiydir. Axborot asri bo‘lgan XXI asrda insoniyatning virtual olam bilan bog‘langanlik darajasi oshib bormoqda. Virtual reallik orqali inson qabul qilayotgan informatsiya miqdori oshib, ba’zi bir holatlarda inson ularni analiz qilishga qodir bo‘lmay qolmoqda. Axborot xurujlariga qarshi kurashishning samarali usuli, unga qarshi tura oluvchi kadrlar guruhini tashkil qilishdir. Davrimiz yoshlarining qiziquvchanligini hisobga olgan holda mamlaktimizda axborot-resurs markazlarining sonini oshirish va orqali ularning “feyk” xabarlar ta’siridan asrash nazarda tutiladi.

Bugungi kunda virtual haqiqatning haqiqiy jismoniy sifatisiz ta’sirini yaratadigan uch o‘lchovli kompyuter simulyatsiyalariga ishora qiladi. Virtual

ISSN 3030-3907

haqiqatdan (AR) foydalanish variantlaridan biri bu "to‘ldirilgan reallik ko‘zoynaklari" deb ataladigan narsa. Masalan, Microsoft HoloLens sizning yashash xonangizda gologramma buyumlar yaratishi mumkin. Borgan sari ko‘proq ishlab chiqaruvchilar bozorga texnik kengaytirilgan haqiqat qurilmalarini olib kelishmoqda, masalan: Google gadjetlari Shisha yoki Sony Aqlli ko‘zoynaklari.

Axborot-resurs markazlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi: • ta’lim muassasalari o‘quvchilari hamda aholining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam ta’lim olishi va mustaqil ravishda ta`lim olishiga ko‘maklashish; • milliy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni keng ko‘lamda targ‘ib qilish, xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo‘lishini ta’minlash, ma’naviy boy va uyg‘un kamol topgan shaxsning ijodiy o‘sishi uchun imkoniyat yaratib berish; • yangi axborot texnologiyalari (ma’lumotlar elektron bazalari, internet resurslari) asosida aholiga axborot xizmati ko‘rsatish; • madaniy, ta’lim, axborot hamda boshqa dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta’lim muassasalari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, milliy madaniyat markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish va hokazolar. Insonning harakati natijasida uning axloqiy qarashlari yuzaga keladi. U bu axloqni qayerdan olishi juda muhimdir. Virtual olamdan olinajak har bir informatsiya kishi axloqiy qarashlarini poklikka undashi lozim. Fan, ta’lim tizimi va hozirgi zamon informatsion tarmoqlarida klassik va noklassik taraqqiyot bosqichlarida shakllangan fan va texnologiyalar o‘rnini egallash oldida turgan innovatsion, jumladan, virtuallik va virtual reallik muammosi hamda unga refleksiyali yondashuv, ularning konsepsiyasi va metodologiyasini respublikamizda shakllantirish masalasini kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Ayni shuning uchun ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”, – degan fikri u zot yashagan davrdagidan behad dolzarbroqdir. Tadqiqotda yuqorida bildirilgan fikrlarga asoslanilgan holda virtuallik muammosiga falsafiy refleksiyali yondashuv tomondan asosiy e'tibor qaratildi. Fan-texnika va kompyuter inqilobi, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida internet tizimidan foydalanish esa rivojlanayotgan mamlakatlarning postindustrial jamiyat bosqichiga o‘tish jarayonlarini jadallashtirmoqda va virtuallik muammosining falsafiy refleksiya predmetiga aylanishini taqozo etmoqda. Epistemologiya bilish va uning shakllari, ilmiy ratsionallik normalari, empirik va nazariy bilish strukturasi, izlanishning ijodiy mexanizmi hamda imkoniyatlarini o‘rganadigan falsafiy yo‘nalishdir. Ko‘p asrlar davomida epistemologiya mantiq va gnoseologiya tarkibida bo‘lib, uning muammolari falsafiy refleksiya “maydonida” muhokama qilingan.

ISSN 3030-3907

Zamonaviy raqamli muhitda o‘quv jarayonining innovatsion shakllarini joriy etish — ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. VR texnologiyasi o‘quvchilarga murakkab va nazariy jihatdan qiyin mavzularni amaliyotga yaqin, ko‘rgazmali va interaktiv tarzda o‘rganish imkonini beradi. Bu texnologiya ta’limni nafaqat zamonaviylashtiradi, balki o‘quvchilarning ongli ishtirokini ta’minlab, ularning bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, VR muhitida o‘quvchilar faol subyektga aylanadi, ya’ni ular passiv eshituvchidan faol ishtirokchiga aylanishadi. An’anaviy ta’lim usullari ko‘pincha vizual va kinestetik o‘rganish uslublarini to‘liq qamrab olmaydi. VR esa ko‘rish, eshitish va hatto harakat orqali o‘zlashtirish imkonini beradi. Bu ko‘pkanallik ta’limni chuqurroq, samaraliroq va qiziqarli qiladi. O‘quvchilar vaqt va makonga bog‘lanmasdan, o‘zlarining rivojlanish sur’atiga mos ravishda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, VR muhitida o‘qituvchilar darslarni moslashtirish va personalizatsiya qilish imkoniyatiga ega.


Biologiya, kimyo, tarix, fizika va texnik fanlarda VR texnologiyasi ko‘plab misollar orqali o‘z samaradorligini namoyon qilmoqda. Masalan:

- Biologiyada inson yuragi va boshqa organlarni 3D ko‘rinishda o‘rganish;
- Kimyoda reaktiv moddalar bilan xavfsiz tajribalar;
- Tarixda tarixiy voqealarning virtual rekonstruksiyasi;
- Fizikada harakat, kuch va energiya qonuniyatlarini tajriba asosida tushunish.

Texnik sohalarda esa muhandislik loyihalarini modellashtirish, simulyatsiya qilish orqali chuqur tahlil etish mumkin. Tajriba guruhi bilan o‘tkazilgan eksperiment natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, VR orqali o‘tilgan darslar o‘quvchilarning bilim darajasini keskin oshirgan. O‘zlashtirish, darsga qiziqish va mustaqil o‘rganish darajalari an’anaviy darslarga nisbatan sezilarli oshgan. Bu esa VR texnologiyasi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchini o‘rganishga faol jalb qilish vositasi ekanligini isbotlaydi. O‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Samarali VR darslarni tashkil qilish uchun: maxsus garnituralar (Oculus Quest, HTC Vive), interaktiv simulyatsiyalarni ishlab chiqish platformalari (Unity, Unreal Engine), kuchli texnik baza talab etiladi. Shu bilan birga, o‘quv kontentlari lokal til va ta’lim dasturiga moslashtirilishi lozim.

O‘qituvchilar uchun esa maxsus o‘quv kurslari va uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqilishi kerak.

ISSN 3030-3907



Dunyoning yetakchi davlatlari — AQSh, Koreya, Finlyandiya, Xitoy kabi mamlakatlarda VR texnologiyasi ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda. U yerda tibbiy, tarixiy va texnik sohalar uchun maxsus VR o‘quv dasturlari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Shuningdek, ba’zi oliy o‘quv yurtlarida to‘liq VR asosida olib boriladigan kurslar mavjud.

Bu esa global ta’limda ushbu texnologiyaning tobora kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqotlarda qatnashgan o‘qituvchilar va o‘quvchilar interaktiv darslarning samaradorligini yuqori baholagan. Ko‘pchilik darslar ancha qiziqarli va oson o‘zlashtirilganini bildirgan.

Shu bilan birga, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi ham muhim omil sifatida ko‘rsatilgan.

Metodik yondashuvlar VR texnologiyasi imkoniyatlarini to‘liq ochib berishi uchun yangilanishi zarur. VR texnologiyasini ta’limda joriy qilishda duch kelinayotgan asosiy muammolar: yuqori xarajatlar, yetarlicha kontentning yo‘qligi, o‘qituvchilarni tayyorlash ehtiyoji va sog‘liq uchun salbiy ta’sirlar. Bu muammolar bosqichma-bosqich hal qilinishi bilan VR texnologiyasining samaradorligi yanada oshadi. Yangi texnologiyalarga mos pedagogik yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur. Dars ishlanmalarda VR vositalarini to‘g‘ri integratsiya qilish, baholash tizimini moslashtirish va mashg‘ulotni individuallashtirish kelgusidagi ustuvor yo‘nalishlardandir.

Yaqin yillarda VR quyidagi yo‘nalishlar orqali yanada rivojlanadi:

ISSN 3030-3907

- sun’iy intellekt bilan birlashgan shaxsiy o‘qituvchilar,
- sensorli (haptik) texnologiyalar orqali “sezish” imkoniyati,
- bulutli VR — internet orqali real vaqtli kirish va VR yordamida masofaviy ta’limni kengaytirish.

So‘nggi yillarda virtual reallik texnologiyalarining ta’limdagi qo‘llanilishi bo‘yicha bir qancha xalqaro tadqiqotlar o‘tkazilgan. Masalan, 2023-yilda AQShdagi *Education Technology Insights* markazi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra:

- VR texnologiyasi joriy etilgan maktablarda o‘quvchilarning mavzuni tushunish darajasi **92%** gacha oshgan;
- O‘quvchilarning 87 foizi VR asosida tashkil etilgan darslarni an’anaviy darslarga nisbatan ko‘proq yoqtirgan;
- O‘qituvchilarning 78 foizi VR darslari orqali o‘quvchilar bilan interaktiv aloqani yaxshilaganini bildirgan.

Bundan tashqari, Koreya Respublikasida 2022–2024 yillarda VR yordamida STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) fanlarini o‘qitishga bag‘ishlangan milliy dastur doirasida 250 dan ortiq maktab qamrab olingan. Natijada:

- STEM fanlari bo‘yicha o‘rtacha baho **12–15%** ga oshgan;
- Fanlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ikki barobarga ko‘paygan;
- VR texnologiyasi o‘zlashtirish darajasiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

O‘zbekiston tajribasi va istiqbollar

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan 2023-yilda boshlangan eksperimental loyiha doirasida Toshkent shahri va ayrim viloyatlarda joylashgan 20 ta maktabda VR laboratoriyalari tashkil etildi. Ushbu loyiha davomida o‘tkazilgan tahlillar quyidagilarni ko‘rsatdi:

- 6 oy davomida o‘quvchilar bilimini o‘zlashtirish darajasi o‘rtacha **18%** ga oshgan;
- O‘qituvchilar tomonidan VR darslarining samaradorligi 9 balli tizimda **8.2 ball** bilan baholangan;
- Ota-onalar tomonidan esa farzandlarining darsga bo‘lgan qiziqishi keskin ortgani kuzatilgan.

Yuqoridagi ma’lumotlar VR texnologiyasining nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ta’limdagi katta potensialga ega ekanini ko‘rsatadi. VR orqali taqdim etilgan interaktiv tajribalar nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki o‘quvchilarda ilg‘or fikrlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirishda ham katta rol o‘ynaydi.

Kelgusida quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

ISSN 3030-3907

- O‘zbek tilidagi sifatli VR kontentlarini ishlab chiqish;
- O‘qituvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash uchun malaka oshirish kurslarini tashkil qilish;
- Ta’lim muassasalarini texnik jihatdan jihozlash;
- VR texnologiyasini fanlar kesimida integratsiya qilish bo‘yicha maxsus metodik qo‘llanmalar yaratish.

Xulosa

Virtual reallik texnologiyasi ta’lim tizimiga joriy etilishi o‘quv jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. VR orqali tashkil etilgan darslar nafaqat samarali, balki o‘quvchilar uchun qiziqarli, interaktiv va xavfsizdir. Amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, VR texnologiyasi o‘quvchilar bilimini oshirish, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish va darsga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Kelgusida bu texnologiyalar boshqa fanlar, bosqichlar va hatto masofaviy ta’limda ham keng qo‘llanishi kutilmoqda. Shu boisdan, VR texnologiyasini o‘quv jarayoniga to‘laqonli integratsiya qilish va pedagogik metodikani moslashtirish dolzarb vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Джонсон Л. и др. (2016). *Horizon Report: Higher Education Edition*. New Media Consortium.
2. МакКоски М. (2019). *Virtual Reality in Education: A Practical Guide*. Routledge.
3. Kozhevnikov, M., & Thornton, R. (2020). "Virtual Reality and STEM Education: Implications for Learning". *Educational Psychology Review*, 32(3), 387–405.
4. MUNIROV, J. (2025). VIRTUAL REALLIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB AMALIY O ‘QUV JARAYONLARINI TASHKIL QILISH. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, *3*(1), 100-103.

ISSN 3030-3907

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR FANI O‘QITISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Ashurov Jasur Djo‘rayevich.
Osiyo xalqaro universiteti “Umumtexnik fanlar” kafedrasi dotsenti,
Tel.: +998907127280,
E-mail: djxp@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion va interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilinadi. Jumladan, “Raqamli texnologiyalar” fanini o‘qitishda “Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” (BBB) metodi hamda keys-stadi (vaziyatli o‘qitish) texnologiyasining qo‘llanilishi yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida yangi pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq qilish ta’lim sifatini oshirishi va talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar. BBB metodi, axborot texnologiyalari, pedagogik texnologiya, elektron darslik, videoma’ruza, multimedia ma’ruza, “Keys-stadi” texnologiyasi, muammoli yaziyat, interfaol metod.

Аннотация. В данной статье анализируется значение использования инновационных и интерактивных методов с целью повышения эффективности образования в системе высшего образования. В частности, рассматривается применение метода «Знаю. Хочу узнать. Узнал» (ЗХУ), а также технологии кейс-стади (обучение на основе ситуаций) при преподавании дисциплины «Цифровые технологии». На основе результатов исследования показано, что внедрение новых педагогических технологий в учебный процесс способствует повышению качества образования и усилению интереса студентов к изучаемой дисциплине.

Ключевые слова: метод ЗХУ, информационные технологии, педагогическая технология, электронный учебник, видеолекция, мультимедийная лекция, технология "Кейс-стади", проблемное обучение, интерактивный метод.

Annotation. This article analyzes the importance of using innovative and interactive methods to enhance the effectiveness of education in the higher education system. Specifically, it discusses the application of the "Know. Want to know. Learned" (KVL) method and the case-study (situational learning) technology in teaching the subject "Digital Technologies." Based on the results of the research, it is demonstrated that the implementation of new pedagogical technologies in the educational process contributes to improving the quality of education and increasing students' interest in the subject.

ISSN 3030-3907

Keywords: KVL method, information technologies, pedagogical technology, electronic textbook, video lecture, multimedia lecture, "Case-study" technology, problem-based learning, interactive method.

Kirish

Oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida faoliyat olib borayotgan pedagoglar, talabalarga fanlardan zaruriy bilimlarni beribgina qolmay, ularni fanlarga qiziqtira olishlari talab etiladi. Buning ucun o‘qituvchining har bir darsi boshqasidan farq qilishiga erishish kerak va mashg‘ulotlarni tashkil qilishda innovatsion ta’lim texnologiyalari hamda zamonaviy pedagogik metodlarni o‘z o‘rnida samarali qo‘llay olish muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Darslarni yangi pedagogik texnologiyalar, axborot dasturiy vositalar va ko'rgazma qurollar asosida tashkil qilinishi orqali ushbu maqsadlarga erishih imkoniyati paydo bo‘ladi.

Shu munotabat bilan talabalarga individual va defferensial tarzda yondashish asosida o‘qitishning optimal shakllari, uslub va amallarni aniqlash zaruriati yuzaga keladi. Innovatsion o‘qitish usullasidan biri - bu interfaol ta’limdir. Interfaol ta’lim metodlardan biri "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim." metodi sanaladi.

Shuningdek, hozirgi kunda talabalarni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga erishish imkoniyatini beruvchi pedagogik texnologiyalardan biri, aksariyat rivojlangan mamlakatlarning ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida keng foydalanilayotgan vaziyatli o‘qitishga asoslangan keys texnologiyasi sanaldi [2]. Ushbu metod va texnologiyalarni Raqamli texnologiyalar fanidan darslarda qo‘llash orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

METODOLOGIYA.

A.A.Verbitskiyning fikricha, talabaning faoliyatdagi o‘rni va mashg‘ulotdagi pozitsiyasi, qanchalik xilma-xil bo‘lsa, kelajakdagi mutaxassis ya’ni shaxs rivojlanadi va o‘qitishga ijodiy yondashuv mazmunli faoliyat, moslashuvchanlik rivojlanadi, chuqurroq fikrlashga harakat qiladi [3].

"Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim. " metod talabalarga muayyan mavzular bo‘yicha o‘z bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo‘llash jarayonida talabalar bilan guruhlarda yoki ommaviy ishlash mumkin. Kichik guruh shaklida ishlashda mashg‘ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagi ko‘rinishda tashkil etilishi mumkin:

Har bir kichik guruh umumiy shakllantirilgan sxema asosida o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg‘ulot yakunida guruhlarning

ISSN 3030-3907

munosabatlari loyiha bandlari bo‘yicha umumlashtiriladi;
Kichik guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.
O‘quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog‘ozida o‘z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

BBB metoddan foydalanish 3 bosqich asosida amalga oshiriladi:
Talabalarning o‘rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo‘yicha tushunchalarni bilish darajalari aniqlanadi.
Mavzu bo‘yicha talabalarning mavjud bilimlarini boyitishga bo‘lgan ehtiyojlari aniqlanadi.
Talabalar mavzuga oid ma’lumotlar bilan batafsil tanishtiriladilar.
Bosqichlar bo‘yicha amalga oshirilgan harakatlarning to‘liq tafsiloti quyidagicha:
talabalari kichik guruhlarga bo‘linadi;
yangi mavzu bo‘yicha talabalarning tushunchalarga egalik darajasi aniqlanadi;
loyihaning 1-bandiga talabalar tomonidan qayd etilgan tushunchalar yozib boriladi;
talabalarning yangi mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo‘lgan ehtiyojlari o‘rganiladi;
talabalarning ehtiyojlari sifatida tanlangan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib boriladi;
o‘qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma’lumotlar bilan talabalarni tanishtiradi;
talabalar o‘zlashtirgan yangi tushunchalar aniqlanadi;
mavzu bayonidagi yangi tushunchalar loyihaning 3-bandiga yozib qo‘yiladi;
mashg‘ulot so‘ngida loyiha yaratiladi.
Ikkinchi bosqichda kichik guruhlarga mavzuga oid tarqatiladigan matnda mavzu mohiyatini ochib beruvchi asosiy ma’lumotlar o‘z ifodasini topgan bo‘lishi kerak [4].
Jumladan “Raqamli texnologiyalar” fanidan “Elektron darslik” mavzusiga oid matn quyida keltirilgan.

Elektron darslik nazariy materialni mustaqil o‘rganishga mo‘ljallangan bo‘lib, unung gipermatnli tuzilishi individual ta’lim traektoriyasi bilan ishlash imkoniyatini beradi.

O‘quv jarayonining asosiy turi ma’ruza hisoblanadi.

Ma’ruza –talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan o‘quv

ISSN 3030-3907

materiali uchun yo‘naltiruvchi asos bo‘lgan bilimlarni shakllantiruvchi o‘quv jarayonining tashkil qilinish shaklidir. Ma’ruzaning uchta asosiy turi mavjud bo‘lib, ular kirish ma’ruzasi, infomatsion ma’ruza va abzor ma’ruzalaridir.

Umumiy ko'rinish rasmida (A) L3/4 chegarasida buyrak tashqarisida joylashgan 1,2 x 0,8 sm (strelkalar) gacha bo'lgan o'lchamdagi soya ko'rinadi. "Yolg'on soya" versiyasi taklif qilingan, ammo urogrammani o'rganayotganda, er-xotin buyrak borligi haqida taxmin qilingan.


Kechiktirilgan tasvirlar bilan takroriy urogramma (B) o'tkazildi (45-daqiqada): er-xotin buyrak, uning yuqori yarmidagi siydik yo'lida joylashgan tosh. Shuning uchun rentgen tekshiruvi usullari va usullarini nafaqat ularga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar, balki shifokorning o'zi ham aniq bilishi kerak.

“Oddiy” rentgen tasviri (barcha texnik talablar bajarilgan va bemor to‘g‘ri joylashtirilgan bo‘lsa) quyidagi parametrlar bilan tavsiflanishi kerak:

• tasvir boy, boy va yetarlicha detallashtirilgan;

• suyak to'qimalarining tuzilishi (gubkasimon va ixcham qatlamlar, kanallar, teshiklar, so'nggi va kortikal plitalar) aniq tasvirlangan.

Rentgen tasvirining sifati strukturaviy va aniqlik xususiyatlari, buzilishlarning mavjudligi va kattaligi, shuningdek optik xususiyatlar bilan baholanishi mumkin. [2]



ISSN 3030-3907

3-rasm. O'rtamiya darajasida eksenel T1 vaznli (a va d), kontrastdan keyingi (b va e) va kontrastsiz suyuqlik bilan zaiflashtirilgan inversiyani tiklash (FLAIR; c va f) tasvirlari ketma-ket ikkita kontrastli MR imtihonlarida ko'rsatilgan.


Asosiy (a-c) kontrastli MR tasvirlari barqaror kasallikni ko'rsatadi va oftalmologik tekshiruv barqaror vizual test anormalliklarini aniqladi. 3 oydan so'ng (d-f) kontrastli MR tasvirlari o'simta hajmining o'sishini ko'rsatadi, bu ikkala eksenel post-kontrast T1 va FLAIR ketma-ketlikda osongina aniq ko'rinadi, garchi vizual test anormalliklari/imtihonlari o'zgarishsiz qolgan,chegaralarini yashirishi mumkin bo'lgan atrofdagi shishlarning kam yoki umuman yo'qligiga olib keladi .

Tibbiy Tasvirlarda Uchraydigan Anomaliyalarni Aniqlash Usullari. Tibbiy tasvirlarni tahlil qilishda anomaliyalarni aniqlash uchun bir nechta usullar mavjud. Bular orasida manuell tahlil va avtomatik tahlil usullari eng keng tarqalganlaridir. Yangi usullar, masalan, sun’iy intellekt va mashina o‘rganish texnologiyalari yordamida tasvirlardagi xatoliklar va anomaliyalar avtomatik ravishda aniqlaydi, bu esa diagnostika jarayonini tezlashtiradi va aniqligini oshiradi [3].

Ma'lumotlar - hajmi, shakli va joylashuvi kabi anomaliyalar haqidagi ma'lumotlar qisman yoki to'liq yo'q bo'lgan va faqat anomaliya turi (bemor tashxisi) ma'lum bo'lgan ma'lumotlar.

Ushbu ishning maqsadi ko'krak qafasining kompyuter tomografiyasi tasvirlarida saraton tugunlarini aniqlash misolidan foydalanib, tibbiy tasvirlardagi anomaliyalarni aniqlash usullarini o'rganishdir.

Tasvir segmentatsiyasi. Tasvirlardagi organlar chegaralarini (segmentatsiyani) topish va aniqlash tibbiy diagnostikada katta ahamiyatga ega. To'g'ri belgilangan chegaralar ko'proq apriori ma'lumot beradi, buning asosida klinisyenlar ko'proq ishonch bilan tashxis qo'yishlari mumkin. Dastlabki ma'lumotlar sifatida xavf ostida bo'lgan bemorlarning o'pkasining kompyuter tomografiyasi ishlatilgan. Namuna 1400 bemordan iborat edi. Bitta KT tekshiruvi davomida o'rtacha 180 ta tekshiruv o'tkazildi (4.a-rasm). O'pka saratoni bilan kasallangan bemorlarning ulushi 0,27 ni tashkil etdi.



4 - rasm. O'pka kompyuter tomografiyasining segmentatsiyasiga misol: (a) asl skanerlash, (b) binarizatsiyadan keyin skanerlash, (c) segmentlangan skanerlash

ISSN 3030-3907

Asl tasvirlar turli xil uskunalarda yaratilgan, shuning uchun dastlabki ishlov berish bosqichida skanerlar yagona formatga aylantirildi (bitta shkala va qo'shni skanerlar orasidagi masofa 1 mm). Segmentatsiya to'rt bosqichdan iborat edi:

1. Rasmni binarizatsiya qilish. 4.b-rasmda intensivligi chegaraviy qiymatidan -320 HU dan oshadigan barcha piksellar 1 qiymatiga, intensivligi kamroq piksellar esa 0 ga almashtiriladi [4];
2. Bog'lanish-komponent tahlili. Bemor atrofidagi havo tegishli bo'lgan yorliqlar to'plamini aniqlash.
3. Har bir skanerlash uchun eng zich ulangan komponentlarni aniqlang;
4. Tana ichidagi eng katta havo cho'ntaklarini va eng zich tarkibiy qismlarni (masalan, suyaklarni) olib tashlash [5].

O'pka kompyuter tomografiyasining segmentatsiyasi natijasini 4.c-rasmda ko'rish mumkin.

Tasvir tasnifi. Tasvirlardagi anomaliyalarni aniqlash muammosini tasvirlarni oddiy va g'ayritabiiylarga ajratish muammosiga qisqartirish mumkin. Tasniflash masalalarida eng ko'p qo'llaniladigan usullar qarorlar daraxti va chiziqli modellardir. Logistik regressiya Logistik regressiya - bu sinfga mansub ob'ektning posterior ehtimolini baholash imkonini beruvchi chiziqli klassifikator.

$$f(x|w)=sign\left(\sum_{k=1}^{m} w_k x_k - w_0\right) \quad (1)$$

bu erda $x=(x_1,x_2,\ldots,x_m)$ ob'ekt xususiyatlarining vektori, $w=(w_1,w_2,\ldots,w_m)$ -tasniflagich parametrlari (og'irliklar vektori), w_0 - qaror chegarasi.

Eng yaqin qo'shni usuli - bu ob'ektlar orasidagi masofani (o'xshashlik ballarini) hisoblashga asoslangan tasniflash usuli. Ob'ekt o'quv namunasidagi eng yaqin ob'ektlar tegishli bo'lgan sinfga tegishlidir

Tasodifiy o'rmon - bu o'zaro bog'liq bo'lmagan qaror daraxtlari tarkibi bo'lib, unda har bir daraxt tasodifiy xususiyatlar pastki bo'shlig'idan va/yoki o'quv ma'lumotlar to'plamidan qurilgan. Daraxtlardan tashkil topgan tasodifiy o'rmonni qurish algoritmi: D namunalar . [6]

Neyron tarmoqlar. Yuqorida muhokama qilingan usullarning kamchiliklaridan biri ob'ektlardan xususiyatlarni "qo'lda" ajratib olish zarurati va tasniflash sifati to'g'ridan-to'g'ri xususiyatlarni tanlash muvaffaqiyatiga bog'liq. Chuqur o'rganish tizimlarida, masalan, konvolyutsion neyron tarmoqlarda, xususiyatlarni ajratib olish va tanlash jarayoni modelning o'ziga ishonib topshiriladi, bu esa oxir-oqibat tasniflash sifatini yaxshilaydi [7].

Sun'iy neyron tarmoq - bu tabiiy neyron tarmoqning ba'zi funktsiyalarini taqlid qiluvchi matematik model:

$$y(x|w)=f\left(\sum_{k}^{L} w_k \phi_k(x)\right) \quad (2)$$

ISSN 3030-3907

Bu yerda f - nochiziqli faollashtirish funksiyasi, $w=(w_1,w_2,\dots w_L)$ w= neyron tarmoq, $\phi=(\phi_1,\phi_2,\dots\phi_L)$ chiziqli bo'lmagan bazis funktsiyalari, L-o'girligi.

Anomaliyalarni aniqlash sifatini baholash. Hardikning tekstura xususiyatlari segmentlangan tasvirlarning xususiyat tavsifi sifatida tanlangan [8]. Tasniflash modellari uchun sifat ko'rsatkichi xato egri chizig'i ostidagi maydon (ROC-AUC) bo'lib, kelajakda I va II turdagi xatolar narxiga qarab qaror qabul qilishning maqbul chegarasini tanlash imkonini beradi. Tasniflash natijalari 1, 2-jadvallarda keltirilgan:

1-Jadval

Xususiyat tavsifiga asoslangan turli tasniflash usullari uchun sifat ko'rsatkichining qiymati

Tasniflash usuli	ROC-AUC	
	Barcha skanerlar orqali	Bemorni skanerlash bo'yicha o'rtacha hisoblanganda
Eng yaqin qo'shnilar	0,51	0,55
Logistik regressiya	**0,67**	**0,70**
Tasodifiy o'rmon	0,54	0,59


2-Jadval

Turli neyron tarmoq arxitekturalari uchun sifat ko'rsatkichining qiymati

Neyron tarmoq arxitekturasi	ROC-AUC	
	barcha skanerlar orqali	bemorni skanerlash bo'yicha o'rtacha hisoblanganda
VGG-11 [9]	0,52	0,53
VGG-19	0,55	0,58
ResNet34 [10]	0,57	0,61
ResNet50	**0,66**	**0,69**
InceptionResnet-3 [11]	0,54	0,59


5 – rasmda konvolyutsion neyron tarmog'ining bashoratlarini sharhlashning bir usuli - bu tasvirni tasniflash uchun eng muhim bo'lgan hududlarni ajratib ko'rsatish imkonini beruvchi sinf faollashtirish xaritalarini vizualizatsiya qilishdir [9].

ISSN 3030-3907



5 - rasm. Sinfni faollashtirish xaritasi bilan asl rasm.

Belgilangan joylarda anomaliyalarni topish ehtimoli chegaradan yuqori.Bu rasm shuni ko'rsatadiki, bu usul anomaliya ehtimoli yuqori bo'lgan joylarni topish uchun ishlatilishi mumkin, bu esa shifokorlarga eng shubhali joylarga jiddiy e'tibor qaratish imkonini beradi.



1.5-rasm. Diagnostikani takomillashtirish va diagnostik xatolarni kamaytirish bo‘yicha maqsadlar.

XMT hisobotida yagona yechim yo‘qligini ta’kidlagan holda, 8 “Diagnostikani takomillashtirish va diagnostik xatolarni kamaytirish bo‘yicha maqsadlar” sanab o‘tilgan bo‘lib, bunda nuqsonli deb topilgan sohalardagi barcha sog‘liqni saqlash mutaxassislari uchun ta’lim va o‘qitish, jumladan, klinik fikrlash, jamoaviy ish [10], muloqot va diagnostik testlardan foydalanish va sog‘liqni saqlash axborot texnologiyalaridan foydalanishga e’tibor qaratilgan.

Foydalanuvchilar uchun tibbiy tasvirlardagi anomaliyalarni aniqlash interfeysini web ilovada yaratish. Veb ilova yordamida foydalanuvchilar uchun tibbiy tasvirlardagi anomaliyalarni aniqlash interfeysi ishlab chiqiladi. Bu ilova intuitiv va qulay bo‘lishi kerak, shuningdek, bemorlar va tibbiyot xodimlariga aniq va tezkor tahlil imkonini berishi zarur.

Qurilgan algoritmni testlash uchun dastlabki ma'lumotlarni kiritish va testlash natijasini tahlil qilish. Algoritmni testlashda dastlabki ma'lumotlar kiritiladi va ularning natijalari tahlil qilinadi. Bu testlar orqali algoritmning aniqligi, samaradorligi va foydalanuvchilar uchun qulayligi baholanadi.

ISSN 3030-3907

Tahlil natijalarini vizuallashtirish Asosiy yuqori aniqlikda tasvirlarni solishtirish va ornazimdagi kamchiliklarni yaxshilangan tasvirni foydalanuvchiga taqdim etish. Model natijalarini interaktiv formatda aks ettirish.

Web Ilova Arxitekturasi Web ilova quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- **Frontend** HTML, CSS, JavaScript
- **Backend** Python Flask yoki Django
- **Tasvirni qayta ishlash** OpenCV, TensorFlow, PyTorch
- **Ma'lumotlar bazasi** PostgreSQL yoki MongoDB

Xulosa

Tibbiy tasvirlar, xususan, rentgen, MR, va kompyuter tomografiya tasvirlari diagnostik jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, tasvirlarda paydo bo‘ladigan xatoliklar va anomaliyalar, ayniqsa, uzoq vaqt davomida davolashni talab qiladigan kasalliklarni aniqlashda muammo tug‘dirishi mumkin.

Bu muammoni hal qilish uchun tadqiqotda sun’iy intellekt va mashinani o‘rganish texnologiyalaridan foydalanib, anomaliyalarni aniqlash uchun ilg‘or algoritmlar ishlab chiqildi. Shuningdek, tadqiqot davomida anomaliya tasvirlarini yig‘ish va ularning xususiyatlarini o‘rganish, algoritmni ishlab chiqish va uning samaradorligini testlash ishlari amalga oshirildi.

Olingan natijalar ko‘rsatishicha, sun’iy intellekt yordamida anomaliyalarni aniqlashda sezilarli darajada samaradorlikni oshirish mumkin. Veb-ilova yordamida foydalanuvchilar uchun interfeys yaratish, tibbiy tasvirlardagi anomaliyalarni tez va aniq aniqlash imkonini yaratdi. Dastlabki testlashlar natijasida ishlab chiqilgan algoritmning yuqori aniqlikda ishlashi ta’minlandi.

Natijada, tibbiy tasvirlar yordamida anomaliyalarni aniqlash usullari tibbiy diagnostikaning aniq va samarali bo‘lishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Tadqiqotning natijalari tibbiyot sohasida tasvir tahlilini yangi bosqichga olib chiqishi, shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalarni kengroq qo‘llash imkoniyatlarini ochadi.

Xususiyatlarni tavsiflash asosida tasniflash usullarining tezligi, asosan, asl tasvirlardan xususiyatni ajratib olish tezligi bilan belgilanadi, shuning uchun bu usullardan anomaliyalar uchun tasvirlarni tezkor tahlil qilish uchun foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. FastStats - Kasalxonadan foydalanish, Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari. [Elektron resurs]. URL: https://www.cdc.gov/nchs/fastats/hospital.htm/ (kirish sanasi: 05/08/2018).

ISSN 3030-3907

2. Rubin G.D. va boshqalar. Ko'p detektorli qatorli KT tekshiruvlarida o'pka tugunlari: rentgenologlar va kompyuter yordamida aniqlashning ishlashini taqqoslash // Radiologiya, 2005. No 234. pp. 274-283.
3. Armato S.G. va boshqalar. O'pka tasvir ma'lumotlar bazasi konsortsiumi (LIDC) va tasvir ma'lumotlar bazasi resurs tashabbusi (IDRI): KT skanerlashda o'pka tugunlarining to'liq ma'lumot bazasi, Tibbiy fizika, 2011. No 38. P. 915-931.
4. Schneider U., Pedroni E., Lomax A. Radioterapiyani davolashni rejalashtirish uchun KT Xounsfild birliklarini kalibrlash, Tibbiyot va biologiyada fizika, 1996. No 41. pp. 111.
5. Suzuki S. va boshq. Raqamlangan ikkilik tasvirlarni chegara bo'yicha topologik tizimli tahlil qilish // Kompyuter ko'rish, grafika va tasvirni qayta ishlash, 1985. № 30. pp. 32-46.
6. Fridman J., Xasti T., Tibshirani R. Statistik o'rganish elementlari. Nyu-York: Statistikada Springer seriyasi, 2001.
7. Krizhevskiy A., Sutskever I., Hinton G.E. Chuqur konvolyutsion neyron tarmoqlari bilan Imagenet tasnifi,cNeyron axborotni qayta ishlash tizimlarida yutuqlar, 2012.
8. Xaralik R.M. va boshqalar. Tasvirlarni tasniflash uchun teksturaviy xususiyatlar, Tizimlar, inson va kibernetika bo'yicha IEEE operatsiyalari, 1973. No 6, pp. 610-621.
9. Rubin G.D. va boshqalar. Ko'p detektorli KT tekshiruvlarida o'pka tugunlari: rentgenologlarning ish faoliyatini taqqoslash va kompyuter yordamida aniqlash, Radiologiya, 2005. № 234. pp. 274-283.
10. Armato S.G. va boshqalar. O'pka tasvir ma'lumotlar bazasi konsortsiumi (LIDC) va tasvir ma'lumotlar bazasi resurs tashabbusi (IDRI): KT skanerlashda o'pka tugunlarining to'liq ma'lumot bazasi, Tibbiy fizika, 2011. No 38. pp. 915-931.

ISSN 3030-3907

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA SHAXS, TEMPERAMENT VA XARAKTER: SHAXS XUSUSIYATLARINI TEKSHIRISHDA PSIXOLOGIK TESTLAR VA ULARNI QO’LLASH QOIDALARI, PSIXOLOGIK YORDAM TURLARI HAMDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINI DARS JARAYONIGA AMALIY TATBIQ ETISH

Karimova Sadoqat Sharif qizi
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti.
Buxoro, O‘zbekiston.
E-mail: karimova.sadoqat@bsmi.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning psixologik xususiyatlarini aniqlash, ularning individual shaxs sifatida rivojlanishini kuzatish va baholashda psixologik testlardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, temperament va xarakter tushunchalari, psixologik yordam shakllari, hamda psixologik himoya mexanizmlari amaliy mashg‘ulotlarda qanday qo‘llanishi mumkinligi tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Shaxs psixologiyasi, temperament turlari, xarakter xususiyatlari, psixologik testlar, test metodikasi, diagnostik vositalar, shaxsni o‘rganish usullari, psixologik yordam turlari, konsultativ yordam

Аннотация: В данной статье освещается важность использования психологических тестов в высших учебных заведениях для выявления психологических особенностей учащихся, наблюдения и оценки их развития как индивидуальной личности. Также были проанализированы концепции темперамента и характера, формы психологической поддержки, а также то, как механизмы психологической защиты могут быть применены на практике.

Ключевые слова: Психология личности, типы темперамента, черты характера, психологические тесты, методика тестирования, диагностические средства, методы изучения личности, виды психологической помощи, консультативная помощь

Annotation: this article covers the importance of determining the psychological characteristics of students in higher education institutions, monitoring and assessing their development as an individual person, using psychological tests. It has also been analyzed how the concepts of temperament and character, forms of psychological assistance, as well as mechanisms of psychological protection can be used in practical training.

Keywords: personality psychology, types of temperament, character traits, psychological tests, test methodology, diagnostic tools, personality learning methods, types of psychological assistance, consultative care

Kirish

ISSN 3030-3907

Zamonaviy ta’lim jarayonida inson shaxsining individual-psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish va ularni ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda samarali qo‘llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, psixik holatlarining barqarorligiga, ta’lim motivatsiyasiga va ijtimoiy moslashuv darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish uchun ularning temperament, xarakter va shaxsga oid boshqa psixologik komponentlarini aniqlash va baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon esa ilmiy asoslangan psixologik testlar, diagnostika vositalari hamda turli shakldagi psixologik yordam ko‘rsatish metodlarini tatbiq etishni talab etadi.

Shaxs – bu ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli bo‘lib, uning shakllanishi ko‘p omilli va murakkab jarayondir. Shaxsning tarkibiy qismlari hisoblangan temperament va xarakter uning xatti-harakatlari, ijtimoiy muhitga moslashuvi hamda o‘zini namoyon etish darajasini belgilovchi asosiy determinantlardandir. Talabalik davri esa inson hayotining aynan shaxsiy o‘sish va shakllanish nuqtayi nazaridan hal qiluvchi bosqichi bo‘lib, bu davrda psixologik ko‘mak va himoya mexanizmlarining amaliy ahamiyati yana-da ortadi. Shaxs xususiyatlarini o‘rganishda psixologik testlardan foydalanish ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan holda tashkil etishga yordam beradi. Bunda test natijalarining ishonchliligi va aniqligi, ularni to‘g‘ri tahlil qilish va talabaning individual ehtiyojlariga mos ravishda foydalanish mezonlari muhim o‘rin tutadi. Bundan tashqari, psixologik yordamning kognitiv, emotsional, motivatsion va adaptiv ko‘rinishlari orqali talabaning psixologik holatini muvozanatlash, stress holatlarining oldini olish, o‘z-o‘zini anglash va boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin.

Shuningdek, talabalarda uchraydigan psixologik muammolarning oldini olishda psixik himoya mexanizmlarining o‘rni beqiyosdir. Bunday mexanizmlarni anglash, tahlil qilish va dars jarayonida amaliy qo‘llash orqali talabalarning ichki ziddiyatlarini yengib o‘tishiga, shaxsiy muammolarini konstruktiv tarzda hal qilishiga ko‘maklashish mumkin. Mazkur mavzuning o‘rganilishi oliy ta’lim muassasalarida pedagog-psixologlar, o‘qituvchilar va ta’lim ishtirokchilarining psixologik kompetensiyasini oshirish, talaba shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuvni shakllantirish hamda sifatli ta’lim-tarbiya muhitini yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Shaxs psixologiyasi bo‘yicha klassik va zamonaviy nazariyalar, xususan, L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, S.L. Rubinshteyn kabi rus psixologlarining ishlari shaxsning rivojlanish bosqichlari va tuzilmasini tushunishda muhim ahamiyatga ega. G‘arb psixologiyasi doirasida esa G. Ayzenk, K. Jung, Z. Freyd va A. Adlerlarning temperament, xarakter va himoya mexanizmlari bo‘yicha qarashlari dolzarb hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Temperament bo‘yicha G. Ayzenkning “EPI” (Eysenck Personality Inventory) testi, K. Jungning introversiya va ekstraversiya tushunchalari, K. Leonhard va G. Shmishekning aktsentuatsiyalangan xarakter turlari to‘g‘risidagi tadqiqotlari ayniqsa dars jarayonida talabalar shaxsini tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Mahoratli psixologik tahlil uchun quyidagi testlar keng qo‘llaniladi:

- MMPI – Minnesota Ko‘p Fazali Shaxs Inventari (Millon, Hathaway & McKinley)
- 16PF – Kettellning shaxs faktorlari testi
- TAT – Tematik Appersepsiya testi (Murray)
- Ravenn testlari – intellektual salohiyatni o‘lchovchi vosita sifatida

Ushbu testlar orqali shaxsning ichki holati, psixik barqarorligi, psixodinamik jihatlari tahlil qilinadi va ilmiy asoslangan pedagogik yondashuv ishlab chiqiladi.

Freydning psixoanalitik nazariyasi asosida ishlab chiqilgan psixologik himoya mexanizmlari (sublimatsiya, repressiya, inkor etish va b.) va zamonaviy kognitiv-behavioral yondashuvlar psixologik yordam shakllari sifatida dars jarayonida qo‘llanishi mumkin. Masalan:

- Kognitiv terapiya (A. Bek)
- Ratsional-emotiv terapiya (A. Ellis)
- Qiziqishlar asosida maslahat berish (K. Holland modeli)

O‘zbekiston psixologiyasida ham bu borada qator ilmiy ishlanmalar mavjud. Jumladan, Z. Axmedova, N. To‘ychiev, D. Xodjaeva, Sh. Raxmonov singari olimlarning yondashuvlari talaba shaxsini milliy mentalitet asosida o‘rganishga imkon beradi.

Dars jarayonida shaxs xususiyatlarini tahlil qilish, psixologik yordam ko‘rsatish va himoya mexanizmlarini tatbiq etish uchun quyidagi ilmiy va amaliy metodlar qo‘llanilishi mumkin:

1. Empirik metodlar bu- Testlash – shaxsga oid diagnostik testlarni qo‘llash orqali individual psixologik portret yaratish, so‘rovnoma (anketirovka) – talabalar psixologik holatini tahlil qilish uchun moslashtirilgan savollar asosida, kuzatuv – talaba faoliyati, muloqoti, stressga munosabatini amaliy vaziyatlarda tahlil qilish. intervyu va suhbat – yarim strukturaviy suhbatlar orqali shaxsiy muammolarni aniqlash. kabilar kiradi.

2. Eksperimental metodlarda o‘quv jarayoniga turli o‘quv-psixologik mashqlar kiritilib, ularning ta’siri o‘rganiladi. Masalan, psixologik treninglar (komandaviy ish, liderlik, empatiya rivojlantirish, stressni boshqarish) orqali talabada ijtimoiy ko‘nikmalar shakllantiriladi.

ISSN 3030-3907

3. Psixokorreksion yondashuvlar esa talabalarning individual shaxsiy xususiyatlarini inobatga olib, ularga mos konsultativ va terapevtik metodlar tanlanadi. Stress, xavotir, depressiya belgilarini kamaytirish uchun relaksatsion mashqlar, vizualizatsiya texnikalari, meditatsiya va nafasni boshqarish metodlari qo‘llanadi.

4. Amaliy o‘yinlar va rolli mashg‘ulotlar asosan shaxslararo munosabatlar, qaror qabul qilish, mas’uliyat va yetakchilikni shakllantirishga xizmat qiladi. “Rollar almashinuvi”, “Konstruktiv muloqot”, “Qiyin vaziyatlardan chiqish” kabi mavzularda interaktiv mashg‘ulotlar samarali hisoblanadi.

NATIJALAR. Ushbu tadqiqot natijasida oliy ta’lim muassasalarida shaxs, temperament va xarakter kabi psixologik konstruktlarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning talabalarning o‘quv faoliyatiga, shaxsiy rivojlanishiga va ijtimoiy moslashuviga ta’siri chuqur tahlil qilindi. Psixologik testlar asosida o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar natijalari, shaxsning individual xususiyatlarini aniqlash, temperament turlarini differensiallashtirish va xarakterdagi muhim chiziqlarni baholash orqali pedagogik jarayonni individuallashtirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatdi.

Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar davomida qo‘llanilgan psixologik yordam shakllari (konsultatsiya, trening, relaksatsiya mashqlari, psixoterapevtik suhbatlar) talabalarning stressga chidamliligi, o‘z-o‘zini anglash darajasi va ijtimoiy-emotsional intellekti rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Psixologik himoya mexanizmlarining individual shakllari aniqlanib, ular asosida talabalarning muammoli vaziyatlarda qanday moslashuv strategiyalarini qo‘llashini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotda qo‘llangan testlar (masalan, Eysenckning temperament testi, Kettellning shaxsiy sifatlar testi, MMPI) orqali olingan ma’lumotlar dars jarayoniga amaliy integratsiya qilinar ekan, talabalar shaxsini chuqurroq o‘rganish, ularga mos o‘quv uslublarini tanlash va individual yondashuvni ta’minlash imkonini berdi. Bu esa ta’lim samaradorligining oshishiga, shuningdek, psixologik muvozanatni saqlashga xizmat qiluvchi tizimli psixologik yondashuvni shakllantirishga asos bo‘ldi. Yakunda, psixologik testlar va psixodiagnostika metodlarining o‘quv jarayoniga integratsiyasi orqali talabalar psixologik salomatligini saqlash, ularning ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta’minlash va shaxs sifatida rivojlanishiga zamin yaratildi. Bu esa zamonaviy oliy ta’lim tizimida psixologik xizmatlar va yordam shakllarining doimiy rivojlanishini talab qiladi.

MUHOKAMA. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning psixologik rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi hamda ta’lim sifati ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ulardan eng muhimi — shaxsning psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish va individual yondashuvni ta’minlashdir. Shaxs, temperament va

ISSN 3030-3907

xarakter talabaning kognitiv, emotsional va ijtimoiy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan, ularni o‘rganish nafaqat psixologik, balki pedagogik jarayonlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Temperament — bu shaxsning tug‘ma nerv tizimi xususiyatlari bilan belgilanadigan psixik faoliyatining dinamik jihatlaridir. Xarakter esa insonning ijtimoiy muhitda shakllanuvchi, barqaror, individual xatti-harakatlar tizimidir. Shaxsning ushbu tarkibiy qismlarini aniqlash va ularni tahlil qilishda psixologik testlar muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, G. Ayzenkning temperament testi, Cattellning 16 shaxsiy fazilat testi, MMPI, Shmishek–Leonhardning xarakter aksentuatsiyasi testi kabi uslublar ta’lim muhitida samarali qo‘llaniladi.

Mazkur testlarni qo‘llashda psixologik etik qoidalarga qat’iy rioya qilish zarur. Jumladan, talabaning roziligini olish, test natijalarini maxfiy saqlash, xolis tahlil qilish va baholash, talaba shaxsiga zarar yetkazmaydigan shaklda fikr bildirish kabi mezonlar muhim hisoblanadi. Bunday yondashuv o‘quvchining ichki dunyosini ochish, individual o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqish hamda shaxsiy rivojlanishga ko‘maklashishda xizmat qiladi.

Talabalarga psixologik yordam ko‘rsatish shakllari keng ko‘lamli bo‘lib, ular profilaktik, diagnostik, maslahat beruvchi, psixokorreksion va rivojlantiruvchi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Shaxsiy yoki guruhiy mashg‘ulotlar, treninglar, psixodrama, art-terapiya kabi metodlar orqali talabada o‘z-o‘zini anglash, o‘zini boshqarish va muammolarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Psixologik himoya mexanizmlari — bu shaxsning stressli holatlarga qarshi ruhiy barqarorligini saqlashga qaratilgan ichki vositalar bo‘lib, ular ong osti darajasida ishga tushadi. Masalan, repressiya, proyeksiya, ratsionalizatsiya kabi mexanizmlar talabalarning hayotiy murakkab vaziyatlarga moslashishida muhim rol o‘ynaydi. Ularni anglash va tahlil qilish orqali o‘qituvchilar va psixologlar talabaning ruhiy holatini sog‘lom yo‘nalishda rivojlantirishga yordam berishlari mumkin. Shu jihatdan, mazkur psixologik bilim va yondashuvlarni dars jarayoniga amaliy tatbiq etish nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki talabalarning psixologik barqarorligini mustahkamlash, sog‘lom muhit yaratish va shaxsiy salohiyatni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Har bir pedagog va psixolog shaxsning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlasa, oliy ta’lim muassasalarida ijobiy psixopedagogik muhit shakllanadi.

XULOSA. Oliy ta’lim muassasalarida shaxs, temperament va xarakterni o‘rganish, ularning psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish zamonaviy psixologik yondashuvlar asosida ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shaxs psixologiyasini o‘rganishda turli psixodiagnostik testlar va metodikalarni qo‘llash nafaqat talabalar individual farqlarini aniqlash, balki ularga

ISSN 3030-3907

moslashtirilgan ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik testlar va ularni qo‘llash qoidalari psixologik tadqiqotlarning ilmiy asoslanganligini, aniqligini va ishonchliligini ta’minlab, shaxsning temperament va xarakter xususiyatlarini aniq belgilash imkonini beradi. Shu bilan birga, psixologik yordam turlari (masalan, maslahat berish, psixoprofilaktika, psixokorrektsiya) orqali talabalarning ijtimoiy-psixologik muammolarini hal etish, ularning ruhiy holatini barqarorlashtirish va ta’limdagi motivatsiyasini oshirish mumkin.

Psixologik himoya mexanizmlarini o‘rganish va ulardan to‘g‘ri foydalanish shaxsning ichki ziddiyatlarini yengib o‘tishiga, stress va ruhiy zo‘riqishlarga bardosh berish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu elementlarni dars jarayoniga amaliy tatbiq etish esa talabalarning o‘zini anglash darajasini oshirib, ularning barkamol shaxs sifatida shakllanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Shunday qilib, shaxs xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganish, psixologik testlar va yordam turlarini tizimli qo‘llash, hamda psixologik himoya mexanizmlarini amaliyotga tadbiq etish orqali oliy ta’limda samarali psixopedagogik muhitni shakllantirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Gray, J. A. (1982). The Neuropsychology of Anxiety: An Enquiry into the Functions of the Septo-Hippocampal System. Oxford University Press.
2. Kiecolt-Glaser, J. K., & Glaser, R. (2002). Psychoneuroimmunology and Psychosomatic Medicine: Back to the Future. Psychosomatic Medicine, 64(1), 15-22.
3. Kaplan, H. I., & Sadock, B. J. (2009). Comprehensive Textbook of Psychiatry. 9th ed. Lippincott Williams & Wilkins.
4. Bishop, S. R., & Lau, M. A. (2004). Mindfulness and Psychosomatic Medicine: A Review of Current Evidence. Psychosomatic Medicine, 66(5), 525-538.
5. Barsky, A. J., & Borus, J. F. (1999). Functional Somatic Syndromes: An Overview. JAMA, 282(10), 991–996.
6. Kagan, J. (1994). Galen's Prophecy: Temperament in Human Nature. University of Chicago Press.
7. McCrae, R. R., & Costa, P. T. (1996). Toward a New Generation of Personality Theories: Theoretical Contexts for the Five-Factor Model. Hillsdale.
8. Friedman, H. S., & Schwartz, J. L. (1999). Psychosomatic Relationships in the Development of Disease. Journal of Clinical Psychology, 55(7), 945–952.

ISSN 3030-3907

9. Lipsitz, J. D., & Appelbaum, P. S. (2000). Psychosomatic Disorders in Psychiatry: From Theory to Practice. American Journal of Psychiatry, 157(2), 208-215.
10. Engel, G. L. (1977). The Need for a New Medical Model: A Challenge for Biomedicine. Science, 196(4286), 129-136.
11. Beck, A. T. (1976). Cognitive Therapy and the Emotional Disorders. *International Universities Press*.
12. Sumner, J. A., & Pincus, T. (2011). Cognitive and Behavioral Approaches to Psychosomatic Treatment. Psychosomatic Medicine, 73(4), 334-341.
13. Miller, E. A. (2004). Psychosomatic Medicine in the Context of Family Practice. Family Medicine, 36(2), 109-115.
14. Yalom, I. D. (2008). The Gift of Therapy: An Open Letter to a New Generation of Therapists and Their Patients. *HarperCollins*.

ISSN 3030-3907

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA OSHQOZONNI ZONDLASH TEXNIKASI. OSHQOZONNI YUVISH, ZOND BILAN OVQATLANTIRISH MAVZUSINI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Xalimov Aziz Olim o'g'li

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti. Buxoro, O‘zbekiston. e-mail: xalimov.aziz@bsmi.uz

Annotatsiya: Maqolada, Tibbiya oliy ta’lim muassasalarida oshqozonni zondlash texnikasi, oshqozonni yuvish va zond bilan ovqatlantirish bo‘yicha interaktiv ta'lim metodlarining o‘qitishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu usullar, talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, murakkab tibbiy jarayonlarni o‘zlashtirishda samaradorligini oshirish uchun juda muhimdir. Maqola, interaktiv ta'lim metodlarini qo‘llash orqali talabalar o‘z bilimlarini yanada chuqurroq va mustahkam o‘zlashtirishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda erishiladigan yutuqlarni ko‘rsatadi. Oshqozonni yuvish va zond bilan ovqatlantirish jarayonlari bo‘yicha interaktiv metodlar, misol uchun, simulyatsiyalar, rolli o‘yinlar va guruhli muhokamalar orqali samarali tarzda o‘rgatish imkonini beradi. Ushbu metodlar yordamida talabalar, haqiqiy sharoitda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holatlar bo‘yicha fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini oshiradilar. Maqolada shuningdek, interaktiv metodlarning amaliy ta'limdagi ahamiyati va ularni to‘g‘ri qo‘llashning samaradorligi haqida fikrlar keltiriladi.

Kalit so’zlar: oshqozonni zondlash, oshqozonni yuvish, zond bilan ovqatlantirish, interaktiv ta'lim metodlari, tibbiy ta'lim, amaliy ko‘nikmalar, simulyatsiya, Virtual reallik (VR)

Аннотация: В статье анализируется важность интерактивных методов обучения методам зондирования желудка, промывания желудка и зондового питания в медицинских высших учебных заведениях в обучении. Эти методы очень важны для развития практических навыков учащихся, повышения их эффективности в освоении сложных медицинских процессов. В статье показан прогресс, достигнутый в применении теоретических знаний на практике, благодаря использованию интерактивных методов обучения учащиеся могут глубже и прочнее усваивать свои знания. Например, интерактивные методы процесса промывания желудка и зондового кормления позволяют эффективно обучать с помощью симуляций, ролевых игр и групповых обсуждений. С помощью этих методов учащиеся развивают навыки мышления и принятия решений в ситуациях, которые могут возникнуть в реальных условиях. В статье также приводятся мнения о

ISSN 3030-3907

важности интерактивных методов в практическом обучении и эффективности их правильного применения.

Ключевые слова: зондирование желудка, промывание желудка, зондовое кормление, интерактивные методы обучения, медицинское образование, практические навыки, моделирование, виртуальная реальность (VR)

Annotation: the article analyzes the importance in teaching of interactive educational techniques for gastric probing techniques, gastric lavage, and probe feeding in Higher Education Institutions in Tibbia. These methods are very important for the development of practical skills of students, increasing their effectiveness in mastering complex medical processes. The article shows the progress achieved by applying interactive learning techniques to enable students to acquire their knowledge more deeply and firmly, and to put theoretical knowledge into practice. Interactive techniques on the processes of gastric lavage and probe feeding enable effective training through simulations, role-playing games, and group discussions, for example. With these techniques, students improve their thinking and decision-making skills regarding situations that may arise in real conditions. The article also cites ideas about the importance of interactive techniques in practical education and the effectiveness of their proper application.

Keywords: stomach probing, gastric lavage, probe feeding, interactive learning techniques, medical education, practical skills, simulation, Virtual Reality (VR

Kirish.

Oshqozonni zondlash texnikasi, oshqozon yuvish va zond bilan ovqatlantirish – bu tibbiy yordamda muhim o‘rin tutadigan protseduralardir. Ushbu protseduralarni yuqori ta'lim muassasalarida o‘rgatishda, talabalarga amaliy va nazariy bilimlarni o‘rganishning samarali usullarini qo‘llash juda muhimdir. Interaktiv ta'lim metodlari o‘quv jarayonini yaxshilash, talabalar faoliyatini oshirish va ularga ko‘proq amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu metodda talabalar real tibbiy muammolarni hal qilish uchun o‘qituvchi tomonidan berilgan vazifalarni bajarishadi. Oshqozonni zondlash, yuvish yoki zond bilan ovqatlantirish kabi tibbiy amaliyotlar haqidagi kompleks muammolarni hal qilish orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishga o‘rganadilar. Bu metod interaktiv o‘qitishning samarali shakli bo‘lib, talabalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, muloqotda bo‘lish va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Oshqozonni zondlash yoki yuvish kabi protseduralarni o‘rganishda simulyatsiya metodlari keng qo‘llaniladi. Bunda talabalarga maxsus simulyatorlar, manekenlar yoki virtual muhitlarda amaliyotlarni o‘rganish imkoniyati taqdim etiladi. Masalan, oshqozonni zondlashni simulyatsiya qilish orqali talabalar noxush holatlar yuzaga kelganda qanday harakat qilishni o‘rganadilar. Simulyatsiya

ISSN 3030-3907

metodining afzalligi shundaki, talabalar xavfsiz sharoitda amaliy tajriba orttirishadi, bu esa real holatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatoliklarni kamaytiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Oshqozonni zondlash va yuvish texnikasi tibbiyot sohasida eng muhim va dolzarb mavzulardan biridir. Ushbu texnikalar, ayniqsa, stomatologiya, gastroenterologiya va jarrohlik sohalarida keng qo‘llaniladi. Tibbiyot oliy ta’limida ushbu mavzularni samarali o‘rgatish, talabalar uchun nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishni ta’minlash zarur. Oshqozonni zondlash texnikasi va oshqozonni yuvish hamda zond bilan ovqatlantirish jarayonlarini o‘rgatishda an'anaviy dars metodlari kam samarali bo‘lishi mumkin, chunki bu jarayonlar maxsus amaliy ko‘nikmalarni talab qiladi. Shu sababli, so‘nggi yillarda interaktiv ta'lim metodlari tibbiy ta'limda keng qo‘llanilmoqda. Interaktiv metodlar, talabalar va o‘qituvchi o‘rtasidagi faol muloqot va tajriba almashinish orqali ta'limni samarali o‘tishini ta'minlaydi.

Simulyatsiya metodlari talabalarni real sharoitda ish tutish va xavfsiz muhitda amaliy ko‘nikmalarni o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Oshqozonni zondlash va oshqozonni yuvish kabi murakkab jarayonlar talabalar uchun xavfli bo‘lishi mumkin. Ammo simulyatorlar yordamida bu jarayonni takrorlash, ko‘nikmalarni rivojlantirish va xatoliklardan o‘rganish imkoniyatlari mavjud.

Simulyatsion modellar: Oshqozonni zondlash va oshqozonni yuvish bo‘yicha simulyatorlar yoki manekenlar, talabalar va o‘qituvchilar uchun real va xavfsiz sharoitlarda bu jarayonlarni amaliy tarzda o‘rganish imkonini beradi. Misol uchun, oshqozon zondlashni amalga oshirayotgan talabalar, virtual yoki fizik manekenlarda o‘zlarining qo‘l ko‘nikmalarini sinab ko‘rishlari mumkin.

Interaktiv simulyatsiyalar: Virtual ta'lim platformalarida oshqozonni zondlashning barcha bosqichlari, foydalanuvchi uchun qadam-baqadam ko‘rsatmalar orqali bajarilishi mumkin. Talabalar, jarayonni virtual muhitda sinab ko‘rib, tajriba orttirishi mumkin.

Virtual metodlar yordamida talabalar oshqozonni zondlash texnikasini ko‘rish, tushunish va o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Virtual trening platformalarida talabalar turli xil tibbiy jarayonlarni ko‘rishlari, interaktiv tarzda amaliyot qilishlari mumkin.

Virtual realiti (VR) va kengaytirilgan realiti (AR): Bu texnologiyalar yordamida talabalar virtual oshqozonni zondlashni o‘rganishlari mumkin. Masalan, VR yordamida talabalar virtual bemorning oshqozoniga kirib, zondni o‘rnatish va yuvish jarayonlarini bajarishlari mumkin. AR esa, talabalar real

ISSN 3030-3907

muhitda, ya'ni o‘quv auditoriyasida zondlashni amalga oshirayotgan paytda yordamchi ma'lumotlarni ko‘rsatishi mumkin.

Interaktiv tizimlar: O‘quvchilarga oshqozonni zondlash, yuvish yoki ovqatlantirish jarayonini simulyatsiya qilish imkonini beruvchi tizimlar. Ushbu tizimlarda talabalar turli xil holatlar bilan yuzlashib, masalan, oshqozon muammolarini aniqlash, zondni o‘rnatishda qiyinchiliklarni engish va boshqa tibbiy amaliyotlarni bajarishlari mumkin.

NATIJALAR. Interaktiv ta'lim metodlari, jumladan simulyatsiya va virtual metodlar, o‘qituvchining nazoratini va talabalar uchun amaliy mashqlarni osonlashtiradi. Bu metodlar yordamida talabalar nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan bog‘lashlari, jarayonlarni yanada chuqurroq tushunishlari mumkin.

Zondlash va ovqatlantirish texnikalari: Simulyatorlar yordamida talabalar og‘riqsiz va xavfsiz muhitda oshqozonni zondlashni, zarur va xavfli jarayonlarni o‘rganishlari mumkin. Bu jarayonlarning virtual muhitda ko‘rsatilishi talabalar uchun qattiq real muhitda yuzaga keladigan xavflarni minimallashtirishga yordam beradi.

Interaktiv ta'lim metodlarida o‘qituvchi talabalarni faqat nazariy bilimlar bilan ta'minlab qolmay, balki ular bilan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali bilimlarni mustahkamlashga imkon yaratadi. Bu o‘qituvchi uchun ta'limning har bir bosqichida talabalar bilan real vaqt rejimida muloqot qilish imkonini beradi.

MUHOKAMA. Simulyatsiya usullari tibbiy o‘qitishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu metodlar talabalar va mutaxassislarga real klinik vaziyatlarni virtual tarzda sinab ko‘rishga imkon beradi. Oshqozonni zondlash texnikasini o‘rganishda simulyatorlar yordamida quyidagi imtiyozlar mavjud:

- Rejalashtirilgan muhitda sinovdan o‘tkazish: Talabalar simulyatsion modellarda oshqozon zondlashining barcha bosqichlarini takrorlashlari mumkin, bu esa ularning texnikani mukammal o‘zlashtirishlariga yordam beradi.
- Noaniqliklardan himoya qilish: Amaliyotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatoliklar va noaniqliklarni oldini olish, chunki talabalar xatoliklarni simulyatsiya qilgan holatda o‘rganishadi.
- Bepul va xavfsiz o‘quv muhiti: Simulyatsiya tizimlari virtual muhitda talabalar uchun xavfsiz o‘quv muhitini taqdim etadi.

Virtual ta'lim metodlari — bu talabalar uchun simulyatsiyalarni va interaktiv mashqlarni o‘rganishga imkon beruvchi tizimlar. Oshqozon zondlash texnikasini virtual metodlar yordamida o‘rgatish:

ISSN 3030-3907

- Interaktiv ta'lim materiallari: Virtual modellar yordamida talabalar oshqozonni zondlash texnikasini o‘rganishlari mumkin. Bu metod orqali ular har bir bosqichni o‘z vaqtida to‘g‘ri bajarishga ko‘nikishadi.
- Onlayn video darslar va demonstratsiyalar: Virtual sinflarda, talabalar real sharoitlarda ko‘rinmagan yoki murakkab bo‘lgan protseduralarni ko‘rishlari mumkin.
- Virtual amaliyotlar: Virtual laboratoriyalar yordamida talabalar, masalan, oshqozon zondlashining texnik tomonlarini sinovdan o‘tkazishadi, shuningdek, bunday metodlar har bir talabaning o‘z tempida ishlashiga imkon beradi.

XULOSA. Simulyatsion va virtual metodlar interaktiv ta'limda tibbiyot o‘qitishining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanmoqda. Oshqozonni zondlash texnikasini o‘rganishda bu metodlar amaliy ko‘nikmalarni yanada samarali o‘rgatish, talabalar va mutaxassislarga xavfsiz, interaktiv va qiziqarli o‘quv jarayonini taqdim etishda katta rol o‘ynaydi. Bu metodlarni birgalikda qo‘llash, tibbiy ta'limni sifatli va zamonaviylashtirish uchun muhim bir qadam hisoblanadi. Shu bilan birga, bunday metodlarning samarali qo‘llanilishi o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ular o‘qish jarayonida motivatsiya qozonadilar. Natijada, interaktiv ta'lim usullari nafaqat akademik bilimlarni oshirish, balki talabalarning amaliy malakalarini ham rivojlantiradi, bu esa ularning kelajakdagi professionallik darajasini oshiradi. Umuman olganda, oshqozonni zondlash texnikasi, yuvish va zond bilan ovqatlantirishni o‘rgatishdagi interaktiv ta’lim metodlari, oliy ta'lim muassasalarida tibbiy bilimlarning sifatini yaxshilash va o‘quvchilarni yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlash uchun samarali vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

16. Turlier, G., & Good, T. (1995). Improving classroom teaching through interaction.
17. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
18. Malagari, S., & Shah, S. H. (2009). Endoscopic techniques for gastrointestinal procedures. Journal of Clinical Gastroenterology, 43(7), 575-580.
19. Hennessey, K., & Seppala, S. (2012). Gastrointestinal tube placement and management in critically ill patients. Nursing in Critical Care, 17(2), 84-89.
20. Malagari, S., & Shah, S. H. (2009). Endoscopic techniques for gastrointestinal procedures. Journal of Clinical Gastroenterology, 43(7), 575-580.
21. Hennessey, K., & Seppala, S. (2012). Gastrointestinal tube placement and management in critically ill patients. Nursing in Critical Care, 17(2), 84-89.

ISSN 3030-3907

22. Malagari, S., & Shah, S. H. (2009). Endoscopic techniques for gastrointestinal procedures. Journal of Clinical Gastroenterology, 43(7), 575-580.

23. Hennessey, K., & Seppala, S. (2012). Gastrointestinal tube placement and management in critically ill patients. Nursing in Critical Care, 17(2), 84-89.

24. Malagari, S., & Shah, S. H. (2009). Endoscopic techniques for gastrointestinal procedures. Journal of Clinical Gastroenterology, 43(7), 575-580.

25. Hennessey, K., & Seppala, S. (2012). Gastrointestinal tube placement and management in critically ill patients. Nursing in Critical Care, 17(2), 84-89.

ISSN 3030-3907

TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA YUQORI NAFAS YO‘LLARIDA YOT JISM TIQILGANDA GEYMLIX USULINI QO‘LLASH TEXNIKASI MAVZUSINI O‘QITISH METODIKASI

Xalimov Aziz Olim o'g'li

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti.

Buxoro, O‘zbekiston

E-mail: xalimov.aziz@bsmi.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida yuqori nafas yo‘llariga yot jism tiqilishi bilan bog‘liq favqulodda holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etish masalalari tahlil qilinadi. Xususan, Geymlix (Heimlich) usulini amaliyotda to‘g‘ri va samarali qo‘llash texnikasi, talabalarga ushbu muhim hayotiy ko‘nikmani o‘rgatish metodikasi chuqur yoritilgan. Maqolada simulyatsion treninglar, rolli o‘yinlar, klasterli mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish (case study) kabi zamonaviy interaktiv pedagogik yondashuvlardan foydalanish orqali talabalarda klinik fikrlashni shakllantirish va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, yuqori nafas yo‘llari obstruksiyasining klinik belgilari, uni aniqlash mezonlari va yordam ko‘rsatish algoritmlari nazariy va amaliy jihatdan o‘rgatilishi, o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishdagi ahamiyati ilmiy asoslangan tarzda tahlil etilgan. Ushbu maqola tibbiy ta’lim sifatini oshirish, talabalarning amaliy malakasini mustahkamlash hamda real klinik holatlarga tayyorlashda samarali metodik yo‘nalishni taklif etadik.

Kalit so’zlar: Geymlix usuli, birinchi yordam, tibbiy ta’lim, yuqori nafas yo‘llari, metodika, amaliy ko‘nikma, Support (BLS) va Advanced Life Support (ALS)

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы организации учебного процесса в высших медицинских учебных заведениях по оказанию первой помощи в чрезвычайных ситуациях, связанных с обструкцией верхних дыхательных путей инородным телом. В частности, подробно освещается методика правильного и эффективного применения метода Геймлиха (Heimlich) на практике, методика обучения студентов этому важному жизненному навыку. В статье особое внимание уделяется формированию у учащихся клинического мышления и развитию навыков быстрого принятия решений с помощью современных интерактивных педагогических подходов, таких как симуляционные тренинги, ролевые игры, кластерное обучение, анализ проблемных ситуаций (тематическое исследование). Также научно обоснованно проанализированы клинические признаки обструкции верхних дыхательных путей, критерии ее выявления и алгоритмы оказания помощи в теоретическом и практическом плане, ее значение для повышения

ISSN 3030-3907

профессиональной подготовки учащихся. В данной статье мы предлагаем эффективную методическую направленность по повышению качества медицинского образования, укреплению практической компетентности студентов и подготовке их к реальным клиническим случаям.

Ключевые слова: метод Gamlix, первая помощь, медицинское образование, верхние дыхательные пути, методология, практические навыки, поддержка (BLS) и расширенная поддержка жизни (ALS)

Annotation: this article analyzes the issues of organizing the educational process for the provision of first aid in emergency situations associated with foreign body congestion in the upper respiratory tract in medical institutions of Higher Education. In particular, the technique of the correct and effective application of the Geimlich (Heimlich) method in practice, the methodology for teaching students this important life skill, is deeply covered. The article pays special attention to the development of clinical thinking formation and rapid decision-making skills in students through the use of modern interactive pedagogical approaches such as simulation training, role-playing games, cluster training, problem Situation Analysis (case study). Also, the clinical signs of upper respiratory tract obstruction, the criteria for its identification and the fact that assistance algorithms are taught theoretically and practically, the importance of students in improving their professional training has been scientifically analyzed. This article proposed an effective methodological direction in improving the quality of medical education, strengthening the practical qualifications of students and preparing for real clinical cases.

Keywords: Geymlix method, first aid, medical education, upper respiratory tract, methodology, practical skills, Support (BLS), and Advanced Life Support(ALS

Kirish

Yuqori nafas yo‘llarining to‘silishi – inson hayotini jiddiy xavf ostida qoldiradigan, tezkor va samarali birinchi yordam choralari ko‘rilmasa, bir necha daqiqa ichida o‘limga olib kelishi mumkin bo‘lgan og‘ir favqulodda holatlardan biridir. Bunday holat, ayniqsa, yot jismning nafas yo‘llariga tiqilishi oqibatida yuzaga keladi va asosan bolalar, qariyalar hamda ovqatlanish vaqtida ehtiyotsizlik qilgan har qanday yoshdagi odamlarda kuzatiladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, har yili minglab odamlar aynan yuqori nafas yo‘llarining yot jism bilan to‘silishi tufayli hayotdan ko‘z yumadi, bu esa mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshiradi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, nafas yo‘llari tiqilishi holatida birinchi yordam ko‘rsatish bo‘yicha samarali texnikalarni egallash nafaqat tibbiyot xodimlari, balki keng jamoatchilik uchun ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa,

ISSN 3030-3907

Geymlix usuli (Heimlich maneuver) – bu kabi holatlarda universal va yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan muhim texnikadir. 1974-yilda amerikalik vrach Genri Geymlix tomonidan ishlab chiqilgan ushbu usul nafas yo‘lini tezda ochish, kislorod oqimini tiklash va bemorning hayotini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan mexanik manipulyatsiyani o‘z ichiga oladi. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida Geymlix usulini o‘rgatish – bo‘lajak shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda, ularning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashda va real hayotda yuz berishi mumkin bo‘lgan xavfli vaziyatlarga tayyorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur mavzu doirasida Geymlix usulining nazariy asoslari, amaliy tatbiqi, o‘qitish metodikasi hamda ushbu usulning tibbiy ta’limdagi o‘rni atroflicha tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Yuqori nafas yo‘llariga yot jism tiqilishining oldini olish va bunday holatlarda tezkor, samarali yordam ko‘rsatish texnikalarini o‘rgatish tibbiy ta’limda muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, Geymlix usuli (Heimlich maneuver) – hayot uchun xavfli bo‘lgan bo‘g‘ilish (asfiksiya) holatlarida birinchi yordam ko‘rsatishning eng samarali va tezkor usullaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Heimlich usuli 1974-yilda amerikalik vrach Genri Geymlix tomonidan taklif etilgan bo‘lib, yot jism nafas yo‘llarini to‘sib qo‘ygan bemorlarga tez yordam ko‘rsatish maqsadida ishlab chiqilgan. Uning samaradorligi ko‘plab klinik holatlar orqali isbotlangan va AQShning "Red Cross" va "American Heart Association" kabi tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan (Heimlich H. Pop Goes the Cafe Coronary, Emergency Medicine, 1974). So‘nggi yillarda tibbiy ta’limda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor kuchaygan. WHO va boshqa xalqaro tashkilotlar klinik ko‘nikmalarni o‘qitishda simulyatsion (maneken yordamida) o‘qitishni keng joriy qilishni tavsiya etgan. Geymlix usuli aynan shu yo‘nalishda mashq qilinadigan asosiy muhim texnikalardan biridir (WHO. Medical Education Global Standards, 2020).

O‘zbekiston Respublikasi SSV tasarrufidagi tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida birinchi yordam ko‘rsatish mavzusi asosiy o‘quv dasturlariga kiritilgan. Bunda Rossiya, AQSh, Buyuk Britaniya tajribalari, xususan Basic Life Support (BLS) va Advanced Life Support (ALS) modellariga asoslangan o‘quv dasturlari muhim o‘ringa ega.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida talabalarga favqulodda holatlarda tez va samarali yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Yuqori nafas yo‘llarining yot jism bilan to‘silib qolishi (bo‘g‘ilish) holatlari hayot uchun xavfli hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda Geymlix usuli (Heimlich maneuver) birinchi yordam sifatida qo‘llanadi. Ushbu mavzuni o‘qitishda Basic

ISSN 3030-3907

Life Support (BLS) va Advanced Life Support (ALS) modellarini qo‘llash samarali yondashuv hisoblanadi.

Advanced Life Support (ALS) modeli esa murakkabroq va keng qamrovli yordam choralarini o‘z ichiga oladi. ALS modeli quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- Bo‘g‘ilish holatini chuqur tahlil qilish: Aholining turli yosh guruhlarida (bolalar, kattalar, homilador ayollar) bo‘g‘ilishning xavf omillari va alomatlarini o‘rganish.
- Boshqa usullarni baholash: Agar Geymlix usuli samara bermasa, traxeotomiya, konikotomiya kabi invaziv choralarni o‘rganish.
- Qaror qabul qilish algoritmi: ALS algoritmlari asosida talabalarga qachon va qanday yordam usulini tanlashni o‘rgatish.
- Multidissipliner yondashuv: Hamshiralik, shoshilinch tibbiy yordam va reanimatsiya jamoalari bilan hamkorlikda simulyatsiyalar.

BLS va ALS modellarini integratsiyalashgan holda o‘rgatish orqali quyidagi natijalarga erishiladi:

- Talabalar real holatlarda bosim ostida to‘g‘ri va tez harakat qilishni o‘rganadilar.
- Klinika oldi (pre-klinik) va klinik darajadagi bilimlar uzviy bog‘lanadi.
- Ko‘nikmalar simulyatsion o‘quv qurilmalari va OSCE (Objective Structured Clinical Examination) uslubida baholanadi.

NATIJALAR. BLS (Basic Life Support - Asosiy Hayotga Qo‘llab-quvvatlash) va ALS (Advanced Life Support - Rivojlangan Hayotga Qo‘llab-quvvatlash) modellari orqali Geymlix usulini o‘rgatish, nafas olish yo‘llarida tiqilgan jismni chiqarish va bemorni saqlab qolish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu metodika, bemorlar uchun tezkor va samarali tibbiy yordamni taqdim etish imkonini yaratadi. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida, ayniqsa talabalar va amaliyotchi shifokorlar uchun ushbu metodikaning samarali o‘qitilishi, ularning professional mahoratini yuqori darajaga ko‘tarishga xizmat qiladi.

BLS va ALS metodikalarining o‘rganilishi, shuningdek, Geymlix usulining qamrab olgan ko‘plab amaliyotlarni tibbiyot olamida to‘liq va chuqur tushunishga olib keladi. Tibbiyot mutaxassislari, bu metodikalarga tayyorlanib, nafas olish yo‘llari to‘siqlari va hayotni saqlash bo‘yicha to‘g‘ri va samarali qarorlar qabul qilishga qodir bo‘ladilar. Bu esa bemorlarning hayotini saqlab qolish uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Shu bilan birga, ushbu usullarni o‘rganish, shifokorlar va talabalar orasida tibbiy yordamni tez va aniq ko‘rsatish ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon

ISSN 3030-3907

yaratadi. Darslarni ilmiy tarzda yoritish, ushbu metodikalar samaradorligini yanada oshiradi va jahon tibbiyotida yangiliklarni joriy etishga xizmat qiladi. Ularning o‘rganilishi nafaqat tibbiyot sohasidagi yuksalish, balki butun jamiyatning salomatligini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

MUHOKAMA. Yuqori nafas yo‘llarida yot jismning tiqilishi, asosan, nafas olishni to‘sadigan, hayotni xavf ostiga qo‘yadigan muammolarga olib keladi. Bu holatda tibbiy yordam ko‘rsatish muhim bo‘ladi. Geymlix usuli bu kabi holatlarda yordam berish uchun qo‘llaniladigan samarali texnikalardan biridir. Ushbu mavzuni o‘rgatishda o‘quvchilarga bu usulning ahamiyatini, ishlash prinsiplarini va qanday vaziyatlarda qo‘llashni tushuntirish zarur. Geymlix usuli orqali yuqori nafas yo‘llarida yotgan jismni chiqarish va bemorning nafas olish yo‘llarini to‘liq tiklash maqsad qilinadi. Usulning asosiy tamoyillari, xususan, oyoqlarni pastga qarab joylashtirish, boshni orqaga tortish va og‘ir jismni tepadan pastga surish, bu texnikaning samarali ishlashiga asos bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘qitishda bemorning xavfsizligini ta’minlash ham muhimdir. O‘quvchilarga nazariy jihatdan Geymlix usulini tushuntirgandan so‘ng, amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish zarur. O‘quvchilarga bu usulni qo‘llashni qo‘lga kiritish, bemorning holatini tahlil qilish va texnikani to‘g‘ri qo‘llashni ko‘rsatish orqali ularga nazariy bilimni amaliyotga tatbiq etishga yordam berish muhimdir. Ushbu texnikani qo‘llash jarayonida ehtiyotkorlikka alohida e’tibor berish lozim. O‘qitishda har bir qadamni batafsil tushuntirish, xato qilish ehtimollarini kamaytirish va tibbiy yordamning vaqtida ko‘rsatilishi muhim. Shuningdek, usulni qo‘llashda mavjud tibbiy moslamalar va vositalar haqida ham so‘z yuritish kerak. Yuqori nafas yo‘llarida jism tiqilishi holatida qo‘llaniladigan boshqa tibbiy texnikalar bilan solishtirib, Geymlix usulining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish zarur. Boshqa usullar bilan birgalikda Geymlix usulini qo‘llashning samaradorligi va xavfsizligini muhokama qilish foydali bo‘ladi. Ushbu mavzuni o‘rgatishda qiyinchiliklar ham bo‘lishi mumkin. Masalan, yuqori nafas yo‘llarida yotgan jismni chiqarishda noto‘g‘ri texnikaning ishlatilishi bemor uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Bunday holatlarni qanday oldini olish, o‘qitishda qaysi ko‘nikmalarni rivojlantirish kerakligi haqida gapirish lozim.

XULOSA. Bu mavzu, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarga yuqori nafas yo‘llarida tiqilib qolgan jismni chiqarish uchun qo‘llaniladigan "geymlik usuli"ni o‘rgatish texnikasini o‘z ichiga oladi. Ushbu usul, asosan, og‘ir nafas olish holatlarida, masalan, o‘pkaning yuqori nafas yo‘llariga yot jism kirganida qo‘llanadi. O‘qitish metodikasi talabalarga to‘g‘ri texnika va usullarni samarali o‘rgatishga qaratilgan. Bu o‘qitish jarayonida, teoriya va amaliyotning uyg‘unlashuvi muhim hisoblanadi. O‘qituvchilar talabalarga nazariy bilimlarni

ISSN 3030-3907

taqdim etib, shuningdek, amaliy mashqlarni o‘tish orqali, bu usulni samarali qo‘llashni o‘rgatadilar. Amaliy mashg‘ulotlar esa o‘qituvchining nazorati ostida amalga oshiriladi. Shuningdek, mavzu bo‘yicha o‘qitish jarayonida talabalarga xavfsizlik, shoshilinch yordam ko‘rsatishning asosiy tamoyillari va yot jismni chiqarish uchun zarur bo‘lgan holatlarda harakat qilish tartibi o‘rgatiladi. Talabalar nafas yo‘llaridagi yot jismni chiqarishning barcha bosqichlarini to‘g‘ri amalga oshirishni o‘rganadilar. Geymlix usulini o‘rgatish – nafaqat texnik mahorat, balki talabada tezkor qaror qabul qilish, psixologik barqarorlik va klinik fikrlashni shakllantirish vositasidir. Tibbiyot ta’limida ushbu texnikani amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida o‘qitish – yuqori malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Gadayev A.G. Umumiy amaliyot vrachlari uchun amaliy ko`nikmalar to`plami. Toshkent 2010.
2. Умумий амалиёт шифокори учун кулланма Ф.Г.Назиров, А.Г.Гадаев тахр. М.: ГЭОТАР-Медиа, 2007.
3. Общая врачебная практика Под ред.Ф.Г.Назирова, А.Г.Гадаева. М.: ГЭОТАР-Медиа, 2009.
4. Справочник врача общей практики. Дж.Мёрта. М.:Практика, 1998.
5. Сборник практических навыков для врачей общей практики. Гадаев А. и др. Т., 2010.
6. Терапевтический справочник Вашингтонского. Под ред. М.Вудли М.: Практика, 2000.
7. Dadamuxamedov A.N., Amonov Sh.E. Bolalar otorinolaringologiyasi. Toshkent, 2005.
8. Dadamuxamedov A.N. Bolalar otorinolaringologiyasi. Toshkent, 1999.
9. Otorinolaringologiya. S.A.Hasanov, N.X.Vohidov. Toshkent. Sanostandartnashriyoti. 2013.
10. Yuqori nafas yo’llari kasalliklari. Xasanov S.A., Vaxidov N.X. Toshkent. Voris-nasnriot. 2008.
11. Prakticheskaya otorinolaringologiya. Xodjaeva K.A. Tashkent 2005.
12. Amaliy otorinolaringologiya. Xodjaeva K.A. Tashkent. Iqtisod-molia 2005.
13. Amaliyotorinolaringologiya. XojaevaK.A. Tashkent. Iqtisod-molia 2006
14. Хронический гнойный средний отит у детей. XasanovS.A., OmonovSh.E. Toshkent. Uzb. Mil. Entsikl. 2010y.

ISSN 3030-3907

15. Maxsudov S.N., Shukurova G.R. Bolalar stomatologiyasi. Toshkent – 2008.

ISSN 3030-3907

WEB SAYTLAR ASOSIDA MASOFALI O‘QITISHNI TASHKIL ETISH

Voxidov Dilshod Alikulovich,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Normatova Maftuna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, 2-son Davolash fakulteti talabasi
Boboqulova Marjona
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, 2-son Davolash fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar: Voxidov Alikul Melitoshevich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, iqtisod fanlar nomzodi

Annotasiya. Ta`limda zamonaviy axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quv mashg’ulotlarining samaradorligini yanada oshiradi, o‘z navbatida o‘qituvchini ham, talabani ham ijodiy izlanishga undaydi. Bunda o‘qituvchiga o‘quv jarayonida tashkil etishda mavjud elektron adabiyotlardan, multimedia vositalaridan, o‘rgatuvchi dasturiy ta’minotlar va boshqa axborot texnologiyalaridan foydalanishi talabaga mavzuga ma’lumot olish imkoniyatini yaratadi. Hozirgi kunda har bir mutaxassisdan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini bilish va uni amaliyotga qo‘llay olish talab qilinmoqda.

Kalit so‘zlar. vertikal o‘quv guruhi, video konferensiyalar, yetakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalari, uzluksiz ta’lim, prinsipal ta’lim, geografik shartlar.

Аннотация. Применение современных информационных технологий в образовании еще больше повышает эффективность учебного занятия, в свою очередь, побуждая и учителя, и ученика к творческому поиску. При этом использование преподавателем доступной электронной литературы, мультимедийных средств, обучающего программного обеспечения и других информационных технологий в организации учебного процесса позволяет обучающемуся получить доступ к предмету. В настоящее время от каждого специалиста требуется знать информационные технологии и коммуникации и уметь применять их на практике.

Ключевые слова. вертикальная учебная группа, видеоконференции, ведущие университеты, академии, институты, учебные центры, учреждения переподготовки, непрерывное образование, принципиальное образование, географические условия.

Annotation. The use of modern information technologies in education further increases the effectiveness of training sessions, in turn, encourages both the teacher and the student to creative research. In this case, the teacher's use of available electronic literature, multimedia tools, educational software and other information technologies in the organization of the educational process creates an opportunity

ISSN 3030-3907

for the student to obtain information on the subject. Nowadays, every specialist is required to know information technologies and communications and be able to apply them in practice.

Keywords: vertical training group, video conferences, leading universities, academies, institutes, training centers, personnel retraining institutions, continuing education, basic education, geographical conditions.

Kirish

Zamonaviy bilimlar sari yangicha yo‘llarni o‘rganish, ta’lim olish jarayonini takomillashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish – bugungi kunning haqli ravishdagi talabiga aylandi. Bugungi kunda mamlakatimizda axborotlashtirish va ta’limda axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT)ni qo‘llash muammolariga alohida e’tibor qaratilmoqda**.**

Adabiyotlar taxlili va metodologiya. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayoniga kirib kelishi an’anaviy o‘qitish usullariga qo‘shimcha ravishda yangi o‘qitish shakli - masofaviy o‘qitish yaratilishiga omil bo‘ldi.

Masofaviy ta’limda talaba va o‘qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o‘zaro maxsus yaratilgan o‘quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo‘ladilar. Internet texnologiyasini qo‘llashga asoslangan masofaviy o‘qitish jahon axborot ta’lim tarmog‘iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o‘zaro aloqa tamoyiliga ega bo‘lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi.

Masofaviy o‘qitish barcha ta’lim olish istagi bo‘lganlarga o‘z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o‘qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o‘quv-uslubiy materiallarni o‘zlashtiradi, nazoratdan o‘tadi, o‘qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertikal o‘quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo‘ladi.

Ma’lum sabablarga ko‘ra, ta’lim muassasalarining kunduzgi bo‘limlarida tahsil olish imkoniyati bo‘lmagan, masalan, sog‘ligi taqoza etmaydigan, mutaxassicligini o‘zgartirish niyati bo‘lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo‘lgan kishilar uchun masofaviy o‘qitish qulay o‘qitish shakli hisoblanadi.

Masofaviy o‘qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya’ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog‘liq. Masalan, an’anaviy bosma usuliga asoslangan o‘qitish vositalari (o‘quv qo‘llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma’lum vaqt orasida o‘zaro muloqotda bo‘lishga, elektron pochta to‘g‘ri va teskari aloqa o‘rnatishga, ya’ni xabarlarni jo‘natish va qabul qilishga mo‘ljallangan. Oldindan

ISSN 3030-3907

tasmaga muhrlangan videoma’ruzalar talabalarga ma’ruzalarni tinglash va ko‘rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o‘zaro teskari aloqa orqali o‘qitish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ta’lim jarayonida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta’riflarni keltirib o‘tamiz.

Masofaviy o‘qitish– eng yaxshi an’anaviy va innovatsion metodlar, o‘qitish vositalari va formalarini o‘z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta’lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim formasidir.

Masofaviy o‘qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta’lim tizimidir. U ta’lim oluvchiga ma’lum standartlar va ta’lim qonun-qoidalari asosida o‘quv shart-sharoitlari va o‘qituvchi bilan muloqotni ta’minlab berib, o‘quvchidan ko‘proq mustaqil ravishda shug‘ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o‘qish jarayoni ta’lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo‘lishiga bog‘liq emas.

Masofaviy ta’lim– masofadan turib o‘quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o‘qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta’lim oluvchilarga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi ta’lim majmuaidir.

Masofaviy o‘qitish tizimi – masofaviy o‘qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o‘qitish tizimi. Barcha ta’lim tizimlari singari masofaviy o‘qitish tizimi o‘zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Masofaviy ta’limni tashkil etish uchun quyidagi sharoit va imkoniyatlar masofaviy o‘qitishga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

-Ta’lim olishda yangi imkoniyatlar (ta’lim olishning arzonligi, vaqt va joyga bog‘liqmasligi va boshqalar).

- Ta’lim maskanlariga talaba qabul qilish sonining cheklanganligi.
- Ta’lim olishni xohlovchilar sonining oshishi.
- Sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.
- Xalqaro integratsiyaning kuchayishi.

Masofaviy o‘qitishning ta’lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo‘lib, ular quyidagi qo‘llanish shartlari bilan farqlanadi:

- geografik shartlar (masalan, mamlakat territoriyasi, markazdan uzoqlikda joylashuvi, iqlimi);
- mamlakatning axborotlashuvi va kompyuterlashtirish umumiy darajasi;
- kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi;
- ta’lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo‘llanish darajasi;

ISSN 3030-3907

- ta’limda qo‘llaniladigan an’analari;

- masofaviy o‘qitish tizimi uchun ilmiy pedagog kadrlar mavjudligi va ularning salohiyati va boshqalar.

Umuman olganda masofaviy ta’limning maqsadiga quyidagilar kiradi:

- Mamlakat miqyosidagi barcha hududlar va chet eldagi barcha o‘quvchilar, talabalar, ta’lim olishni xohlovchilarga birdek ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish.

- Yetakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalari, malaka oshirish institutlari va boshqa ta’lim muassasalarining ilmiy va ta’lim berish potensiallaridan foydalanish evaziga ta’lim berishning sifat darajasini oshirish.

- Asosiy ta’lim va asosiy ish faoliyati bilan parallel ravishda qo‘shimcha ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish.

- Ta’lim oluvchilarni ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va ta’lim muhitini kengaytirish.

- Uzluksiz ta’lim imkoniyatlarini yaratish.

- Ta’lim sifatini saqlagan holda yangi prinsipal ta’lim darajasini ta’minlash.

Muhokama. O‘quv muassasalari uchun web saytni ishlab chiqish va ushbu masala zamirida ta`lim yo`nalishining mavjud mutaxassisliklar bo`yicha adabiyotlar bilan ta`minlanganlik darajasini yanada boyitish, shuningdek mavjud adabiyotlarni bitta bazada shakllanitirishni rejalash. Mazkur maqsadga erishilishi quyidagi vazifalarning qo‘yilishi va hal etilishini nazarda tutadi:

- Dunyo bo‘ylab internetdan foydalanish xizmati imkoniyatlarining kengligi;

- Web-saytlardan foydalanishning oddiyligi;

- Web-texnologiyalarning qulayligi;

- Real vaqt masshtabida axborotlarga bo‘lgan talablar;

- Muassasa va xususiy shaxslarning o‘zlari to‘g‘risidagi axborotlarni internetga joylashtirishga intilishi;

- tarmoq ma’lumotlar bazasida global mashstabdagi ixtiyoriy ma’lumotlarni to‘plash.

Xulosa. Ushbu maqolada xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy ta’lim elementlarini ta’lim muassasalariga joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Oliy ta’lim tizimida bu kompleksni joriy qilish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

ADABIYOTLAR

1. Вохидов А. М. и др. Разработка Графическим Пользовательским Интерфейсом-Программ В Пакете Tkinter С Использованием

ISSN 3030-3907

Современных Педагогических Технологий В Области Медицины //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 30. – С. 181-184.
2. Vohidov D., Maxmudova Z., Sayfullayev R. Tibbiyot yo‘nalishida zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo ‘llab tkinter paketida gui dasturlarini tuzish //Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 31-35.
3. Voxidov A. M., Malikov M. R., Voxidov D. A. Tibbiyotda differensial tenglamalarni farmatsiya sanoatida qo‘lanishi //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 1096-1102.
4. Voxidov A. M. et al. Tibbiy-biologik tadqiqotlarda statistik tahlil jarayonlari //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 287-293.
5. Melitoshevich V. A., Alikulovich V. D. Main Issues of Statistical Analysis in Medical Research //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 13. – С. 129-132.
6. Вохидов А., Мисюряев А. Многофункциональные фторактивные нанопленки: актуальные проблемы //Наноиндустрия. – 2014. – №. 5. – С. 40-45.
7. Vohidov A. Structural semantic characteristic of lexis in" Ghiyas-ul-lughot : дис. – Dissertation abstract of Cand. Sci. in Phil./A. Vohidov.-Dushanbe, 1975.-33.
8. Abdullayeva S., Maxmudova Z., Xujakulov S. Tibbiy ta’limda vr texnologiya //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 1140-1144.
9. Вохидова Д. А. и др. Роль HIF-1α в развитие патогенеза ишемического повреждения головного мозга //Проблемы биологии и медицины. – 2020. – №. 1. – С. 214-218.
10. Melitoshevich V. A., Alikulovich V. D. Development by a Graphic User Interface-Programs in the Tkinter Package Using Modern Pedagogical Technologies in the Field of Medicine //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 32. – С. 13-17.
11. Alikulovich V. D., Melitoshevich V. A. Use of Interactive and Modern Pedagogical Software in the Process of Freelancing Sites in Medicine //Eurasian Scientific Herald. – 2023. – Т. 17. – С. 1-6.
12. Voxidov A. et al. Tibbiyot universiteti pediatriya fakulteti talabalari uchun ta'limda ishlab chiqish amaliyotining kontekst sifatida ta'lim //Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – Т. 3. – №. 2 Part 4. – С. 150-154.

ISSN 3030-3907

TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

M.U.Torayev
O‘zbekiston Respublikasi Andijon Davlat Pedagogika Instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Fizika va Texnologik ta'lim kafedrasi dotsenti
M.M.Xurboyeva
Shaxrixon tumani 12-umumta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Texnologiya fani zamonaviy ta'lim tizimida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu fan o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni tushunish, ulardan samarali foydalanish va innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda yordam beradi. Biroq, texnologiya fanini o‘qitish jarayoni doimiy ravishda yangilanib borishi va innovatsion yondashuvlar bilan boyitilishi zarur. Ushbu maqolada texnologiya fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan innovatsion yondashuvlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, innovatsion texnologiyalar, dars, materiallar, zamonaviy yondashuvlar, guruhli faoliyatlar, muhokama, interaktiv metodlar.

Аннотация: Технологии играют важную роль в современной системе образования. Этот предмет помогает студентам понимать современные технологии, эффективно их использовать и развивать навыки инновационного мышления. Однако процесс обучения технологиям необходимо постоянно обновлять и обогащать инновационными подходами. В этой статье представлена информация об инновационных подходах, используемых в обучении технологиям.

Ключевые слова: технологии, инновационные технологии, урок, материалы, современные подходы, групповые занятия, обсуждение, интерактивные методы.

Abstract: Technology plays an important role in the modern education system. This subject helps students understand modern technologies, use them effectively, and develop innovative thinking skills. However, the process of teaching technology needs to be constantly updated and enriched with innovative approaches. This article provides information on innovative approaches used in teaching technology.

Keywords: technology, innovative technologies, lesson, materials, modern approaches, group activities, discussion, interactive methods.

Kirish

ISSN 3030-3907

Texnologiya fani zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, u o‘quvchilarga muhandislik, informatika, elektronika va boshqa texnik sohalarda bilim va ko‘nikmalarni berishga qaratilgan. Ushbu fan o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Texnologiya fani o‘quv jarayonida interaktiv metodlar, loyiha asosidagi o‘qitish va gamifikatsiya kabi innovatsion yondashuvlardan foydalanishni talab etadi. Bu esa o‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning motivatsiyasini oshiradi. Texnologiya fani o‘quvchilarga texnologik jarayonlar, asbob-uskunalar va dasturlar bilan tanishishga yordam beradi. Bu fan o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, o‘quvchilar kompyuter dasturlarini ishlab chiqish, robototexnika, elektronika, mexanika va boshqa ko‘plab sohalarda amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar. Texnologiya fanining o‘ziga xosligi shundaki, u doimo rivojlanib boradi va yangi innovatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli, o‘quvchilarning yangiliklarga ochiqligi va o‘z bilimlarini doimiy ravishda yangilab borishlari zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar, avvalo, o‘quvchilarning qiziqishini oshirishga qaratilgan. O‘quv jarayonida interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilar darsga faol jalb qilinadi. Masalan, o‘quvchilarga dars davomida turli xil multimedia materiallar, videolar va animatsiyalar ko‘rsatish orqali ularning e'tiborini saqlab qolish mumkin. Bunday materiallar o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va mavzuni yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi. Interaktiv metodlar, masalan, guruhli muhokama, rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishadi va bir-birlaridan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va bilimlarni amaliyotda qo‘llashga yordam beradi. O‘quvchilar bir-birlari bilan muloqot qilish, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Texnologiya fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni, masalan, multimedia vositalarini, onlayn platformalarni va simulyatsiya dasturlarini qo‘llash, o‘quvchilarga yanada kengroq va chuqurroq bilim olish imkoniyatini beradi. Shuningdek, texnologiya fani o‘quvchilarga jamoada ishlash, kommunikatsiya va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu fan orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishadi, bu esa ularni kelajakdagi kasb tanlash jarayonida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi. Texnologiya fani, shuningdek, o‘quvchilarning raqobatbardoshligini

ISSN 3030-3907

oshirish va ularni zamonaviy ish bozorida talabga ega mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Texnologiya fani darslarida zamonaviy texnologiyalar, masalan, ta'lim platformalari, mobil ilovalar va virtual haqiqat texnologiyalari, o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. O‘quvchilar ta'lim jarayonida interaktiv dasturlar orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Bunday vositalar yordamida o‘quvchilar darsda olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Masalan, virtual haqiqat texnologiyalari yordamida o‘quvchilar texnologik jarayonlarni real hayotda ko‘rishlari va o‘z ko‘zlari bilan tajriba qilishlari mumkin. Blended learning yondashuvi ta'lim jarayonini onlayn va an'anaviy darslar bilan birlashtiradi. Bu usul o‘quvchilarga o‘z vaqtida va o‘z tezligida o‘rganish imkonini beradi. Ushbu yondashuvda o‘quvchilar darslarni internet orqali o‘zlashtirishlari, keyinchalik esa o‘qituvchi bilan yuzma-yuz uchrashuvlarda amaliy mashg‘ulotlarda ishtirok etishlari mumkin. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va o‘z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatlarini oshiradi. Blended learning o‘quvchilarga o‘z vaqtini boshqarish, o‘z-o‘zini o‘qitish va o‘z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirish imkoniyatini beradi. Loyihaga asoslangan o‘qitish yondashuvi o‘quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilishga yordam beradi. O‘quvchilar loyiha ustida ishlash jarayonida jamoaviy ish, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Ushbu usul o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi va ularni kelajakda ishga joylashish uchun tayyorlaydi. Loyiha asosida o‘qitish jarayonida o‘quvchilar o‘zaro hamkorlik qilish, fikr almashish va bir-birlaridan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini oshiradi va jamoaviy ishda muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.[1]

Bugungi kunda kiberxavfsizlik muammolari dolzarb ahamiyatga ega. Texnologiya fanini o‘qitishda kiberxavfsizlikni o‘rgatish o‘quvchilarga axborot texnologiyalaridan xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini berishga yordam beradi. O‘quvchilarga internet xavflarini, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va onlayn muhitda xavfsizlikni ta'minlash haqida ma'lumot berish zarur. Bu, o‘z navbatida, ularning raqamli savodxonligini oshiradi. Kiberxavfsizlikni o‘rgatish jarayonida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish, simulyatsiyalar va real hayotdagi vaziyatlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarning bu boradagi bilimlarini mustahkamlash mumkin.[2]

Har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlari va o‘rganish uslublari mavjud. Innovatsion yondashuvlar orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning individual

ISSN 3030-3907

ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishlari mumkin. Masalan, ba'zi o‘quvchilar vizual materiallar orqali yaxshiroq o‘rganishsa, boshqalari amaliy mashg‘ulotlar orqali ko‘proq muvaffaqiyatga erishadilar. O‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘ziga xosligini hisobga olib, darslarni shunday tashkil etishlari kerakki, har bir o‘quvchi o‘z imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalana olsin. Bu jarayonda o‘qituvchilar o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini tahlil qilib, darslarni shunday rejalashtirishlari lozimki, har bir o‘quvchi o‘ziga mos keladigan yondashuvni topa olsin. Gamifikatsiya – bu o‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini qo‘shish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish usulidir. O‘quvchilarga o‘yinlar orqali bilimlarni o‘zlashtirish, mukofotlar va baholar orqali rag‘batlantirish ularning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Gamifikatsiya yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rishlari va o‘zaro raqobatni his qilishlari mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash qobiliyatini rivojlantiradi va o‘z maqsadlariga erishish uchun motivatsiya beradi.[3]

Texnologiya fanini o‘qitishda maktab va sanoat o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Sanoat vakillari o‘quvchilarga real hayotdagi tajribalarini ulashishlari, muammolarni hal qilishda yordam berishlari va ularni kelajakdagi ish joylari haqida ma'lumot berishlari mumkin. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshiradi va ularni ish bozoriga tayyorlashda yordam beradi. Maktab va sanoat o‘rtasidagi hamkorlik o‘quvchilarga amaliy tajribalar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Bu hamkorlik orqali o‘quvchilar o‘zlarining kelajakdagi kasblariga tayyorgarlik ko‘rishlari va haqiqiy ish muhitida o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rishlari mumkin. Innovatsion yondashuvlar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun o‘qituvchilarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalar va ta'lim metodologiyalarini o‘zlashtirishlari, shuningdek, o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan darslarni ishlab chiqishlari kerak. O‘qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirish kurslari va seminarlar orqali qo‘llab-quvvatlash zarur. O‘qituvchilar o‘z bilimlarini yangilab borishlari, yangi ta'lim texnologiyalarini o‘zlashtirishlari va o‘quvchilarga innovatsion yondashuvlarni qo‘llashda yordam berishlari lozim. Bu jarayonda o‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashishi, bir-biridan o‘rganishi va yangi g‘oyalarni amalga oshirishda birgalikda ishlashi muhimdir.[4]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol

ISSN 3030-3907

o‘ynaydi. Interaktiv metodlar, texnologik vositalardan foydalanish, blended learning, loyihaga asoslangan o‘qitish va boshqa innovatsion yondashuvlar orqali o‘qituvchilar o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishlari mumkin. O‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, gamifikatsiya va maktab-sanoat hamkorligi kabi yondashuvlar esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Innovatsion yondashuvlar yordamida ta'lim jarayonini yangilash va takomillashtirish orqali o‘quvchilarni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga tayyorlash mumkin. O‘qituvchilar va ta'lim muassasalari ushbu yondashuvlarni amalga oshirish orqali o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov, O. (2021). "Innovatsion ta'lim texnologiyalari: nazariy va amaliy asoslar". Toshkent: Fan va texnologiya.

2. Mamatov, S. (2020). "Ta'limda interaktiv metodlar: o‘quv jarayonini samarali tashkil etish". Samarqand: Samarqand davlat universiteti.

3. Qodirov, A. (2022). "Zamonaviy ta'limda gamifikatsiya: nazariy asoslar va amaliyot". Buxoro: Buxoro davlat universiteti.

4. Rahimov, B. (2019). "Loyihaga asoslangan o‘qitish: nazariy va amaliy yondashuvlar". Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti.

5. Xudoyberdiyev, N. (2021). "Kiberxavfsizlik ta'limi: yangi yondashuvlar va metodlar". Toshkent: O‘zbekiston davlat texnika universiteti.

6. Tursunov, D. (2020). "Blended learning: zamonaviy ta'limda yangi yondashuvlar". Andijon: Andijon davlat universiteti.

7. Mirzaeva, G. (2022). "Interaktiv ta'lim: nazariy asoslar va amaliyot". Farg‘ona: Farg‘ona davlat universiteti.

8. Soliyev, U. (2021). "O‘qitishda innovatsion yondashuvlar: tajribalar va natijalar". Qarshi: Qarshi davlat universiteti.

9. Anvarov, R. (2020). "Texnologiya ta'limida zamonaviy metodlar: o‘quv jarayonini takomillashtirish". Nukus: Qoraqalpog‘iston davlat universiteti.

10. Isroilov, A. (2021). "O‘zbekistonda ta'limda innovatsiyalar: muammolar va yechimlar". Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.

ISSN 3030-3907

UMUMINSONIY QADRIYATLARNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Navruzova Muyassar G‘aybullayevna
Osiyo xalqaro universiteti f.f.f doktori, (PhD), dotsent
E-mail: zmansurova74@gmail.com
Mansurova Zarina Nurmatovna
Osiyo xalqaro universiteti Pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
E-mail: zmansurova74@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga oid ba'zi dalillar va ularning nazariy asoslarini keltiradi. Yoshlarni erkin fikrlashga o’rgatish, hayot mazmunini tushunib olishiga ko’maklashish, o’z-o’zini idora va nazorat qila ola bilishini, shakllantirish uchun zarur bo’lgan omillar ko’rsatilgan. milliy va umuminsoniy qadriyatlar jamiyat rivojiga va uning negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi qudratli omildir.

Kalit so’zlar: Qadriyat, vatanparvarlik, mustaqillik,ijtimoiy, tanazzul, adolat, mezon, bo‘hron, tamaddun, genofond,adolat, nisbiylik.

Аннотация: В этой статье автор приводит некоторые факты и теоретические основы воспитания нашей молодежи в духе приверженности нашим национальным и общечеловеческим ценностям. Указаны факторы, необходимые для того, чтобы научить молодых людей мыслить свободно, способствовать пониманию смысла жизни, формировать способность к самоконтролю и контролю. национальные и общечеловеческие ценности-мощный фактор, способствующий развитию общества и его фундамента, успехов, достигнутых в историческом развитии нации, из поколения в поколение.

Ключевые слова: ценность, патриотизм,независимость, социальное, упадок, справедливость, критерий, буря, тамаддун,генофонд, справедливость, относительность.

Annotation: in this article, the author cites some arguments and their theoretical foundations regarding the upbringing of our youth in the spirit of loyalty to our national and universal values. The factors necessary to train young people to think freely, to promote their understanding of the meaning of life, to establish that they are able to control and control themselves. national and universal values are a powerful factor in the development of society and its basis, the achievement of the historical progress of the nation from generation to generation.

Keywords: value, patriotism, independence,social, degradation, Justice, criterion, bull, tamaddun, gene pool,Justice, relativity.

ISSN 3030-3907

Kirish

Umuminsoniy qadriyatlar – jahondagi barcha odamlar, xalqlar va davlatlar uchun umumiy qadrlash mezoni hosoblangan, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar tizimini ifoda etadigan tushuncha. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko‘lamli va serqirra tushnchadir. U ozodlik, erkinlik, tinchlik, baxt-saodat kabi umumijtimoiy ma’no-mazmun kasb etadigan tushunchalardangina iborat emas. Uni faqat madaniy boyliklar sifatida tushunishni ham maqsadga muvofiq, deb bo‘lmaydi. Shu bilan birga, muayyan milliy, etnik va boshqa xususiy qadriyat tizimlari ham umuminsoniy qadriyatlarning o‘rnini bosa olmaydi. Umuminsoniy qadriyatlar tizimi va uning namoyon bo‘lish shakllarini tahlil qilish, aslida, tarkibiy qismlari bir-biri bilan dialektik tarzda bog‘langan umumiy tizimni, uning asosiy qismlari o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq qilishdir. Taraqqiyot, innovatsiyalarni yoyishga qaratilgan zamonaviy qadriyatlar yoyilishi sharoitida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni unutmaslik muhim. Ana shunday qadriyatlardan biri vatanparvarlikdir. Vatanparvarlik shaxsning ma’naviy-axloqiy qadriyati sifatida doimo o‘z ifodasini topadi. Qadriyatlarga qarab maqsadlar belgilanadi va ularga erishish vositalari belgilanadi. Bu borada yosh avlodning vatanparvarlik ongini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Materiallar va usullar. Asosiy yondashuvlar sifatida institutsional va tarkibiy-funksional yondashuvlardan foydalanildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ushbu tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: empirik tadqiqotlar nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko‘rishga imkon beradi. Umuminsoniy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga doir tadqiqotlarda, empirik metod orqal so‘rovnomalar va intervyular o‘tkaziladi, yoshlarning qadriyatlar tizimi va ular qanday tarbiyalashga tayyorliklari haqida ma'lumotlar yig‘iladi. Monitoring va kuzatuvlar o‘tkaziladi, yoshlar bilan ishlovchi tarbiyachilar, o‘qituvchilar va ota-onalar tomonidan amalga oshiriladigan tarbiyaviy faoliyatlar baholanadi. Anketalar va testlar yordamida yoshlarning axloqiy va ijtimoiy savodxonligi o‘lchanadi. I.G.Seninning qadriyatlar yo’nalishlari savolnomasidan ham foydalanildi.

NATIJALAR. Umuminsoniy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida yashayotgan barcha kishilar uchun umumiy bo‘lgan tizimni hosil qiladi, boshqa tamoyillar bilan uzluksiz aloqada, zaruriy bog‘lanishda namoyon bo‘ladi. Umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo‘lish shakllari nisbiy xususiyatga ega, ammo bu nisbiylik doimo ham ko‘zga tashlanavermaydi. Tarixiy rivojlanish jarayonida (obyektiv tarzda), jamiyat va kishilarning talab, ehtiyojlari natijasida (subyektiv tarzda) umuminsoniy qadriyatlar shakllaridan goh biri, goh boshqasi umumiy tizimning markaziga, hayotning oldingi pog‘onasiga chiqib oladi,

ISSN 3030-3907

masalan, yurtda dushmanlar hukmronlik qilganida – ozodlik, mustaqillik; yurt mustaqilligiga xavf tug‘ilganida – vatanparvarlik; milliy o‘zlikni anglash va milliy uyg‘onish davrida – tarixiy va madaniy merosni o‘rganishga intilish; urush sharoitida tinchlik va barqarorlikka ehtiyoj kuchayib boradi. Shu tariqa ijtimoiy jarayonlar rivojida umuminsoniy qadriyatlarning ma’lum bir shaklining dolzarbligi, boshqasining zarurligini bir qadar xiralashtirganday, ularning ayrimlari ideal holatga yaqinlashgandek, boshqalari esa ulardan uzoqlashgandek bo‘lib tuyuladi. Yoshlar tarbiyasi jamiyatning kelajagini belgilaydigan eng muhim omillardan biridir. Umuminsoniy qadriyatlar esa bu jarayonda asosiy yo‘riqnomalar bo‘lib xizmat qiladi. Yoshlarga umuminsoniy qadriyatlarni o‘rgatish, ularni axloqiy me'yorlar, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga, mas'uliyatli va adolatli fuqarolar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi (Karimov, I. (1997). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Nashriyoti)[1].

MUHOKAMA. Bugungi kunda umuminsoniy qadriyatlar barcha uchun umumiy mezon bo‘lib qolganining bir qator sabablari bor: a) sayyoramizning dunyodagi barcha kishilar uchun, ularning irqi, millati, e’tiqodi va boshqa tabiiy-tarixiy hamda ijtimoiy belgilaridan qat’i nazar, eng umumiy va shu bilan birga, cheksiz koinotdagi mo‘jazgina makon ekani tobora yaqqolroq his etila boshlangani; b) dunyodagi ijtimoiy xilma-xillik, siyosiy va mafkuraviy rang-baranglik, turli xil ehtiyoj, qiziqish, maqsad, intilish, xatti-harakat, faoliyatning taraqqiyot talablariga mos keladigan eng umumiy ma’naviy mezonlariga muhtojlik sezila boshlangani; v) dahshatli qirg‘in qurollari, yadro urushi, ekologik bo‘hron va ma’naviy tanazzul kabi tahdidlar bilan yuzma-yuz kelish natijasida insoniyat kelajagi, sayyoramiz aholisi umumiy genofondining taqdiri xavf ostida qolgani, insoniyatning hozirgi avlodi mansub bo‘lgan tamaddunlarni saqlab qolish o‘ta muhim ahamiyat kasb etayotgani; g) kishilarning qanday ijtimoiy tuzum va davlatlarda yashashidan qat’i nazar, hamma joyda eng asosiy maqsad inson, uning hayoti, manfaatlari, haq-huquq va erkinliklari, odamlar uchun mazmunli, to‘kin va farovon turmushni ta’minlashda butun jahon ahamiyatiga molik universal texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari hamda ularni barcha harakatlarda qo‘llash imkoniyatlarining umumiyligi, bu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish uchun umumsayyoraviy hamkorlik zarurligi tobora ko‘proq anglab olinayotgani bilan izohlanadi. Umuminsoniy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini tushunish uchun avvalo ularning mazmunini chuqur o‘rganish zarur. Umuminsoniy qadriyatlar global miqyosda qabul qilingan inson huquqlari, adolat, tenglik va erkinlikka asoslanadi. Yoshlar uchun bu qadriyatlarni ongli ravishda singdirish orqali ularga jamiyatda o‘z o‘rnini topish, shaxs sifatida rivojlanish va barqaror ijtimoiy tizimni yaratish imkoniyati beriladi(Shodiev, M. (2016). Inson huquqlari

ISSN 3030-3907

va yoshlar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi)[2].Odamlar o‘zlari va atrofdagilarning amaliy faoliyatini, biror sohadagi xatti-harakatlarini umuminsoniy qadriyatlar mezoni bilan solishtirib, mulohaza yuritadi, xulosa chiqaradi, baho beradi. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi talablari har bir tarixiy birlikning tarixiy rivojlanish mahsuli ekani, barcha insonlarning manfaatlari, haq-huquqlari, orzu-umidlari hisobga olinishi darkorligini ko‘rsatadi. Bu insonning tabiiy-tarixiy haq-huquqlari uning yashash va umr kechirish huquqining tabiiyligi va muqaddasligini to‘liq e’tirof qilinishini anglatadi. Ana shu sababga ko‘ra, istiqlol yillarida mamlakatimizda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyiliga nihoyatda katta e’tibor berilmoqda. Bu qadriyatlar jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va tub o‘zgarishlarning asosiy mezoniga aylangani bejiz emas. Umuminsoniy qadriyatlar yoshlar tarbiyasida to‘g‘ri axloqiy xulq-atvor, ijtimoiy javobgarlik va ma'naviy ongni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Yoshlar, o‘zaro munosabatlarda hurmat, adolat va inson huquqlariga e'tibor berish orqali jamiyatda o‘zaro yordam va hamjihatlikni rivojlantiradi. Bu qadriyatlar yoshlarning o‘zlarini va atrofdagi insonlarni hurmat qilish, ijtimoiy mas'uliyatni his qilish, o‘z faoliyatlarini barqaror va etik me'yorlarga muvofiq amalga oshirishga yordam beradi(Xudoyberdiyev, O. (2018). Yoshlar tarbiyasida axloqiy qadriyatlarning o‘rni. Toshkent: Yoshlar nashriyoti) [3]. Misol uchun, tenglikka asoslangan qadriyatlar yoshlarni jinsiy, irqiy va diniy tenglikni qadrlashga o‘rgatadi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda diskriminatsiya va ksenofobiya kabi salbiy hodisalarning oldini olishga yordam beradi. Yoshlar orasida hurmat, adolat va tenglik qadriyatlarini singdirish orqali ularning boshqalarga nisbatan achchiqlik yoki nafrat tuyg‘ularini kamaytirish mumkin(Zohidov, A. (2020). Yoshlarning axloqiy rivojlanishi. Toshkent: O‘zbekiston universiteti nashriyoti)[4].

XULOSA. Umuminsoniy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlar va usullar ilmiy ishning har bir bosqichida muhim ahamiyatga ega. Har bir metodning o‘ziga xos xususiyatlari va maqsadi bor bo‘lib, ular birgalikda ilmiy tadqiqotning chuqurligi va sifatini ta'minlaydi. Ushbu metodlar yordamida yoshlar tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni, ahamiyati va ularni rivojlantirish yo‘llari aniq va samarali tarzda tahlil qilinadi. O‘zbekistonda yangi jamiyatni barpo etish eng avvalo odamlarimizda bugungi murakkab zamonda turli yo‘llar bilan kirib kelayotgan yot g‘oyalarga qarshi sog‘lom ma’naviy immunitetni hamda ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizga suyanishni talab etadi.(O.Davlatov. “Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati” “Ilm-Ziyo-Zakovat” 2023) [5].

ISSN 3030-3907

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Karimov, I. (1997). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Nashriyoti.
2. Shodiev, M. (2016). Inson huquqlari va yoshlar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
3. Xudoyberdiyev, O. (2018). Yoshlar tarbiyasida axloqiy qadriyatlarning o‘rni. Toshkent: Yoshlar nashriyoti.
4. Zohidov, A. (2020). Yoshlarning axloqiy rivojlanishi. Toshkent: O‘zbekiston universiteti nashriyoti.
5. O.Davlatov. “Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati” “Ilm-Ziyo-Zakovat” 2023.

ISSN 3030-3907

DASTURIY KONFIGURATSIYALANADIGAN TARMOQ TARIXI, TASNIFI VA TAMOILI TAHLILI

Muxammedinov Kobeysin Kuanishovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot taxnologiyalari universiteti tayanch doktoranti, email: kobiyaga@gmail.com

Annotatsiya: Internet foydalanuvchilari soni keskin ortishi sababli an’anaviy telekommunikatsiya tarmoq tomoili markazlashmagan boshqaruv va statik konfiguratsiyasi kabi bazi muammolar keltirib chiqaradi. Dasturiy konfiguratsiyalanadigan tarmoq tomoili bunga echim sifatida markazlashgan boshqaruv, tarmoqni dasturlash orqali moslashuvchanlik, egiluvchanlik va boshqa echimlari bilan kelajak tarmog‘i sifatida keltiriladi. Ushbu ishda DKT va OpenFlow tamoili, tarixi va tasnifi haqida chuqur tahlil natijalari keltirilgan.

Kalit so’zlar: Dasturiy konfiguratsiyalanadigan tarmoq, OpenFlow protokoli, Amaliy dasturlash inerfeysi

Аннотация: Из-за быстрого роста числа пользователей Интернета традиционные архитектуры телекоммуникационных сетей создают некоторые проблемы, такие как децентрализованное управление и статическая конфигурация. Программно-определяемые сети рассматриваются как будущее сетевых технологий с централизованным управлением, гибкостью, масштабируемостью и другими решениями посредством сетевого программирования. В статье представлены результаты углубленного анализа принципов, истории и классификации DKT и OpenFlow.

Ключевые слова:Программно конфигурируемая сеть, протокол OpenFlow, интерфейс прикладного программирования.

Abstract: Due to the rapid growth of the number of Internet users, traditional telecommunication network architectures have brought some problems such as decentralized management and static configuration. Software-defined networks are considered as the future network with centralized management, flexibility, scalability and other solutions through network programming. This paper presents the results of an in-depth analysis of the principles, history and classification of DKT and OpenFlow.

Keywords: Software-defined networking, OpenFlow protocol, Application programming interface

Kirish

Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan texnologiyalar davrida internetga ulanishlar soni va malumot almashish xarjmi mutonosib ortib bormoqda. Bu tarmoq yuklamasiga an’anaviy tarmoq konseptsiyasi bilan xizmat ko’rsatish bazi

ISSN 3030-3907

muammolarga olib kelmoqda. Misol uchun yangi funktsiyalarni qo'shishda qo'lda sozlanishi yoki cheklanganligi, markazlashmagan boshqaruv, tarmoq qurilmalarini ishlab chiqaruvchiga qaramlik, va hokazo. Kelajak tarmog'i deya hisoblanayotgan Dasturiy konfiguratsiyalanadigan tarmoqlar, tarmoqni dasturlash, avtomatlashtirish va asosiya tamoilidagi kabi markazlashgan boshqaruv imkoniyatiga ega. Beshinchi avlod tarmoqlari 5G tarmoqlariga moslashuvchan arxitekturani va tamoilni keltiruvchi dasturiy taminot asosida boshqariladigan DKT tarmoqlarini o'rganish dolzarb bo'lib qolaveradi. Ushbu ishda DKT evolyutsiyasi, arxitekturasi va tamoillari tahlil qilib chiqilgan.

Dasturiy konfiguratsiyalanadigan tarmoqlarning evolyutsiyasi

So‘nggi bir necha yil ichida dasturiy konfiguratsiyalanadigan tarmoq mashhurligi sezilarli darajada oshdi, ammo texnologiya ortidagi ko‘plab g‘oyalar yigirma yil yoki undan ko‘proq vaqt davomida rivojlanib bordi. Bir tomondan, DKT texnologiyasi tarmoq boshqaruvini soddalashtirish va yangi xizmatlarni joriy etish uchun boshqaruv qatlami va ma’lumotlarni uzatish qatlamini aniq ajratib turadigan dastlabki telefon tarmoqlarining tuzilishini qayta ko‘rib chiqadi. Boshqa tomondan, DKT texnologiyasi 20-asr oxirida o‘rganilgan va dasturlashtiriladigan ma’lumotlarni uzatish qatlamlariga ko‘proq e’tibor berilgan bo‘lsada, dasturlashtiriladigan tarmoqlar haqidagi tasavvurni shakllantirgan an’anaviy aloqa tarmoqlari kontsepsiyasi bilan o‘xshashliklarga ega. Markazlashtirilgan, boshqariladigan tarmoqlar bugungi kunda DKT bilan bir xil prinsiplarning ko‘pini qo‘llab-quvvatladi, ammo ularning qo‘llanilishi va oldinga siljish yo‘lini aniq tushunmadi. Ko‘p tadqiqotlardan so‘ng, dasturlashtiriladigan tarmoqlarning ko‘rinishi aniqroq bo‘ldi, bu boshqaruv va ma’lumotlarni uzatish qatlamlarini ajratish hamda ilovalar va tarmoq xizmatlariga API (Application Programming Interface-Amaliy dasturlash interfeysi) orqali mavhum tarmoq infratuzilmasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarishga ruxsat berish g‘oyasida ifodalangan [1; 2; 3; 4].

OpenFlow protokoli paydo bo‘lishidan oldin, dasturiy konfiguratsiyalanadigan tarmoq g‘oyalari to‘liq dasturlashtiriladigan tarmoqlarni ko‘rishdagi farqlar va mavjud tarmoq infratuzilmasiga DKT joriy etishning maqsadga muvofiqligi tufayli to‘sqinlik qilgan. 2009 yilda OpenFlow protokolining paydo bo‘lishi bahslarni hal qildi, tarmoq qurilmalari ustidan ko‘proq nazoratni ta’minladi va mavjud kommutatsiya qurilmalari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Oldingi texnik jihozlardan foydalanish moslashuvchanlikni biroz cheklagan bo‘lsa-da, OpenFlow protokoli tezda o‘rnatildi va integratsiya qilindi, bu DKT texnologiyasining faol rivojlanishini ta’minladi. Buning ortidan DKT kontrollerlarini ishlab chiqarish boshlandi, bu esa o‘z navbatida boshqaruv dasturlarini ishlab chiqish uchun OpenFlow API yaratilishiga turtki bo‘ldi.

ISSN 3030-3907

Protokolning muvaffaqiyati sanoat tomonidan yaratilgan texnik sharoitlarda yotadi. OpenFlow mavjud bo‘lishidan oldin ham, Broadcom kabi chipset ishlab chiqaruvchilari dasturchilarga tarmoq uskunasining ma’lum tarmoq xususiyatlarini boshqarishga imkon berish uchun o‘zlarining API-larini joriy qilishni boshladilar. Xususan, kommutatorlar kirishni nazorat qilish va oqim monitoringini allaqachon qo‘llab-quvvatlaganligi sababli, OpenFlow protokoli imkoniyatlarining dastlabki to‘plamini amalga oshirish oddiy va tushunarli edi va ishlab chiqaruvchilar o‘z qurilmalarini protokolga mos kelishi uchun yaxshilashlari shart emas edi.

OpenFlow protokoli uchun dastlabki sinov maydoni tarmoq tadqiqot hamjamiyatining ehtiyojlarini qondirish uchun ideal muhit bo‘lgan kampus tarmoqlari edi. 2000-yillarning oxirida Stenford OpenFlow sinov maydonchalarini joylashtirish va protokol imkoniyatlarini ham bitta kampus tarmog‘ida, ham bir nechta kampuslarni qamrab olgan magistral tarmoqlarda namoyish qilish uchun birgalikda harakat qildi. Stenford sinovlarining muvaffaqiyatidan so‘ng, OpenFlow asta-sekin boshqa sohalarda, masalan, xususiy WAN va ma’lumotlar markazlarida qo‘llanilib boshladi, bu erda katta hajmdagi tarmoq trafigini boshqarishga aniq ehtiyoj bor edi.

Dasturiy konfiguratsiyalanadigan tarmoq texnologiyasini rivojlantirishdagi muhim qadam 2011 yilda ONF (Open Networking Foundation – Ochiq tarmoq fondi) notijorat tashkilotining tashkil etilishi bo‘ldi. Uning tarkibiga Deutsche Telekom, Facebook, Google, Microsoft, Verizon, Yahoo! va boshqalar kabi axborot texnologiyalari sohasidagi dunyodagi eng yirik taniqli kompaniyalar kiradi [5]. 2017-yil holatiga ko‘ra, tashkilot tarkibiga 150 ga yaqin kompaniya, jumladan, eng yirik aloqa operatorlari va tarmoq qurilmalari ishlab chiqaruvchilari, shuningdek, kichik innovatsion korxonalar – startaplar kirdi. ONF shuningdek, qurilmalarning standartlarga muvofiqligini sertifikatlash uchun dasturlarni ishlab chiqish uchun javobgardir. Ushbu loyihaning maqsadi ochiq standartlarni ishlab chiqish orqali dasturiy konfiguratsiyalanadigan tarmoqlarni rivojlantirishdir.

DKT texnologiyasi o‘zining dastlabki rivojlanishida katta yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, mavjud infratuzilmani yaxshilash va ko‘proq muammolarni hal qilish salohiyatini o‘rganish uchun ushbu sohada ko‘proq tadqiqotlar talab etiladi. Oxirgi tadqiqot ishlari DKT kontrollerning funksional vazifalari va DKT kontroller va korporativ tarmoqlar, 5G/IMT-2020 aloqa tarmoqlari va boshqalar kabi boshqa axborot texnologiyalari o‘rtasidagi munosabatlarga qaratilgan.


DKT funksionalligiga qiziqish ortishi bilan me’moriy yo‘nalishning katta qismi moslashuvchan paketlarni yo‘naltirishdan dinamik resurslarni virtualizatsiya qilish va xizmat ko‘rsatish orkestratsiyasiga o‘tdi. Olingan arxitektura korporativ, tashuvchi, ma’lumot markazi va kampus tarmoqlaridagi barcha turdagi ilovalarga,

ISSN 3030-3907

oxirgi foydalanuvchidan apparat egasiga qadar, ham yangi, ham rivojlanayotgan mavjud tarmoq ilovalari, turli tarmoq domenlari ichida va o‘rtasida DKT-larni moslashtirish uchun qo‘llaniladi (masalan, operatorlar ichida va o‘rtasida, ma’lumotlar markazlari ichida va o‘rtasida).

Dasturiy konfiguratsiyalanadigan tarmoqning arxitekturaviy kontsepsiyasi va tamoyillari

An’anaviy kompyuter tarmoqlari o‘zaro bog‘langan tarmoq qurilmalari, masalan, kommutatorlar va marshrutizatorlardan iborat (1-rasm). Har bir qurilma uzatish qatlamidagi yunaltirish mexanizmini va operatsion tizim va ilovalarni o‘z ichiga olgan boshqaruv tizimini o‘z ichiga oladi. Ushbu modelda tarmoq qurilmalari yopiq arxitekturaga ega va yangi funksiyalarni qo‘shish imkoniyati yo‘q. Tarmoq qurilmalarini tanlangan tarmoq sotuvchisiga ulash kelajakdagi ilovalar va xizmatlarni qo‘llab-quvvatlashni kafolatlamaydi.



1-rasm. An’anaviy tarmoqdagi qurilmalarning o‘zaro ta’sirining tuzilishi

Dasturiy konfiguratsiyalanadigan tarmoqlar arxitekturasi ONF TR-502 [5] da belgilangan va quyidagi uchta tamoyilga asoslanadi:


1) Boshqaruv va transportni uzatish funksiyalarini ajratish. Bu harakatni boshqarish va uzatish tizimlarini joylashtirish, hayot aylanishi va rivojlanish erkinligi prinsipi;

2) Mantiqiy markazlashtirilgan boshqaruv. Mantiqiy markazlashtirilgan boshqaruv boshqaruvning tashqaridan (mijoz/ilova) yagona obyekt sifatida qarashini anglatadi, bu esa mahalliy cheklangan istiqbolga nisbatan resurslardan samaraliroq foydalanishni ta’minlaydi;

3) Tarmoq xizmatlarini dasturlash imkoniyati. DKT komponentlari orasidagi interfeyslar manba abstraksiyalari va tarmoq holatini ochib beradi va axborot almashinuvi, tarmoqni dasturlash va boshqarish operatsiyalarini ta’minlaydi.

ISSN 3030-3907

Ilovalar talablarni o‘rnatishi va o‘z tarmoq xizmatlariga o‘zgartirishlar so‘rashi va tarmoq sharoitlariga dasturiy javob berishi mumkin.



2-rasm. Dasuriy konfiguratsiyalanadigan tarmoqning umumiy arxitekturasi

Dasturiy konfiguratsiyalanadigan tarmoq arxitekturasi

DKT tamoiliga ko‘ra, 2-rasmda ko‘rsatilganidek, DKT arxitekturasi oltita asosiy komponentni o‘z ichiga oladi. Bular:

Ilova darajasi. Ilova qatlami yoki dastur qatlami deb ataladigan yuqori qatlamda turli xil xizmatlar, jumladan, tarmoq hujumlarni aniqlash va oldini olish tizimlari (IDS/IPS), xizmat ko‘rsatish sifati (QoS), kirishni boshqarish, proksi-server va boshqalarning xatti-harakatlarini aniqlaydi.

Boshqaruv darajasi. Boshqaruv tekisligi tarmoq topologiyasini shimolga yo‘naltirilgan API orqali dastur qatlamiga mavhumlashtiradi. Ushbu darajadagi asosiy element DKT kontrolleri bo‘lib, u infratuzilma darajasida joylashgan bir yoki bir nechta tarmoq qurilmalarini muvofiqlashtirish uchun javobgardir. Kontroller ushbu qurilmalar uchun ma’lumotlarni qayta ishlash qoidalarini ishlab chiqadi, ularning holatini nazorat qiladi va janubiy API orqali tarmoq ma’lumotlarini to‘playdi. OpenFlow protokoli bunday API-ni amalga oshirishga misoldir. Ushbu qatlam shuningdek, boshqaruv qatlami obyektlari - kontrollerlar o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydigan va ularga infratuzilma qatlamida trafikni qayta ishlash bo‘yicha ma’lumot almashish imkonini beruvchi sharqqa va g‘arbga API kabi elementlarni o‘z ichiga oladi.

Infratuzilma darajasi. Infratuzilma qatlami yoki ma’lumot uzatish qatlami sifatida tanilgan pastki qatlam boshqaruv qatlamidan olingan ko‘rsatmalar asosida paketlarni qayta ishlash va yo‘naltirishni boshqaradi. Ushbu darajada kontroller tomonidan boshqariladigan tarmoq qurilmalari mavjud(masalan, kommutatorlar).

ISSN 3030-3907

Shimolga yo‘naltirilgan interfeyslar. Shimoliy API ilovalar uchun dasturlashtiriladigan virtual tarmoq interfeysi va DKT qatlamining tepasida boshqaruv tizimini taqdim etadi. Ushbu interfeyslar DKT arxitekturasining eng muhim API-laridir, chunki ular ilovalarga tarmoq xizmatlaridan foydalanish va tarmoqni dinamik ravishda sozlash imkonini beradi. Shimolga yo‘naltirilgan API-lar yordamida joylashtirilishi va optimallashtirilishi mumkin bo‘lgan tarmoq xizmatlariga xavfsizlik xizmatlari, yuklarni muvozanatlash, trafikni boshqarish, xizmat ko‘rsatish sifati va boshqalar kiradi.

Janubga yo‘naltirilgan interfeyslar. Janubiy API interfeyslari samarali tarmoq boshqaruvini ta’minlaydi va kontrollerga real vaqt talablari va ehtiyojlariga muvofiq tarmoq resurslarini dinamik ravishda tashkil qilish imkonini beradi. Janubiy API interfeyslari, shimoliy interfeyslardan farqli o‘laroq, tarmoq qurilmalari (kommutatorlar, marshrutizatorlar) bilan o‘zaro ta’sir qiladi. Turli janubiy API protokollaridan eng keng tarqalgani OpenFlow hisoblanadi.

Sharqiy/G‘arbiy interfeyslar. Sharqiy/G‘arbiy API boshqaruv tekisliklari obyektlari – kontrollerlar o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydi va ularga infratuzilma darajasida trafikni qayta ishlash bo‘yicha ma’lumot almashish imkonini beradi.

Dasturiy konfiguratsiyalanadigan tarmoq kontrolleri

Kontroller DKT arxitekturasining eng muhim komponenti, tarmoq funksiyalarini markazlashtiruvchi va tarmoqning global holatini kuzatuvchi tugundir. Dasturiy konfiguratsiyalanadigan tarmoq kontrolleri apparat-dasturiy yechim sifatida yoki dasturiy ta’minotni amalga oshirish sifatida taqdim etilishi mumkin [6]. Hozirgi vaqtda bozorda kontrollerlar dasturiy ta’minotni amalga oshirishda ko‘proq taqdim etiladi. Boshqaruv tekisligini tarmoq uskunasidan olib tashlash va uni dasturiy ta’minot sifatida ishga tushirish orqali kontroller tarmoqni avtomatlashtirilgan boshqarishni va biznes ilovalarini integratsiyalashuvi va boshqaruvini soddalashtiradi. ONF arxitekturasiga ko‘ra, DKT kontrollerning ichki dizayniga etibor qaratmaydi. DKT arxitekturasining birinchi versiyalari bitta markazlashtirilgan kontrollerdan iborat boshqaruv rejasini ifodalaydi. Keyinchalik, tarmoq unumdorligi va kengaytirilishini yaxshilash uchun bir nechta kontrollerlardan foydalangan holda taqsimlangan arxitekturalar taklif qilindi.

Dasturiy konfiguratsiyalanadigan tarmoq kontrollerining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– Unumdorlik - vaqt birligida kontroller tomonidan qayta ishlangan oqimlar soni [oqimlar/s];
– Ishlov berish vaqti - kontroller tomonidan kommutatordan so‘rovni qayta ishlash uchun sarflangan vaqt miqdori [s];
– Ishonchlilik - ma’lum bir yuk profilidagi nosozliklar soni;

ISSN 3030-3907

– Resurs intensivligi - kontroller tomonidan jismoniy serverning operativ xotirasidan foydalanish va protsessor yadrolaridagi yuk;
– Miqyoslash - ko‘p tarmoqli boshqarish uchun kontrollerni qo‘llab-quvvatlash.

1-jadval.

Eng keng tarqalgan DKT kontrollerlarining xususiyatlari

Kontroller nomi	Dasuriy til	GUI	Janubiy API	Platformalar	Hamkorlar
ONOS	Java	Veb	OF 1,0, 1,3, 1,5, NETCONF, SNMP	Linux, MAC OS, Windows	ON.LAB, At&T, Ciena, Cisco, Ericsson,Fujitsu, Huawei, Intel, Nec, Sk Telecom
OpenDaylight	Java	Veb	OF 1,0, 1,3–1,5, NETCONF /YANG, OVSDB, PCEP, BGP/LS, LISP, SNMP	Linux, MAC OS, Windows	Linux Foundation
Floodlight	Java	Veb/Java	OF 1,0–1,4	Linux, MAC OS, Windows	Big Switch Networks
NOX	C++	Python + QT4	OF 1.0	Linux	Nicira
POX	Python	Python + QT4	OF 1.0	Linux, MAC OS, Windows	Nicira
RunOS	C++	Veb	OF 1.3	Linux	SPICS
RYU	Python	Veb	OF 1,0, 1,2–1,5 NETCONF, OF-Config	Linux	Nippo Telegraph, Telephone Corporation
Beacon	Java	Veb	OF 1.0	Linux, MAC OS, Windows	Standford University
Maestro	Java	-	OF 1.0	Linux, MAC OS, Windows	RICE, NSF

ISSN 3030-3907

OpenMUL [15]	C	Veb	OF 1.0, 1.3, 1.4, OVSDB, OF-Config	Linux	Kulcloud

DKT kontroller odatda turli tarmoq vazifalarini bajarishi mumkin bo‘lgan "ulanadigan" modullar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Asosiy modullarga quyidagilar kiradi: kanalni aniqlash moduli, topologiya moduli, xotira moduli, strategiyani ishlab chiqish moduli, oqim jadvali moduli, ma’lumotlarni boshqarish moduli.

Yana murakkab funksiyalarni qo‘llab-quvvatlaydigan boshqa modullar ham amalga oshirilishi mumkin.

Marshrutlash xizmatini taqdim etish uchun ikkita modul mavjud: topologiya moduli va kanalni aniqlash moduli. Kanalni aniqlash moduli tarmoqdagi jismoniy ulanishlar holatini aniqlash va saqlash uchun javobgardir. Har qanday noma’lum trafik turi OpenFlow domeniga kirganda jarayon kontroller tomonidan ishga tushiriladi. Shunday qilib, kanalni aniqlash moduli tomonidan to‘plangan ma’lumotlar kontrollerda qo‘shni ma’lumotlar bazasini yaratish uchun ishlatiladi. Ushbu ma’lumotlar bazasiga asoslanib, topologiya moduli topologiya ma’lumotlarini yangilaydi va tarmoqdagi marshrutlarni hisoblaydi.

Bugungi kunda juda ko‘p sonli kontrollerlar mavjud, ularning aksariyati ochiq manba va OpenFlow protokolini qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu kontrollerlar dasturlash tillarida, OpenFlow versiyasini qo‘llab-quvvatlashda, ko‘p tarmoqli sifatida ishlatiladigan usullarda va bit tezligida ishlashda farqlanadi. 1-jadvalda eng keng tarqalgan DKT kontrollerlarining xarakteristikalari jamlangan [6].

Xulosa

DKT texnologiyasi an’anaviy tarmoq arxitekturasiga nisbatan sezilarli yutuqlarni taqdim etadi. Uning asosiy g‘oyasi – boshqaruv qatlami va ma’lumot uzatish qatlamini ajratish orqali tarmoqni markazlashgan holda boshqarishdir. Ushbu yondashuv orqali tarmoqlar moslashuvchan, samarali va avtomatlashtirilgan holga keltiriladi. DKT kontrollerlari tarmoqni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda DKT innovatsion tarmoq boshqaruvi uchun asosiy texnologiyalardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu ishda DKT yondoshuvi o‘rganildi va keyingi ishlarda OpenFlow protokolining ishlash tamoillarini o‘rganib chiqamiz.

ADABIYOTLAR:

1. Alsmadi I.M., AlAzzam I., Akour M., A Systematic Literature Review on Software-Defined Networking, Information Fusion for Cyber-Security Analytics. SCI, 2017, vol. 691, pp. 333–369.

2. K. Benzekki, A. E. Fergougui, Software - defined networking (SDN): a survey /Security and Communication Networks. – 2016. /– Vol. 9(18). – pp.5803–5833

ISSN 3030-3907

3. A. Ksentini, N. Nikaein, Toward Enforcing Network Slicing on RAN: Flexibility and Resources Abstraction/ in IEEE Communications Magazine, vol. 55, no. 6, pp. 102 - 108, 2017.
4. Xia W., Wen Y., Foh C., Niyato D., Xie H., A Survey on Software-Defined Networking / IEEE Communications Surveys & Tutorials, 17 (1), 27–51, 2015.
5. ONF TR-502 SDN architecture. Elektron resurs: https://www.opennetworking.org/wp-content/uploads/2013/02/TR_SDN_ARCH_1.0_06062014.pdf
6. O. Salman, I. H. Elhajj, A. Kayssi, A. Chehab "SDN controllers: A comparative study", MELECON, pp. 1-6, 2016.

ISSN 3030-3907

UDK 006.3/.8(584) : 006.3/.8(100)

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTLARINI XALQARO STANDARTLARGA UYG‘UNLASHTIRISH JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIMLAR

Boboyev G‘aybulla G‘afurovich
Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti, PhD.
E-mail: ***gaybulla.boboyev1281@gmail.com***
Tel:+99897 707 12 81
ORCID iD: 0000-0002-7064-7972
Hasanov Muhriddin Hakimjon o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
E-mail: ***mhasanov192@gmail.com***
Tel:+99894 271 72 87
ORCID iD: 0009-0009-0678-0988

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston milliy standartlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish jarayonidagi muammolar va ularning yechimlari tadqiq etilgan. Globallashuv sharoitida milliy standartlar tizimining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash mamlakatning jahon bozoriga integratsiyalashuvi, eksport salohiyatini oshirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston standartlashtirish tizimida huquqiy, tashkiliy va texnik muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal etish uchun tizimli yondashuv taklif etilgan. Maqolada statistik va empirik ma’lumotlar asosida O‘zbekiston milliy standartlarining xalqaro standartlarga uyg‘unlashuv darajasi tahlil qilingan hamda bu jarayonni samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: milliy standartlar, xalqaro standartlar, standartlashtirish, uyg‘unlashtirish, O‘zbekiston, sertifikatsiya, texnik tartibga solish.

Аннотация: В данной статье рассмотрены проблемы и их решения в процессе приведения национальных стандартов Узбекистана в соответствие с международными. В условиях глобализации обеспечение соответствия национальной системы стандартов международным стандартам приобретает важное значение для интеграции страны на мировой рынок, повышения экспортного потенциала и повышения конкурентоспособности отечественных производителей. Согласно результатам исследования, в системе стандартизации Узбекистана имеются правовые, организационные и технические проблемы, для решения которых предложен системный подход. В статье на основе статистических и эмпирических данных

ISSN 3030-3907

проанализирована степень гармонизации национальных стандартов Узбекистана с международными и разработаны научно обоснованные рекомендации по эффективной организации этого процесса.

Ключевые слова: национальные стандарты, международные стандарты, стандартизация, гармонизация, Узбекистан, сертификация, техническое регулирование.

Annotation: this article explores the problems in the process of harmonizing the National Standards of Uzbekistan with international standards and their solutions. In the context of globalization, ensuring the compliance of the national standards system with international standards is important in integrating the country into the world market, increasing export capacity and increasing the competitiveness of domestic manufacturers. According to the results of the study, there are legal, organizational and technical problems in the standardization system of Uzbekistan, a systematic approach has been proposed to solve them. The article analyzes the level of harmonization of national standards of Uzbekistan with international standards on the basis of statistical and empirical data and develops scientifically based recommendations for the effective organization of this process.

Keywords: national standards, international standards, standardization, harmonization, Uzbekistan, certification, technical regulation.

Kirish.

Zamonaviy globallashuv sharoitida milliy standartlar tizimining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash har qanday davlat uchun strategik ahamiyatga ega masala hisoblanadi. O‘zbekiston uchun bu masala, ayniqsa, dolzarb bo‘lib, mamlakatning jahon bozoriga integratsiyalashuvi, eksport salohiyatini oshirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini yuksaltirish bilan bevosita bog‘liq [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-martdagi PF-5713-son "Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish va xususiy sektor rivojlanishini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasining milliy standartlari bazasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish Dasturining qabul qilinishi bu yo‘nalishga alohida e’tibor qaratilayotganidan dalolat beradi [2].

Shu bilan birga, O‘zbekiston milliy standartlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish jarayonida bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal etish uchun tizimli yondashuv talab etiladi. Ushbu maqolada O‘zbekiston milliy standartlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish yo‘lidagi muammolar, ularning yechimlari va bu jarayonni samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar o‘z aksini topgan.

ISSN 3030-3907

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston milliy standartlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo‘llarini tadqiq etishdan iborat. Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilangan:

1. O‘zbekiston milliy standartlar tizimining joriy holatini tahlil qilish;
2. Milliy standartlarni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish jarayonidagi muammolarni aniqlash;
3. Xalqaro tajribani o‘rganish asosida samarali yechimlarni ishlab chiqish;
4. Milliy standartlarni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar taqdim etish.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, statistik tahlil, ekspert baholash va tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan. Xususan, O‘zbekiston milliy standartlar tizimining joriy holatini o‘rganish uchun "O‘zstandart" agentligi ma’lumotlari, xalqaro standartlashtirish tashkilotlari hisobotlari va soha ekspertlarining fikrlari tahlil qilingan.

Tadqiqot doirasida 2018-2024 yillar davomida O‘zbekistonda qabul qilingan milliy standartlar va ularning xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasi o‘rganilgan. Bundan tashqari, 150 dan ortiq mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘rtasida standartlashtirish sohasidagi muammolar va ehtiyojlarni aniqlash maqsadida so‘rovnoma o‘tkazilgan.

Xalqaro standartlashtirish tajribasini o‘rganish maqsadida ISO, IEC, ITU kabi xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlari va rivojlangan davlatlarning (Janubiy Koreya, Yaponiya, Turkiya) standartlashtirish tizimlarini takomillashtirish tajribasi o‘rganilgan.

Natijalar. O‘zbekiston milliy standartlari tizimining joriy holati: O‘zbekiston milliy standartlari tizimi "O‘zstandart" agentligi tomonidan boshqariladi va bu tizim mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifat va xavfsizlik talablariga javob berishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. 2024 yil mart oyiga kelib, O‘zbekistonda 28,500 dan ortiq milliy standartlar amal qilmoqda, ularning 10,213 tasi xalqaro standartlarga muvofiq keladi. Bu esa milliy standartlarning 35,8% xalqaro standartlarga uyg‘unlashganligini anglatadi (1-jadval).

1-jadval.

O‘zbekiston milliy standartlarining xalqaro standartlarga uyg‘unlashuv darajasi (2018-2024)

Yil	Milliy standartlar soni	Xalqaro standartlarga muvofiq standartlar soni	Uyg‘unlashuv darajasi (%)


ISSN 3030-3907

2018	22,451	6,230	27.7
2019	23,567	6,985	29.6
2020	24,892	7,665	30.8
2021	25,983	8,315	32.0
2022	26,845	8,875	33.1
2023	27,690	9,565	34.5
2024	28,500	10,213	35.8

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi yillarda O‘zbekiston milliy standartlarining xalqaro standartlarga uyg‘unlashuv darajasi izchil o‘sib bormoqda. Biroq, bu ko‘rsatkich rivojlangan davlatlarga nisbatan ancha past bo‘lib, xalqaro standartlarga to‘liq muvofiqlikni ta'minlash uchun jiddiy islohotlar talab etiladi.

Milliy standartlarni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish muammolari: o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston milliy standartlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish jarayonida quyidagi asosiy muammolar aniqlangan:

1. *Huquqiy va normativ asoslarning yetarli darajada rivojlanmaganligi.* O‘zbekistonda standartlashtirish sohasidagi qonunchilik bazasi xalqaro talablarga to‘liq javob bermaydi. Ayniqsa, WTO TBT (Jahon savdo tashkilotining savdoda texnik to‘siqlar to‘g‘risidagi) kelishuvi qoidalarini milliy qonunchilikka to‘liq implementatsiya qilish masalasi dolzarb hisoblanadi [3].
2. *Malakali kadrlar yetishmasligi.* Standartlashtirish sohasida, ayniqsa, xalqaro standartlarni milliy standartlarga implementatsiya qilish bo‘yicha malakali mutaxassislar yetishmasligi muammo bo‘lib qolmoqda. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, standartlashtirish sohasidagi mutaxassislarning 68% xalqaro standartlarni tushunish va qo‘llash bo‘yicha qo‘shimcha malaka oshirishga ehtiyoj sezishini bildirgan (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekistonda standartlashtirish sohasidagi mutaxassislarning malakasi bo‘yicha so‘rovnoma natijalari.

ISSN 3030-3907

3. *Moliyaviy resurslarning cheklanganligi.* Xalqaro standartlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish, moslashtirish va joriy etish katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Korxonalarning 72% xalqaro standartlarni joriy etish bilan bog‘liq moliyaviy qiyinchiliklarni qayd etgan.
4. *Infratuzilmaning yetarli emasligi.* Standarlashtirish, sinov va sertifikatlash infratuzilmasi zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi. Ayniqsa, hududlarda sinov laboratoriyalari yetishmasligi va mavjudlarining aksariyati xalqaro akkreditatsiyadan o‘tmaganligi muammoli vaziyatni yuzaga keltirmoqda.
5. *Manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikning sustligi.* Davlat organlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, biznes vakillari va iste’molchilar o‘rtasida standartlashtirish sohasidagi hamkorlik yetarli darajada rivojlanmagan.
6. *Xalqaro standartlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolari.* Texnik terminologiyani o‘zbek tiliga to‘g‘ri tarjima qilish muammolari mavjud bo‘lib, bu xalqaro standartlarni to‘g‘ri tushunish va qo‘llashga to‘sqinlik qilmoqda.
7. *Axborot almashish tizimining zamonaviy talablarga javob bermasligi.* Standartlashtirish sohasida ma’lumotlar bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi va axborot almashish tizimining samarali yo‘lga qo‘yilmaganligi muammo bo‘lib qolmoqda.

Xalqaro tajriba tahlili. Tadqiqot doirasida rivojlangan davlatlarning standartlashtirish tizimlarini takomillashtirish tajribasi o‘rganilgan. Xususan, Janubiy Koreya, Yaponiya va Turkiya tajribasi tahlil qilingan.


Janubiy Koreya tajribasining o‘ziga xos jihati shundaki, bu davlat milliy standartlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish bo‘yicha aniq maqsadli dastur ishlab chiqqan va bu dastur davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlangan. Natijada, Janubiy Koreya milliy standartlarining 95% dan ortig‘i xalqaro standartlarga muvofiq keladi [4].

Yaponiya tajribasi esa davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan. Yaponiyada standartlashtirish jarayonida xususiy sektor vakillari faol ishtirok etadi va bu jarayon davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Bunday yondashuv standartlashtirish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilgan [5].

Turkiya tajribasi O‘zbekiston uchun alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki bu davlat ham o‘tish iqtisodiyoti sharoitida milliy standartlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirgan. Turkiya Evropa Ittifoqi standartlarini o‘zlashtirish bo‘yicha aniq dastur ishlab chiqqan va bu dasturni bosqichma-bosqich amalga oshirgan [6].

ISSN 3030-3907

2-rasmda turli davlatlarning milliy standartlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish darajasi qiyosiy tahlil qilingan.



2-rasm. Turli davlatlarning milliy standartlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish darajasi (2023-yil).

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, rivojlangan davlatlarda milliy standartlarning xalqaro standartlarga uyg‘unlashuv darajasi yuqori bo‘lib, O‘zbekiston bu ko‘rsatkich bo‘yicha hali orqada qolmoqda.

Muhokama. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston milliy standartlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish jarayonini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tizimli islohotlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Huquqiy-me’yoriy bazani takomillashtirish.

O‘zbekistonda standartlashtirish sohasidagi qonunchilik bazasini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish zarur. Buning uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi qonunni xalqaro talablar asosida yangilash;
- WTO TBT kelishuvi qoidalarini milliy qonunchilikka to‘liq implementatsiya qilish;
- Standartlashtirish sohasidagi me’yoriy hujjatlarni soddalashtirilgan tizimga keltirish.

2. Institutsional salohiyatni kuchaytirish.

ISSN 3030-3907

Standartlashtirish sohasidagi tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining O‘zbekiston standartlar instituti” tuzilmasini xalqaro tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish;
- Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalarning faoliyatini kuchaytirish;
- Xalqaro standartlashtirish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish.

3. Kadrlar salohiyatini oshirish.

Standartlashtirish sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- Oliy ta’lim muassasalarida standartlashtirish yo‘nalishlarini kengaytirish;
- Xalqaro standartlashtirish tashkilotlari bilan hamkorlikda malaka oshirish dasturlarini tashkil etish;
- Standartlashtirish sohasidagi mutaxassislar uchun sertifikatlash tizimini joriy etish.

4. Moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish.

Standartlashtirish jarayonlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Xalqaro standartlarni o‘zlashtirish uchun davlat byudjetidan mablag‘lar ajratish;
- Xususiy sektorni standartlashtirish jarayonlariga jalb etish uchun soliq imtiyozlarini joriy etish;
- Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda standartlashtirish loyihalarini moliyalashtirish.

5. Infratuzilmani rivojlantirish.

Standartlashtirish, sinov va sertifikatlash infratuzilmasini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- Hududlarda zamonaviy sinov laboratoriyalarini tashkil etish;
- Mavjud laboratoriyalarni xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish;
- Standartlashtirish sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish.

6. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

Xalqaro standartlashtirish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- ISO, IEC, ITU kabi xalqaro tashkilotlarda O‘zbekistonning faol ishtirokini ta'minlash;

ISSN 3030-3907

- Xalqaro standartlashtirish tashkilotlarining texnik qo‘mitalarida O‘zbekiston vakillarining ishtirokini kengaytirish;
- Qo‘shni davlatlar bilan standartlashtirish sohasida hamkorlikni kuchaytirish.

7. Axborot ta’minotini takomillashtirish

Standartlashtirish sohasida axborot ta’minotini takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- Standartlar ma’lumotlar bazasini modernizatsiya qilish;
- Xalqaro standartlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonini takomillashtirish;
- Standartlashtirish sohasida elektron axborot almashish tizimini joriy etish.

Xulosa

O‘zbekiston milliy standartlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish jarayonini takomillashtirish mamlakatning jahon bozoriga integratsiyalashuvi, eksport salohiyatini oshirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini yuksaltirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda milliy standartlarni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish darajasi so‘nggi yillarda o‘sib bormoqda, ammo bu ko‘rsatkich rivojlangan davlatlarga nisbatan hali past darajada. Buning asosiy sabablari huquqiy va normativ asoslarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, malakali kadrlar yetishmasligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, infratuzilmaning yetarli emasligi va boshqalar hisoblanadi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy standartlarni xalqaro standartlarga muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirish uchun tizimli yondashuv, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va aniq maqsadli dasturlar talab etiladi.

O‘zbekiston milliy standartlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish jarayonini takomillashtirish uchun huquqiy-me’yoriy bazani takomillashtirish, institutsional salohiyatni kuchaytirish, kadrlar salohiyatini oshirish, moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va axborot ta’minotini takomillashtirish yo‘nalishlarida tizimli islohotlarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Ushbu maqolada taklif etilgan tavsiyalarni amalga oshirish O‘zbekiston milliy standartlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish jarayonini jadallashtirish va bu sohadagi mavjud muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Adilov F.A. O‘zbekiston milliy standartlarini xalqaro andozalarga moslashtirish: muammolar va imkoniyatlar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №3. – B. 45-52.

ISSN 3030-3907

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 martdagi PF-5713-son "Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish va xususiy sektor rivojlanishini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2019. – №11. – B. 5-12.
3. Nurmatov O.T. O‘zbekistonda standartlashtirish tizimini takomillashtirish istiqbollari // Ilm-fan va innovatsion rivojlanish. – 2020. – №2. – B. 78-86.
4. Km J.H., Park S.Y. The role of standardization in Korean economic development // Korean Journal of Policy Studies. – 2019. – Vol. 34. – №2. – P. 121-142.
5. Tanaka K. The impact of standardization on Japanese industrial development // Journal of International Economics. – 2018. – Vol. 52. – №1. – P. 67-89.
6. Yilmaz M. Turkey's experience in harmonizing national standards with international standards // Turkish Standards Institution Journal. – 2020. – Vol. 22. – №3. – P. 34-49.
7. Karimov B.N. Texnik tartibga solish va standartlashtirish tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – 2022. – №4. – B. 112-118.
8. Mirzaev F.A. Milliy standartlarni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonining iqtisodiy samaradorligi // Iqtisodiyot va ta’lim. – 2023. – №1. – B. 67-74.
9. Ahmedov A.A. O‘zbekistonda standartlashtirish tizimini isloh qilish: xorijiy tajriba va milliy xususiyatlar // Ijtimoiy fikr. – 2022. – №3. – B. 92-98.
10. Rakhimov D.B. Standartlashtirish sohasidagi qonunchilik bazasini takomillashtirish masalalari // Huquq va burch. – 2021. – №5. – B. 45-51.
11. ISO/IEC Guide 21-1:2005. Regional or national adoption of International Standards and other International Deliverables – Part 1: Adoption of International Standards.
12. World Trade Organization. Technical Barriers to Trade Agreement. – Geneva, 2020. – 52 p.
13. Nabiyev E.G., Alimov R.K. O‘zbekistonda standartlashtirish tizimini rivojlantirish istiqbollari // Fan va texnologiyalar. – 2023. – №2. – B. 56-63.
14. Azimov A.M. Milliy standartlarni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonini boshqarish // Biznes-ekspert. – 2021. – №6. – B. 34-39.
15. Djuraev K.A. Standartlashtirish tizimini rivojlantirishning huquqiy asoslari // Yuridik fanlar axborotnomasi. – 2022. – №2. – B. 78-85.

ISSN 3030-3907

CREATING PERSONALIZED STEAM WEB PLATFORMS FOR CHILDREN USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND GAMIFICATION

Davletboyev Sardorbek Zokirjon o‘g‘li
Urganch branch of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi davletboyevsardorbek08@gmail.com
Salayeva Mavluda
Urganch branch of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al- Khwarizmi
E-mail:mavludasalayeva658@gmail.com

Abstract. This dissertation investigates the effectiveness of personalized STEAM web platforms designed for children, integrating artificial intelligence and gamification, to address the challenge of creating adaptive learning experiences that meet diverse learning styles and preferences while ensuring sustained engagement. Employing a mixed-methods approach, the research collects qualitative data through user feedback on platform interactions and quantitative data through performance metrics, ultimately evaluating learning outcomes and engagement levels. Findings reveal that children using personalized platforms demonstrate significantly higher engagement and improved learning outcomes compared to traditional educational tools, underscoring the role of adaptive learning technologies in enhancing educational experiences. Notably, the study highlights that by tailoring content to individual preferences, platforms can not only foster a deeper understanding of STEAM subjects but also mitigate disparities in educational access and engagement among children from various backgrounds. The implications of these findings extend beyond educational contexts, suggesting that such innovative approaches may have potential applications in healthcare, where personalized strategies can enhance patient education and engagement in therapeutic processes. By illustrating the intersection of education technology and personalized learning, this research contributes to a broader understanding of how adaptive learning environments can inform and transform practices within both educational and healthcare frameworks.

Key words: personalized learning, STEAM education, web platforms, children’s education, artificial intelligence (AI), gamification, adaptive learning, interactive learning environments, EdTech, digital learning tools.

Аннотация. В этой диссертации исследуется эффективность персонализированных веб-платформ STEAM, разработанных для детей, объединяющих искусственный интеллект и геймификацию, для решения проблемы создания адаптивного опыта обучения, который соответствует

ISSN 3030-3907

различным стилям обучения и предпочтениям, обеспечивая при этом устойчивую вовлеченность. Используя подход смешанных методов, исследование собирает качественные данные с помощью отзывов пользователей о взаимодействии с платформой и количественные данные с помощью показателей эффективности, в конечном итоге оценивая результаты обучения и уровни вовлеченности. Результаты показывают, что дети, использующие персонализированные платформы, демонстрируют значительно более высокую вовлеченность и улучшенные результаты обучения по сравнению с традиционными образовательными инструментами, что подчеркивает роль технологий адаптивного обучения в улучшении образовательного опыта. В частности, в исследовании подчеркивается, что, адаптируя контент к индивидуальным предпочтениям, платформы могут не только способствовать более глубокому пониманию предметов STEAM, но и смягчать различия в доступе к образованию и вовлеченности среди детей из разных слоев общества. Последствия этих результатов выходят за рамки образовательных контекстов, предполагая, что такие инновационные подходы могут иметь потенциальное применение в здравоохранении, где персонализированные стратегии могут улучшить образование пациентов и их вовлеченность в терапевтические процессы. Иллюстрируя пересечение образовательных технологий и персонализированного обучения, это исследование способствует более широкому пониманию того, как адаптивные среды обучения могут информировать и трансформировать практику как в рамках образования, так и здравоохранения.

Ключевые слова: персонализированное обучение, STEAM-образование, веб-платформы, образование детей, искусственный интеллект (ИИ), геймификация, адаптивное обучение, интерактивные среды обучения, EdTech, цифровые инструменты обучения.

Annotatsiya. Ushbu dissertatsiya bolalar uchun mo'ljallangan shaxsiylashtirilgan STEAM veb-platformalarining samaradorligini o'rganadi, sun'iy intellekt va gamifikatsiyani birlashtirib, turli xil o'quv uslublari va afzalliklariga javob beradigan moslashuvchan o'quv tajribalarini yaratish muammosini hal qilish uchun. Aralash usullar yondashuvidan foydalangan holda, tadqiqot platformalarning o'zaro ta'siri va ishlash ko'rsatkichlari orqali miqdoriy ma'lumotlar bo'yicha foydalanuvchi mulohazalari orqali sifatli ma'lumotlarni to'playdi, natijada o'quv natijalari va jalb qilish darajasini baholaydi. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, shaxsiylashtirilgan platformalardan foydalanadigan bolalar an'anaviy ta'lim vositalariga nisbatan ancha yuqori faollik va yaxshilangan o'quv

ISSN 3030-3907

natijalarini namoyish etadilar va ta'lim tajribalarini oshirishda adaptiv ta'lim texnologiyalarining rolini ta'kidlaydilar. Xususan, o'rganish individual imtiyozlarni mazmunini bichish tomonidan, platformalar faqat bug ' fanlar chuqurroq tushunish mustahkamlash, balki turli kelib chiqishi bolalar o'rtasida ta'lim kirish va jalb tengsizlik yumshatish mumkin emas, deb ta'kidlaydi. Ushbu topilmalarning natijalari ta'lim kontekstidan tashqariga chiqadi va bunday innovatsion yondashuvlar sog'liqni saqlash sohasida potentsial qo'llanmalarga ega bo'lishi mumkin, bu erda shaxsiylashtirilgan strategiyalar bemorlarning ta'limini va terapevtik jarayonlarda ishtirokini kuchaytirishi mumkin. Ta'lim texnologiyasi va moslashtirilgan ta'lim chorrahasida tasvirlangan tomonidan, bu tadqiqot xabardor va ta'lim va sog'liqni saqlash, ham doirasida amaliyotini aylantirmoq mumkin adaptiv ta'lim muhitlar qanday keng aql hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: moslashtirilgan ta'lim, STEAM ta'limi, veb-platformalar, bolalar ta'limi, sun'iy intellekt (AI), gamifikatsiya, adaptiv ta'lim, interaktiv ta'lim muhiti, EdTech, raqamli ta'lim vositalari.

Introduction

The rapid evolution of digital technologies has fundamentally transformed the landscape of education, significantly altering how children engage with learning materials and interact with educational content. With the increasing demand for personalized learning experiences, particularly in the areas of Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics (STEAM), there is a pressing need to develop innovative educational platforms that cater to the diverse learning styles of children. Traditional educational methods often fall short in accommodating individual learning preferences, leading to disengagement and inadequate learning outcomes. This research aims to address the challenge of creating personalized STEAM web platforms for children by integrating artificial intelligence (AI) and gamification elements to enhance engagement and learning effectiveness. The primary research problem focuses on understanding the optimal combination of AI-driven personalization and gamification techniques that can be employed to develop engaging and adaptive learning environments for children, thereby improving their motivation and educational outcomes (Zakopoulos V et al., p. 13387-13387). The objectives of this study include exploring the various dimensions of AI that can be utilized to tailor educational content according to individual needs, as well as investigating the role of gamification in promoting sustained engagement among young learners. Furthermore, this research will delve into the pedagogical framework necessary for implementing these technologies effectively within the context of STEAM education. The significance of this study lies not only in its academic contributions but also in its practical implications for

ISSN 3030-3907

educational practice. By creating personalized learning experiences that leverage AI and gamification, educators can foster a more inclusive and effective learning atmosphere that motivates children and helps bridge gaps in academic achievement (Pramono A et al.). Additionally, this research can serve as a benchmark for future educational technologies, guiding policymakers, educators, and developers in creating innovative solutions that address the evolving needs of students in a digital age . As educational paradigms continue to shift, the integration of these technologies holds promise for significantly enhancing educational equity and accessibility, ultimately preparing children for the challenges of a rapidly changing world. Through this exploration, the dissertation aims to contribute valuable insights into the intersection of education, technology, and child development, fostering a deeper understanding of how personalized learning platforms can transform educational experiences for the next generation (Livingstone S, p. 886-891).




Image1. Systematic Review Process for Literature on Adaptive Learning and AI

Literature Review

In an increasingly digital world where technology permeates every aspect of life, the educational landscape is undergoing a significant transformation, particularly in the fields of science, technology, engineering, arts, and mathematics (STEAM). This transformation is catalyzed by innovative approaches that integrate artificial intelligence (AI) and gamification to create engaging learning environments tailored for children. The significance of this trend becomes evident when considering that early exposure to STEAM concepts equips children with critical skills necessary for the demands of a future workforce that thrives on creativity, critical thinking, and technological fluency (Caccavale F et al., p. 1-11).

ISSN 3030-3907

As educational methodologies evolve, the intersection of technology and pedagogy has emerged as a pivotal area of research, prompting numerous studies that explore the integration of personalized learning experiences through AI and gamified systems for children. Early research highlights the efficacy of these tools in enhancing student engagement and understanding, illustrating that platforms that tailor learning experiences to individual interests and abilities foster a deeper connection to the material (Miguel-Alonso I et al.).

Junni dastlabki ishlash korxonalarida qo‘llanilib kelinayotgan junni titish mashinalarida qoziqchaning jun tolasiga mexanik ta’siri natijasida jun tolasini uzilishi, junni tozalash qismida jun yaxshi tozalanmasligi, jun tolalari birinchi qoziqchali barabanda qolib ketishi kuzatilmoqda. Natijada qayta tozalanishi junning mexanik shikastlanishiga sabab bo‘lishi aniqlandi. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida junni titish mashinasining ishchi qismlarini takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.



2-rasm. Yoysimon shaklli qoziqchalarning tuzilishi

Titish jarayonida tolani shikastlanishini kamaytirish va samarali tozalash qoziqcha shakllarini o‘zgartirishni taqazo etadi. Birlamchi izlanishlarga ko‘ra, taklif etilayotgan shakldagi qoziqchalar titish jarayonida qo‘llaniladigan bo‘lsa jun tolalari shikastlanish darajasi kamayadi. Yangi konstruksiyadagi qoziqcha yoysimon shaklda tayyorlangan. Buning natijasida xomashyoga qoziqcha yon tomoni bilan ta’sir etadi va jun tolalarini qoziqchadan yengil ajralishiga olib keladi.

Qoziqchali barabanlarning har xil konstruksiyasi va ish unumdorligini aniqlash quyidagicha bo‘lib, turli konstruksiyali titish mashinalarida 4, 8, 12, 16 va 24 qatorli qoziqli barabanlar mavjud. Titish mashinalarida titilayotgan 1kg yuvilmagan junga qoziqlarning zarblari soni bilan to‘liq titilishi xarakterlanadi:

$$P_к = (\kappa_1 m_1 n_{б_1} + \kappa_2 m_2 n_{б_2}) / \upsilon_{т.л} bq$$

bu erda:

R_k — to‘liq titilganlik (qoziqlar zarbining soni);

k_1, k_2 — barabanda qoziqlar qatorlari soni;

m_1, m_2 — bir qatordagi qoziqlar soni;


n_{b1}, n_{b2} — barabanning aylanish chastotasi, s^{-1};

v_{ml}— ta’minlovchi tasmali to‘rning tezligi, m/s;

b — ta’minlovchi tasmali to‘rning eni, m;

ISSN 3030-3907

q — 1 m^2 ta’minlovchi tasmali to‘rdagi junning massasi, kg.



Mavjud qoziqcha Taklif etilayotgan qoziqchalar

2-rasm. Junni tiish uskunasining mavjud va taklif etilayotgan qoziqchalar ko‘rinishi

Mavjud qoziqchalarni kamchilligi jun tutamiga yon tomoni bilan uriladi, natijada xomashyoni yorib kira olmasdan qoziqchalar egilishi sinish holati ko‘p uchraydi, hamda jun tutami yaxshi titilmaydi. Taklif etilayotgan qiya qoziqchalar jun tutamini yorib kirishga mo‘ljallab yasalgan.



Mavjud qoziqcha Taklif etilayotgan qoziqchalar

4-rasm. Titish uskunasining qoziqchali barabanlari

Xulosa Hozirgi kunda jahon bozorini sun’iy tolalardan tayyorlangan mahsulotlar egallab bormoqda. Sababi xomashyoni arzonligi va yetarlicha mavjudligida. Lekin bunday mahsulotlarning inson sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazishi tabiiy tolaga bo‘lgan ehtiyojni xanuzgacha yo‘qotgani yo‘q. Aksincha

ISSN 3030-3907

jun tolasidan tayyorlangan mahsulotlarga bo‘lgan talab yil sayin o‘sib bormoqda. Jun tolasidan sifatli mahsulot olishda tozalash jarayoni muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Urozov M.K., Toshbekov O.A., Raximova K., Bobomurodov E. Jun tolasi diametri va notekisligi aniqlash. Eurasian Journal Of Academic Research. 2022. Vol 2, № 13. R. 789–791.
2. O.A.Toshbekov. Mahalliy dag‘al jun tolasi asosida noto‘qima matolar olish texnologiyasini ishlab chiqish. Dis.…t.f.f.d.-Toshkent, Paxtasanoat ilmiy markazi, 2023. 22-47 b.
3. S.M.Elmonov. Junni o‘simlik aralashmalaridan tozalash mashinasining samarali konstruksiyasini ishlab chiqish va ishchi parametrlarini asoslash: Dis.…t.f.f.d.-Toshkent, TTESI, 2018. -25-26 b.
4. D.Jurayev, “Mahalliy dag‘al jun tarkibidagi mayda va yirik iflosliklarni tozalash texnologiyasini takomillashtirish”, // “Agro-Ilm” // Agrar-iqtisodiy ilmiy-amaliy jurnali, // №4[92], 2023. 94-95 b.
5. D.Jurayev, “Junni tozalash agregatiga cho‘tkali baraban o‘rnatish hisobiga tozalash samaradorligini oshirish”, // “Agro-Ilm” // Agrar-iqtisodiy ilmiy-amaliy jurnali, // Maxsus son (2) [93], 2023. 76-77 b.
6. D.Juraev, M.Urozov, N.Urakov, “Junni titish-tozalash uskunasini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish orqali uning ish unumdorligini oshirish”// Namangan MQI, // Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali //Mahsus son №1/2023 y. 25-29 b.
7. Juraev D.A., Urozov M.K., Yangiboev R.M. Sovershenstvovanie pryadilno-ochistitelnogo uzla sherstyanogo volokna // Universum: texnicheskie nauki : elektron. nauchn. jurn. 2023. 7(112). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/15725 (data obrashcheniya: 14.07.2023)
8. D.A.Jo‘rayev, M.K.Urozov. “Cleaning the wool fiber from foreign impurities by installing a brush drum in the unwashed wool cleaning equipment” Journal of Textile and Fashion Technology (JTFT) Vol. 13, Issue.2, 5 –8 © TJPRC Pvt. Ltd. Published: Dec 2023, 5-8 s.
9. D.Jo‘raev, M.K.Urozov, N.A.Urakov, I.U.Eshonqulova. “Jun tolasini mexanik usulda titish va tozalash uskunasiga qiya ta’minlash mexanizmi va bunker o‘rnatish orqali tola tiqilishini oldini olish” HamMQI “Mexanika va texnologiya” ilmiy jurnali №3(12)2023. 262-267 bet.

ISSN 3030-3907

NMAP ALGORITMI: MOBIL NAVIGATSIYA UCHUN XARITALASH, MAHALLIYLASHTIRISH VA YO'LNI REJALASHTIRISHNI INTEGRATSIYALASH

Norqo‘ziyev Quvonchbek
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Kompyuter ilmlari va dasturlashtirish kafedrasi assistenti,
Email: quvonchbek9535@gmail.com
Tel.: +99891 630 95
Ulashev Asror
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Kompyuter ilmlari va dasturlashtirish kafedrasi kata o‘qituvchi,
Email: ulashevasror8@gmail.com
Aynakulov Toxir
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Kompyuter ilmlari va dasturlashtirish kafedrasi assistenti,
Email: aynaqulovtohir@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada avtonom mobil robotlar uchun xaritalash, lokallashtirish va yo‘lni rejalashtirish jarayonlarini yagona tizimda birlashtiruvchi NMap (Navigation Map) algoritmi taklif etiladi. Taklif etilgan algoritm ROS asosida yaratilgan simulyatsiya muhitlarida, jumladan Gazebo, Rviz va bulutli platforma — TheConstruct.ai yordamida sinovdan o‘tkazildi. Tadqiqot davomida NMap algoritmi mavjud ilg‘or yondashuvlar — A*, Frontier-Based Exploration va Rmap+ algoritmlari bilan taqqoslab tahlil qilindi. Simulyatsiya natijalari asosida taklif etilgan algoritm robot harakatining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan: umumiy bosib o‘tilgan masofa 36% dan 75% gacha, vaqt sarfi esa 32% dan 76% gacha qisqartirildi. NMap algoritmi real vaqt rejimida ishonchli, moslashuvchan va optimal navigatsiyani ta’minlab, avtonom mobil robotlar uchun zamonaviy va istiqbolli yechim sifatida taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: Avtonom mobil robot, robot boshqaruvi, harakatni rejalashtirish, ROS, Gazebo, Rviz, TheConstruct.ai, Frontier-Based Exploration, Rmap+, Nmap, simulyatsiya, navigatsiya.

Аннотация: В этой статье предлагается алгоритм Nmap (Navigation map) для автономных мобильных роботов, который объединяет процессы картирования, локализации и планирования маршрутов в единую систему. Предлагаемый алгоритм используется в средах моделирования на основе ROS, включая Gazebo, Rviz и облачную платформу — TheConstruct.ai проверено с помощью. В ходе исследования алгоритм Nmap был проанализирован путем сравнения с существующими передовыми

ISSN 3030-3907

подходами — a*, Frontier-based Exploration и rmap+. По результатам моделирования было установлено, что предложенный алгоритм значительно повышает эффективность движения робота: общее пройденное расстояние сократилось с 36% до 75%, а затраты времени-с 32% до 76%. Алгоритм Nmap предлагается как современное и перспективное решение для автономных мобильных роботов, обеспечивающее надежную, гибкую и оптимальную навигацию в режиме реального времени.

Ключевые слова: автономный мобильный робот, управление роботом, планирование движения, рос, беседка, Рвиз, TheConstruct.ai, Frontier-based Exploration, Rmap+, Nmap, моделирование, навигация.

Annotation: this article proposes an Nmap (Navigation Map) algorithm that combines mapping, localization, and path planning processes in a single system for autonomous mobile robots. The proposed algorithm is based on ROS in simulation environments, including Gazebo, Rviz and cloud platform — TheConstruct.ai tested using. During the study, the NMap algorithm was analyzed by analogy with existing advanced approaches — a*, Frontier-Based Exploration, and Rmap+ algorithms. Based on the results of the simulation, the proposed algorithm has been found to significantly increase the efficiency of robot movement: the total distance traveled was reduced from 36% to 75%, while the time consumption was reduced from 32% to 76%. The NMap algorithm is offered as a modern and promising solution for autonomous mobile robots, providing reliable, flexible and optimal navigation in real time.

Keywords: autonomous mobile robot, robot control, motion planning, ROS, Gazebo, Rviz, TheConstruct.ai, Frontier-Based Exploration, Rmap+, Nmap, simulation, navigation.

Kirish

So‘nggi yillarda avtonom mobil robotlar sanoat, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot va xizmat ko‘rsatish sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Ularning muhim vazifalaridan biri — notanish va dinamik muhitlarda mustaqil harakatlanish, ya’ni navigatsiya imkoniyatiga ega bo‘lishdir. Bunday robotlar ishonchli va optimal navigatsiya uchun uch asosiy bosqichni bajarishi lozim: xaritalash (mapping), mahalliylashtirish (localization) va yo‘lni rejalashtirish (path planning). Bu bosqichlar bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning integratsiyasi robotning harakatdagi aniqligi va samaradorligini belgilaydi.[1]

Hozirgi kunda navigatsiya muammolarini hal etish uchun ko‘plab algoritmlar ishlab chiqilgan. Jumladan, Frontier-Based Exploration metodi muhitni tadqiq etish uchun ishlatilsa, A* algoritmi eng qisqa yo‘lni topishda samarali hisoblanadi. Rmap+ esa real vaqtli xaritalash va marshrut qurishda qo‘llaniladi.

ISSN 3030-3907

Biroq ushbu yondashuvlarning har biri alohida modullarga asoslanadi va ko‘pincha bir-biri bilan to‘liq integratsiyalashmagan. Natijada navigatsiya jarayonida kechikishlar, noto‘g‘ri pozitsiyalash yoki optimal bo‘lmagan yo‘llar paydo bo‘lishi mumkin.[2]

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada xaritalash, lokallashtirish va harakatni rejalashtirish bosqichlarini yagona tizimga birlashtiruvchi yangi yondashuv — NMap (Navigation Map) algoritmi taklif etilmoqda. NMap algoritmi avtonom mobil robotlar uchun real vaqtli, moslashuvchan va optimizatsiyalangan navigatsiyani ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan. U ROS (Robot Operating System) asosida Gazebo, Rviz va TheConstruct.ai platformalarida sinovdan o‘tkazildi.[3]

Maqolada NMap algoritmi mavjud yondashuvlar bilan — A*, Frontier-Based Exploration va Rmap+ bilan taqqoslab tahlil qilinadi, natijalar esa masofa va vaqt sarfini kamaytirish orqali samaradorlikni sezilarli darajada oshirishni ko‘rsatadi. Bu yondashuv kelgusida avtonom mobil robotlarning mustaqil va ishonchli harakatini ta’minlashda muhim rol o‘ynashi mumkin.

NMap (Navigation Map) ishlash jarayoni

Ushbu tadqiqotda taklif etilgan **NMap (Navigation Map)** algoritmi avtonom mobil robotlar uchun xaritalash, lokallashtirish va yo‘lni rejalashtirish bosqichlarini yagona tizimda birlashtirishga qaratilgan. Algoritm uchta asosiy moduldan tashkil topgan: xaritalash (mapping), mahalliylashtirish (localization) va yo‘lni rejalashtirish (path planning). Har bir modul quyida bayon etilgan texnologiyalar asosida qurilgan[4].

Xaritalash (Mapping)

Xaritalash jarayonida robot atrof-muhit haqida vizual va geometriyaga oid ma’lumotlarni yig‘adi. Bu bosqichda **LIDAR** sensorlari va yuqori aniqlikdagi **RGB-D** kameralardan foydalaniladi. Ushbu datchiklar orqali olingan ma’lumotlar asosida Occupancy Grid Map yaratiladi. Bu xarita har bir katakchaning band yoki bo‘sh ekanligini ifodalaydi. Xaritalash jarayonini amalga oshirish uchun **Gmapping** yoki **Cartographer** paketlari ROS platformasida integratsiyalangan[5].

Mahalliylashtirish (Localization)

Robotning muhit ichidagi aniq koordinatalarini aniqlash uchun **Adaptive Monte Carlo Localization (AMCL)** algoritmidan foydalaniladi. AMCL — Particle Filter usuliga asoslangan bo‘lib, xarita va sensorlardan kelayotgan real vaqtli ma’lumotlarni taqqoslab, robotning joylashuvini doimiy tarzda aniqlab boradi. Ushbu metod pozitsiyalashda yuqori aniqlikni ta’minlaydi va dinamik muhitlarda ham samarali ishlaydi[10].

ISSN 3030-3907

Yo‘lni rejalashtirish (Path Planning)

NMap algoritmida yo‘lni rejalashtirish moduli avtonom harakatni samarali, xavfsiz va optimal tarzda amalga oshirish uchun bir nechta mavjud yondashuvlar bilan integratsiyalangan. Ular orasida **A***, **Frontier-Based Exploration** va **Rmap+** algoritmlari sinovdan o‘tkazildi va ular o‘zaro taqqoslab baholandi.

- **A*** algoritmi — aniqlik, samaradorlik va optimal yo‘lni topish qobiliyati bilan ajralib turadi. Xarita ustida eng qisqa va to‘siqsiz yo‘lni aniqlashda yuqori natija ko‘rsatdi.
- **Frontier-Based Exploration** — noma’lum muhitlarni kashf qilishda foydali bo‘lib, robot o‘z xaritasi chegarasida joylashgan noma’lum hududlarga yo‘naltiriladi. Bu yondashuv xaritalash va harakatni rejalashtirishni birlashtiradi, ammo faqat to‘liq noma’lum muhitlarda samaralidir[12].
- **Rmap+ algoritmi** — real vaqt rejimida yo‘lni rejalashtirish va xarita tuzishni birlashtiruvchi ilg‘or yondashuvlardan biridir. U dinamik to‘siqlar mavjud bo‘lgan muhitda moslashuvchanlikni ta'minlaydi va robotning harakat trayektoriyasini doimiy ravishda yangilab boradi.

NMap algoritmi ushbu algoritmlarni holatga qarab avtomatik tanlash imkoniyatiga ega. Masalan, ma’lumot to‘liq bo‘lgan muhitlarda A* tanlansa, noma’lum hududlarda Frontier-Based Exploration, dinamik va murakkab muhitlarda esa Rmap+ algoritmi ustunlik qiladi. Bu yondashuv robotning atrof-muhitdagi holatlarga moslasha olishini ta’minlab, umumiy navigatsiya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Algorithm . NMap Path Planning Algorithm
1. Begin 2. Initialize ROS environment with necessary components (Lidar, Camera, AMCL, Path Planning) 3. Initialize Robot Position and Orientation 4. Set: MaxRange ← Maximum range of sensor 5. Set: MinRange ← Minimum range of sensor 6. Set: Robot ← New Robot object with start position 7. Create empty Map and Localization grid 8. SensingData ← Collect data from Lidar and Camera sensors 9. Loop until goal is reached: 10. Perform Localization (AMCL or Particle Filter)

ISSN 3030-3907

11. Update robot position on the Map
12. Set Goal Location ← Target position or predefined destination
13. Generate Frontiers ← Identify unexplored areas using sensor data
14. Calculate Size of each Frontier
15. Choose the best Frontier ← Based on size and robot capabilities (MaxRange/MinRange)
16. Perform Path Planning using chosen Frontier:
17. If using **A***, calculate the optimal path from robot to Frontier based on cost and heuristic values
18. If using **Frontier-Based Exploration**, explore the most promising unexplored area using the frontier approach
19. If using **Rmap+**, calculate a path considering dynamic obstacles and recalculate path if needed
20. Navigate robot to the chosen Frontier
21. If obstacle detected, use local obstacle avoidance algorithms
22. Continue navigation until robot reaches the chosen frontier
23. Update Map and Localization after each movement
24. End Loop when goal is reached
25. Return robot to final destination
26. End

Harakatni boshqarish (Motion Control)

Rejalashtirilgan yo‘l bo‘ylab robotni aniq harakatlantirish uchun harakat nazorati mexanizmi zarur. Bu bosqichda ikki xil boshqaruv yondashuvi sinovdan o‘tkazildi:

- **PID (Proportional–Integral–Derivative)** nazorati — soddaligi va tez ishlashi bilan ajralib turadi.
- **MPC (Model Predictive Control)** — oldindan modellangan harakat trayektoriyalarini optimallashtirib, murakkab harakat muhitlarida yuqori aniqlik bilan boshqarishni ta’minlaydi.

Simulyatsiya muhiti

Algoritmni sinovdan o‘tkazish uchun ROS (Robot Operating System) platformasidan foydalanildi. Sinovlar quyidagi muhitlarda amalga oshirildi:

- **Gazebo** — fizik muhitni real ko‘rinishda modellashtiruvchi 3D simulyator;
- **Rviz** — sensor va xarita ma’lumotlarini vizualizatsiya qiluvchi vosita;
- **TheConstruct.ai** — bulutli onlayn muhit bo‘lib, real vaqtda ROS dasturlarini ishga tushirish, masofaviy boshqaruv va simulyatsiyani amalga oshirish imkonini beradi.

ISSN 3030-3907

NMap algoritmi yuqoridagi modullarni bir tizimga integratsiyalash orqali robotlarga murakkab muhitlarda samarali va mustaqil harakat qilish imkonini beradi.

1-Jadval

NMap algoritimini A*, Frontier-Based Exploration, Rmap+ algoritmlari bilan turli muhitlarda burilish nuqtalari, qamrov maydoni, masofasi va vaqtiga nisbatlari aks etgan.

Muhit turlari	Algoritm	Burilish nuqtalari	Qamrov maydoni	Tadqiqot masofasi	Tadqiqot vaqti
Keng siklik muhit	A*	45	100%	220 m	590 sek
	Frontier-Based Exploration	48	100%	260 m	690 sek
	Rmap+	175	100%	450 m	1450 sek
	NMap	35	100%	190 m	510 sek
Kichik siklik muhit	A*	6	98%	40 m	115 sek
	Frontier-Based Exploration	9	100%	57 m	195 sek
	Rmap+	35	100%	110 m	340 sek
	NMap	5	100%	34 m	95 sek
Kichik siklga ega bo‘lmagan muhit	A*	8	96%	42 m	60 sek
	Frontier-Based Exploration	10	98%	52 m	140 sek
	Rmap+	41	100%	130 m	400 sek
	NMap	7	100%	38 m	50 sek


2-Jadval

NMap algoritimini A*, Frontier-Based Exploration, Rmap+ algoritmlarini turli ko‘rsatkichlar orqalisamaradorligi aks ettirilgan.

№	Ko‘rsatkichlar	A*	Frontier-Based Exploration	Rmap+	NMap (taklif etilgan)
1	**Statik muhitda harakat**	Juda samarali	Chegaralangan	Yaxshi	Juda samarali
2	**Dinamik to‘siqlar bilan test**	Zaif moslashadi	Moslashmaydi	Yaxshi	**Yuqori moslashuvchanlik**
3	**Xarita aniqligi**	Faqat mavjud xarita	Yangi hududlarni o‘rganadi	Yuqori	**Yuqori aniqlik**

ISSN 3030-3907

4	**Yo‘l uzunligi (m)**	1150 m	1620 m	1280 m	**930 m** (36–75% qisqaroq)
5	**Hisoblash vaqti (s)**	6.8 s	9.2 s	7.4 s	**3.1 s** (32–76% tezroq)
6	**Lokallashtirish aniqligi**	O‘rtacha (GPS kerak)	Past (muvofiqlashtirilmagan)	Yuqori	**Yuqori aniqlik** (AMCL bilan)
7	**Moslashuvchanlik**	Past	Past	Yaxshi	**Juda yuqori**
8	**Integratsiyalashgan yondashuv**	Yo‘q	Qisman	Qisman	**To‘liq integratsiyalangan**



1-rasm: NMap, A*, Rmap+, Frontier-Based Exploration algorimlarining turli ko‘rsatkichlar bo’yicha tahlili

NMap algoritmi yuqori samaradorlikka ega, hisoblash vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi. Yuqori aniqlikda xaritalash va lokallashtirish, AMCL algoritmi yordamida robot harakati aniq nazorat qilinadi. Xaritalash, lokallashtirish va yo‘lni rejalashtirish alohida modullarda ishlaydi, bu esa moslashuvchanlikni ta’minlaydi. A* Algoritmi aniqlikni yuqori ta’minlaydi, ammo dinamik to‘siqlar bilan ishlashda kamchiliklarga ega. NMap bu holatlarni samarali hal qildi. Frontier-Based

ISSN 3030-3907

Exploration algoritmi yangi hududlarni o‘rganishda foydali, ammo cheklangan joylarda samaradorligi pasayadi. NMap bu nuqtada yanada moslashuvchan. Rmap+ algoritmi yuqori aniqlik, ammo hisoblash vaqti ko‘proq. NMap tezroq ishlaydi va samarali navigatsiyani ta’minlaydi.

Murakkab muhitlarda moslashuvchanlikni yaxshilash va energiya samaradorligini oshirish kerak. Ko‘p robotli tizimlar va adaptiv o‘rganish orqali NMap samaradorligini yanada oshirish mumkin. NMap algoritmi yuqori samaradorlikni ta’minlab, kelajakda yanada takomillashishi mumkin.

Xulosa

Ushbu maqolada avtonom mobil robotlar uchun xaritalash, lokallashtirish va yo‘lni rejalashtirishni birlashtiruvchi NMap (Navigation Map) algoritmi taklif etildi. Algoritm ROS asosida ishlab chiqilgan simulyatsiya muhitlarida, jumladan Gazebo, Rviz va TheConstruct.ai platformalarida sinovdan o‘tkazildi. Tadqiqot davomida NMap algoritmi ilg‘or A*, Frontier-Based Exploration va Rmap+ algoritmlari bilan taqqoslanib, uning samaradorligi baholandi.

Simulyatsiya natijalari shuni ko‘rsatdiki, NMap algoritmi robot harakatining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi: masofa 36% dan 75% gacha qisqartirilib, vaqt sarfi 32% dan 76% gacha kamayadi. NMap algoritmi yuqori aniqlik, ishonchlilik va tezlikni ta’minlab, real vaqt rejimida samarali navigatsiyani amalga oshiradi.

NMap algoritmi avtonom mobil robotlar uchun zamonaviy va istiqbolli yechim bo‘lib, kelajakda uning samaradorligini yanada oshirish uchun qo‘shimcha takomillashtirishlar kiritish imkoniyati mavjud. Algoritmning modulli va integratsiyalangan tuzilishi uning kengaytirilishi va yangi texnologiyalar bilan integratsiya qilinishiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Buriboev, A., Kang, H. K., Lee, J. D., Oh, R., & Jeon, H. S. (2022). Rmap+: Autonomous Path Planning for Exploration of Mobile Robot Based on Inner Pair of Outer Frontiers. KSII Transactions on Internet and Information Systems (TIIS), 16(10), 3373-3389.
2. Buriboev, A., Muminov, A., Oh, H. J., Lee, J. D., Kwon, Y. A., & Jeon, H. S. (2021). Internal and external frontier-based algorithm for autonomous mobile robot exploration in unknown environment. Electronics Letters, 57(24), 942-944.
3. Buriboev, A., Choi, A. J., & Jeon, H. S. (2024). Optimized Frontier-Based Path Planning Using the TAD Algorithm for Efficient Autonomous Exploration. Electronics, 14(1), 74.
4. Liang, H., Wang, Z., & Li, J. Robot autonomous frontier exploration strategy based on the idea of image processing.

ISSN 3030-3907

5. Zhang, Y., Chen, L., & Xu, Q. (2023, November). An Improved Frontier Point Exploration System for Mobile Robots Based on LiDAR SLAM. In 2023 IEEE International Conference on Development and Learning (ICDL) (pp. 282-287). IEEE.
6. Chang, L., Shan, L., Li, J., & Dai, Y. (2019, May). The path planning of mobile robots based on an improved A* algorithm. In 2019 IEEE 16th international conference on networking, sensing and control (ICNSC) (pp. 257-262). IEEE.
7. Fang, B., Ding, J., & Wang, Z. (2019). Autonomous robotic exploration based on frontier point optimization and multistep path planning. Ieee Access, 7, 46104-46113.
8. Mu, Y. Z., Dong, C. Y., Chen, Q. M., Li, B. C., & Fan, Z. Q. (2020, April). Research on Navigation and Path Planning of Mobile Robot Based on Vision Sensor. In Proceedings of the 2020 6th International Conference on Computing and Artificial Intelligence (pp. 519-524).
9. Lyu, Z., Yin, Y., Liu, Q., & Yang, T. (2024, August). Autonomous Exploration Algorithm for Mobile Robots in Unknown Confined Environment. In 2024 16th International Conference on Intelligent Human-Machine Systems and Cybernetics (IHMSC) (pp. 188-191). IEEE.
10. Akagunduz, S., Ozalp, N., & Yavuz, S. (2016). Efficiency of dynamic local area strategy for frontier-based exploration in indoor environments. In Intelligent Robotics and Applications: 9th International Conference, ICIRA 2016, Tokyo, Japan, August 22-24, 2016, Proceedings, Part I 9 (pp. 351-361). Springer International Publishing.
11. Zhang, Y., Shao, S., Wang, T., Cao, F., Xu, H., Shi, X., & Zhong, L. (2024, July). Mobile Robot Autonomous Exploration Method with Improved Weighted Centroid and Multi-Objective Optimization. In 2024 IEEE 14th International Conference on CYBER Technology in Automation, Control, and Intelligent Systems (CYBER) (pp. 440-444). IEEE.
12. Ibrahim, M. F., Huddin, A. B., Zaman, M. H. M., Hussain, A., & Anual, S. N. (2021). An enhanced frontier strategy with global search target-assignment approach for autonomous robotic area exploration. Int. J. Adv. Technol. Eng. Explor, 8, 283-291.
13. Wang, C., Chi, W., Sun, Y., & Meng, M. Q. H. (2019). Autonomous robotic exploration by incremental road map construction. IEEE Transactions on Automation Science and Engineering, 16(4), 1720-1731.
14. Norqo'ziyev, Q. (2023). Mobil robotlar uchun yo'lni rejalashtirish algoritmi. Research and Implementation. извлечено от https://fer-teach. uz/index. php/rai/article/view/746.

ISSN 3030-3907

15. Норкозиев, К., & Тоджиев, А. (2023). Использование искусственных нейронных сетей при разработке алгоритма поиска оптимального пути мобильных роботов в динамических средах. Информатика и инженерные технологии, 1(1), 25-29.
16. Norqo‘ziyev, Q., Aynakulov, T., Mahkamov, S., & Sodiqov, D. (2024). IMPLEMENTING MOBILE ROBOT WALKING PATH CONTROL AND TRACKING IN C# WINDOWS FORM APPLICATION. International Journal of scientific and Applied Research, 1(3), 95-99.
17. Тоджиев, А., & Норкузиев, К. (2023). The role of artificial intelligence technology in individualized teaching. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 153-156.
18. Sambhram, R. P., & Nasriddinovich, U. A. Komiljon o ‘g, NZQ, & Toxir Turg'un o ‘g, A.(2024). GUEST HOUSE WEBSITE. IJODKOR O'QITUVCHI, 4(40), 74-79.
19. Norqo‘ziyev, Q., Narziqulov, S., Shomiddinov, S., & Doniyorov, J. (2024). ADO. NET VA ENTITY FRAMEWORK CORELAR ORQALI C# FORMGA MA’LUMOTLAR BAZASINI BOG ‘LASHDAGI AVFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. International Journal of scientific and Applied Research, 1(3), 99-103.
20. Smith, A. D., Chung, W. Y., Hodges, E., Kendall, J., Hannon, G., Hicks, J., ... & Zhang, M. Q. (2009). Updates to the RMAP short-read mapping software. Bioinformatics, 25(21), 2841-2842.
21. ROS based SLAM implementation for Autonomous navigation using Turtlebot Sumegh Pramod Thale, Mihir Mangesh Prabhu, Pranjali Vinod Thakur and Pratik Kadam Published online: 29 July 2020
22. Nasriddinovich U. A. INTELEKTUAL SIMULYATSIYA TIZIMLARI YORDAMIDA SARALASH ALGORITMLARINI O ‘RGATISH METODIKASI //Global Science Review. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 31-36.
23. Nasriddinovich, U. A., Zafar o‘g‘lı, N. J., & Asrorqul o‘g, G. A. O. (2025). MOBIL TA’LIM ILOVALARI ORQALI INTELLEKTUAL METODLARNI RIVOJLANTIRISH. Global Science Review, 1(1), 37-42.
24. Nasriddinovich, U. A., & Nasriddinovich, U. A. (2023). GORIZONTGA BURCHAK OSTIDA OTILGAN JISM HARAKATI VA DASTURIY TAMINOTI. Scientific Impulse, 1(8), 437-444.
25. Mahkamov, S., Aynakulov, T., & Baratov, J. (2024). ANDROIDDA MODEL VIEW PRESENTER (MVP) ARXITEKTURASI. International Journal of scientific and Applied Research, 1(3), 199-202.

ISSN 3030-3907

26. Mahkamov, S., Aynakulov, T., & Baratov, J. (2024). ANDROIDDA MODEL VIEW PRESENTER (MVP) ARXITEKTURASI. International Journal of scientific and Applied Research, 1(3), 199-202.
27. Bobobekov, S., & Raxmonkulov, F. (2021). O ‘QUVCHILARNI MA’LUMOTLARNI DESHIFRLASH ALGORITMINI QO ‘LLASHGA O ‘RGATISHNI SODDALASHGAN USULI. Academic research in educational sciences, 2(5), 639-649.
28. Aynakulov, T., & Abdurashidov, J. (2024). TASVIRLARNI TANIB OLISHNING DOLZARBLIGI HAMDA TASVIRLARGA RAQAMLI ISHLOV BERISH. International Journal of scientific and Applied Research, 1(3), 123-126.
29. Mahkamov, S., Dandu, J., Aynakulov, T., & Saitqulov, S. (2024). METHODS AND ARGUMENTS: HANDLING PARAMETERS IN JAVA. SAMBHRAM XABARNOMASI, 1(1), 97-99.

ISSN 3030-3907

ZARMITAN OLTIN RUDALI ZONASIDA JOYLASHGAN «SKIPOVOY» STVOLINING RUDA OMBORIDAN 4-GMZ RUDA OMBORIGA RUDANI TASHISH UCHUN TRANSPORT TANLASHDA RELYEFNING TA'SIRINING TAHLILI

Xudoyberdiyev Lochin Nekovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti "KEM" kafedrasi dotsent v.b.
Maxmudov Azamat Maxmudovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, "KEM" kafedrasi dotsenti
Suleymanova Mukaddas Baxtiyarovna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, "KEM" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada «Skipovoy» stvolining ruda omboridan 4-GMZ ruda omboriga rudani tashish uchun transport tanlashda relyef ta'sirining tahlili keltirilgan. Transport uskunalarini tanlashda relyef ta'sirini inobatga olgan holda optimal transport tanlash bo'yicha yechimlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Relyef, avtomobil transporti, konveyer transporti, yuk osma sim arqonli yo'l.

Аннотация. В данной статье представлен анализ влияния рельефа при выборе транспорта для транспортировки руды из рудный склад ствола "Скиповой" на рудный склад ГМЗ-4. Приведены решения по выбору оптимального транспорта с учётом влияния рельефа при выборе транспортного оборудования.

Ключевые слова: Рельеф, автомобильный транспорт, конвейерный транспорт, грузоподъёмная канатная дорога.

Abstract. This article analyzes the influence of relief on the choice of transport for transporting ore from the "Skipovoy" shaft ore storage to the GMZ-4 ore storage. Solutions for choosing the optimal mode of transportation, taking into account the influence of relief on the choice of transport equipment, are presented.

Keywords: Relief, automobile transport, conveyor transport, lifting cable car.

Kirish

Kon qazish maydonlarida kon massasi, iqtisodiy va texnik yuklarni tashish uchun turli xil transport turlari qo'llaniladi, ulardan asosiylari temir yo'l, avtomobil va konveyer transportidir. Muayyan sharoitlar uchun oqilona transport turini tanlash, qazib olinadigan tog' jinslarining fizik-texnik va kimyoviy xossalari, ob'yektning joylashish sharoitlari, iqlimi, yuk aylanmasi, tashish masofasi, yuk turlari va parametrlari, yuklash uskunalari, kon qazish

ISSN 3030-3907

kompleksining ishlash muddati va boshqalar bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Jahon miqyosida, jumladan mamlakatimizda ham zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda texnologik oltin rudali hududlarni qazib olishsamaradorligini oshirish maqsadida konlarni qazib oluvchi guruhlar va qayta ishlash korxonalari yirik boshqarmalarga birlashtirilib, ularni kompleks o‘zlashtirishga imkon beradigan kuchli tarkibiy birliklar tashkil etilgan. Qazib olinadigan ruda massasi sifatini oshirishning turli usullarini qo‘llash maqsadiga muvofiqligini baholash va optimal ruda oqimlarini shakllantirish, yuqori samarali texnologiyalarni tanlash ushbu muammolarni hal qilishni ilmiy asoslarini tegishli ravishda o‘zgartirishni va ma’lum konchilik korxonasini o‘ziga xos sharoitlarini hisobga olishni talab qiladi. [1,2].

Biroq, ko‘p komponentli va aralash turdagi rudalarni qazib olishning nazariy tamoyillari va texnologiyasi, ayniqsa, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga nisbatan yetarlicha ishlab chiqilmagan. Zaxiralar to‘g‘risidagi geologik ma’lumotlarning ishonchlilik darajasi, zaxiralarni qidirishdan tortib to boyitish va mahsulot sotishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi kabi omillar yetarlicha hisobga olinmaydi. Bu masalalarni chuqurroq o‘rganish, qo‘shimcha xarajatlarsiz optimal ruda oqimlarini shakllantirish bilan konchilik texnologik sxemalarini samarali va kengroq qo‘llashga yordam beradi [3,4,5].

Qazib olish korxanalarida transportning o‘ziga xos ish sharoitlari uchun uning texnik imkoniyatlari, ko‘rsatkichlari, iqtisodiy jihatdan optimal maksimal qiyalik va egri chiziqlarning minimal radiusi hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar ma’lum darajada kon kapital ishlarini hajmini va relyef chegaralarida transport kommunikatsiyalarini joylashtirish imkoniyatini belgilaydi. Turli xil transport turlaridan foydalanishning oqilona imkoniyati ularning texnik va texnologik parametrlariga bog‘liq. Ruda tashishda quyidagi asosiy transport turlari mavjud:

Hududning situatsion rejasi va transport vositalarini yuklash va bo‘shatish joylarini ko‘rsatuvchi mavjud avtomobil yo‘lining rejasi. Zarmitan ruda maydonining mavjud texnologik yo‘lining korxona ob’yektlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlari bo‘yicha tuzilgan sxemasi 1–rasmda ko‘rsatilgan.

ISSN 3030-3907



1 – rasm Zarmitan oltin qazib olish zonasining yo‘l rejasi, tashish masofasi va yuk oqimi

Hozirgi vaqtda Zarmitan oltin rudali zonasida kon ishlari bo‘yicha kalendar rejalariga mos ravishda ruda jo‘natish uchun 8 ta ruda ombori va texnologik ruda oqimlari mavjud.

Tashiladigan rudaning umumiy hajmi yiliga 1950 ming tonnani, rudani tashish masofasi 2,3 km dan 6,2 km gachani tashkil etadi.

Temir yo‘l transporti – o‘rta va yuqori unumdorlikdagi karyerlarda foydalanish uchun mos keladi. Odatda tashish masofasi 8 dan 12 km gacha yoki undan yuqori, qiyaligi 40–60 ‰ bo‘lganligi sababli bu transportdan Zarmitan oltin rudali zonasi sharoitida foydalanishga imkon bermaydi.

Avtomobil transporti – nisbatan kichik o‘lchamli og‘ir sharoitlardagi konlarni o‘zlashtirishda eng keng tarqalgan. Avtomobil transporti kichik va o‘rta unumdorlikka ega konlarda (yuk oqimi yiliga 0,5 dan 5 million tonnagacha) ishlatiladi. Odatda transport masofalari bir necha yuz metrdan 7 km yoki undan yuqori, qiyaligi 60–100 ‰ tashkil qiladi.

Jahon amaliyotida osma rolikli tasmali konveyerlardan tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Masalan, 1200 mm kenglikdagi yer osti tasmali konveyerlarning 11 turidan (modifikatsiyani hisobga olgan holda) 10 turi arqon yoki qattiq tirgakka biriktirilgan osma rolikli tasmali konveyerlardir.

AQShdagi texnologik transport sxemalarini o‘rganishga ko‘ra, yer osti sharoitida ishlaydigan tasmali konveyerlarning 90 % dan ortig‘i arqonli osma roliklarga ega. Qattiq o‘rnatilgan rolikli konveyerlarga nisbatan arqonli va osma rolikli konveyerlarning afzalliklari va kamchiliklari: 1) konveyerni yetkazib berish soddaligi va konveyer qismlari o‘lchamlarining kichikligi, shuningdek konveyerni

ISSN 3030-3907

o‘rnatish, demontaj qilish va qurishning soddaligi; 2) kapital xarajatlar qattiq o‘rnatilgan rolikli konveyerlarga qaraganda 10–20 %, shu bilan birga, ekspluatatsion xarajatlar (500 m uzunlikdagi konveyer birligi nuqtai nazaridan) 3–5 % ga pastligi; 3) tasma va rolik tayanchlarining shikastlanishi, yukning to‘kilishi kamligi; 4) moslashuvchan rolikli tayanchlardan foydalangan holda tasmani markazlashtirish yaxshiligi, konveyer transporti katta va kichik maydonlarda, asosan bitta tarkibda, to‘g‘ri chiziqli holatda ishlatiladi. Odatda tashish masofasi 3 dan 10 km gacha, yillik yuk oqimi 20–80 million tonna yoki undan ortiq bo‘lganda konveyer transportini ishlatish samarali hisoblanadi. Zarmitan oltin qazib olish zonasida qiyalik 250–330 ‰ gacha bo‘ladi.

Yuk osma arqonli transportining unumdorligini (430 t/soat) hisobga olgan holda, YOAYdan yiliga 0,5 dan 2,5 million tonnagacha yukni 15–20 km yoki undan ortiq masofaga tashish uchun foydalanish samarali hisoblanadi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, chet elda YOAY qurish narxi nisbatan past. Masalan, 1 km uzunlikdagi bir arqonli yo‘llarni qurish qiymati 400 mingdan 600 ming AQSh dollarigacha, ikki arqonli halqa yo‘llari 600 ming dollardan 1 million AQSh dollarigacha, 1 tonna yukni bir arqonli yo‘llarda tashish narxi 0,5 dan 1 AQSh dollarigacha, ikki arqonli yo‘llar bilan 0,7 dan 1,5 AQSh dollarigacha turadi.

Texnik–iqtisodiy asoslash loyihasi bilan mos ravishda ishlab chiqilgan Zarmitan oltin rudali zonasi konlari asosida kon qazib olish kompleksining quyi gorizontlarini qazib olish – 70,0 m dan 1000 m chuqurlikka qadar «Skipovoy» stvolini qurish kerak. Shuningdek kon ishlarini rivojlantirish hamda Zarmitan va O‘rtaliq konlarining kon lahimlarini bog‘lovchi yer osti transport va ular uchun ichki transport logistikasining yagona tarmog‘ini yaratish lozim.

Stvol kesim yuzasi 33,18 m^2 va 39,59 m^2 bo‘lib, stvol mustahkamlagichi – monolit beton, stvol mustahkamlagich tayanchlari – metall, ko‘taruvchi idishlarning o‘tkazgichlari quti shaklida (skiplarda) va rels shaklida (kletli ko‘tarishda) bo‘ladi. Stvol ko‘p sim arqonli ikki skipli va kletli yuk ko‘tarish qurilmalari yordamida birinchi bosqichda yiliga 850 ming tonna rudani ko‘tarish uchun mo‘ljallangan. «Skipovoy» stvolining unumdorligi yiliga 1400 ming tonna rudani tashkil qiladi. Stvol kesim yuzasiga sig‘imi 7 m^3 bo‘lgan ikkita skip va 61KM3,1 qarshi yukli bitta klet o‘rnatilgan.

Kon va «Skipovoy» stvoli hududi Qo‘shrobod granitoid massivining janubi–sharqiy uchida joylashgan bo‘lib, relyefning keskin o‘zgarishi va yo‘llarning texnologik sxemasi bilan ajralib turadi (2-rasm).

«Skipovoy» stvoli qurilgan hududdagi relyef past tog‘li ajratilgan bo‘lib, balandligi +931 m ni tashkil qiladi. «Skipovoy» stvoli qurilayotgan hududda qatnov qismining kengligi 8–10 m bo‘lgan avtomobil yo‘li mavjud.

ISSN 3030-3907


Transport uskunalarini ishini ekspluatatsiya ko‘rsatkichlarini tadqiq qilish va rejim parametrlarini o‘rnatish uchun texnologik avtomobil yo‘lining yo‘nalishini tegishli ma’lumotlar va qiyaliklarga ega bo‘limlarga ajratdik (2–rasm).



2–rasm. «Skipovoy» stvoli ruda omboridan 4-GMZgacha bo‘lgan kon avtomobil yo‘lining texnologik sxemasining umumiy rejasi va kesimi.

Rudani 4–GMZ ruda omboriga tashishda konveyerdan foydalanilganda, skipli ko‘taruvchi bunkeridan ruda avtotransport orqali konveyer liniyasining yuklash majmuasiga yetkaziladi. Konveyer liniyasining umumiy uzunligi taxminan 2,6 km ni tashkil qiladi va konveyer tasmasining kengligi 1200 mm ni tashkil qiladi. Konveyer yo‘lining uzunligi bo‘ylab konveyer liniyasi trassasining relyefiga qarab har xil uzunlikdagi 4 ta asosiy konveyer agregatlarini o‘rnatish kerak bo‘ladi.

Transport uskunalarining ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini keyingi o‘rganish va ish parametrlarini o‘rnatish uchun biz texnologik konveyer liniyasining yo‘nalishini relyef, tabiiy va sun’iy to‘siqlar mavjudligini hisobga olgan holda tegishli ma’lumotlar va qiyaliklarga ega bo‘laklarga ajratdik (3–rasm).



3–rasm. “Skipovoy” stvolidan 4–GMZ ruda omborigacha bo‘lgan konveyer yo‘lini to‘g‘ri chiziqda qurishning umumiy rejasi va kesimi.

ISSN 3030-3907

“Skipovoy” stvolidan 4–GMZ ruda omborigacha rudani aylanma harakatga ega to‘rtburchak vagonchalar bilan ikki arqonli yuk osma kanat yo‘li yordamida yetkazib berishning texnologik sxemasini ishlab chiqdik (4–rasm).

Ishlab chiqilgan texnologik sxemada yiliga 1,4 million tonna rudani 6 m/s vagonchalar harakat tezligi bilan “Skipovoy” stvolidan 4–GMZ ruda omboriga tashish nazarda tutilgan. YOAYning balandliklari +943 m boshi, yo‘nalishning o‘rtasida eng past ko‘tarilish +896 m va yakuniy balandligi +936 m. Biz VG–2000 hajmi 1,6 m^3 va yuk ko‘tarish quvvati 2,4 tonna bo‘lgan maxsus vagonchalarni tanlashdik.



“Skipovoy” stvolidan 4–GMZ ruda omborigacha bo‘lgan yuk osma sim arqonli yo‘l qurishning umumiy rejasi va kesimi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Relyef noqulayligini hisobga olgan holda transport uskunalari tanlandi. Tanlangan transport vositalarining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini taqqoslash snatijasida «Skipovoy» stvoli yuklash omboridan 4–GMZ ruda omborigacha ruda yetkazib berish uchun, Zarmitan oltin rudali zonasida MAN 40.400 TGS 25t rusumli avtosamosvaldan foydalangan holda transportning texnologik sxemasi varianti tavsiya etildi va samarali ekanligi isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шешко Е.Е., Галкин В.И. «Специальные типы ленточных конвейеров». – М.: Издетельство Московского государственного горного университета, 2019. – 116 с.
2. Либерман Б. А. Расчёт грузовой подвесной канатной дороги. – Липецкий государственный технический университет, ЭБС АСВ, 2022. – 33с3. Васильев М.В. Транспорт глубоких карьеров / М.В. Васильев. – М.: Недра, 1983. – 296 с.
3. Maxmudov A., Maxmudov Sh.A., Musurmanov E.Sh., Xudoyberdiyev L.N. Tashqi transport logistikasi tizimida avtotransport ishining texnik-iqtisodiy

ISSN 3030-3907

ko‘rsatkichlarini hisoblash va tadqiq qilish metodikasi. – Navoiy, 2024-yil. – 29b.

4. Xakimov Sh.I. Murakkab geomexanik sharoitdagi tikqiya tomirsimon oltin konini qazib olish texnologik sxemalarini ishlab chiqish // Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Navoiy, 2023. – 57-b.
5. Maxmudov A., Maxmudov Sh.A., Musurmanov E.Sh., Xudoyberdiyev L.N. Gidrometallurgiya zavodining ruda omboriga foydali qazilmalarni tashqi tashish uchun logistika tizimlarini qurish va oltin qazib olish texnologik zonasining ruda yuk oqimlari parametrlarini hisoblash metodikasi. – Navoiy, 2024-yil. – 31 b.

ISSN 3030-3907